

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI**

**«YOG'-MOY MAHSULOTLARI EKSPERTIZASI»**

**FANIDAN ELEKTRON MODULLI O'QUV-  
USLUBIY MAJMUA**



**Qarshi – 2022**

Tuzuvchi: prof.Axmedov A.N

Taqrizchilar: prof. F.U.Suvanova (QMII)  
E.Saidov (Qarshi yog‘-ekstraksiya  
AJ)

Elektron modulli o’quv-uslubiy majmua «OOMT» kafedrasi Bayon №\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ 202 y./ va Muhandislik texnologiyasi fakulteti uslubiy  
komissiyasi yig'ilishi /Bayon №\_\_\_\_\_ 202 y./ hamda Institut  
uslubiy Kengashi yig'ilishi /Bayon №\_\_\_\_\_ 202 y./ da ko'rib  
chiqilgan, o’quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

## **Аннотация**

Elektron modulli o'quv-uslubiy majmuada «Yog'-moy mahsulotlari ekspertizasi» fanining, o'quv va ishchi dasturlari, ma'ruza matnlari, laboratoriya mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatmalar, nazorat savollari, mustaqil ish topshiriqlari va mavzulari keltirilgan. Unda fanni o'qitish bo'yicha ta'lim texnologiyalari, ularni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar bayon etilgan, vizual materiallar, Internetdan olingan malumotlar, ma'ruzalarda keltirilgan atamalarning glossariysi ro'yxati jamlangan.

Ushbu elektron o'quv-uslubiy majmua 5A321001- Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyasi (yog'-moy mahsulotlari) mutaxasisligi magistrantlar uchun tavsiya etiladi.

## **Аннотация**

Электронные модульный учебно-методический комплекс по предмету «Экспертиза масложиров продуктов» содержит типовую и рабочую программы данной дисциплины, тексты лекций, методические указания по лабораторным работам, контрольные вопросы, темы и задания самостоятельных работ. Также включены педагогические технологии по преподаванию предмета, изложены методические указания по их использованию, визуальные материалы, информация, полученная из интернета, список специальных терминов (глоссарий).

Этот электронные учебно-методический комплекс рекомендуется для магистров по специальности 5A321001-Технология производства и переработки пищевых продуктов (масложировые продукты).

## **Abstract**

Scholastic-methodical complex on the subject "Examination of oil products" is kept standard and working program of given discipline, texts of lectures, methodical instructions on laboratory work, checking questions, subject and tasks of independent work. Also enclosed pedagogical technologies on teaching a subject, are stated methodical instructions upon their use, visual material, information, received from internonthat, special term list (glossary).

This electronic educational-methodical complex is recommended for masters in the specialty 5A321001-Technology of production and processing of food (fat and oil products).

.

## KIRISH

“Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi” fani yog’-moy korxonalarida xom ashyoni qabul qilishdan tortib saqlash, qayta ishlash va tayyor yarim tayyor mahsulotlar va chiqindilarni omborlarga joylab va ularni iste’molchilarga berishga qadar bo’lgan jarayonlarni to’g’ri nazorat qilish va ularni sifat ko’rsatkichlarini to’g’ri tahlil qilishga o’rgatadi. Tahlillarni to’g’ri bajarilishi yog’-moy korxonalari boyicha qayd va hisobotlarni to’g’ri olib borilishicha yordam beradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirib mahsulotlarni chiqish unumini oshiradi va mahsulotlarni qayta ishlashda yo’qolishini kamaytirish darajasigacha olib keladi hamda mahsulotlar sifatini yaxshilaydi.

“Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi” fanini o’rganishdan maqsad, moy ishlab chiqarish korxonalarida xom ashyoni qabul qilishdan tortib, saqlash, ishlab chiqarishga berish, ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni omborlarga joylab, ularni iste’molchilarga berishga qadar bo’lgan barcha texnologik jarayonlarni fizik-kimyoviy nazoratini to‘g’ri olib borishni o’rgatishdir. Ushbu fanni vazifasi o’simlik moylari ishlab chiqarish jarayonlarida namuna olishni to‘g’ri tashkil qilish va taxlillarni sifatli bajarilishiga, ularni sifat ko’rsatkichlarini to’g’ri tahlil qilishga yordam berish.

Elektron o’quv-uslubiy majmuuning tarkibi kirish, fanning o’quv, ishchi dasturlari, ma’ruzalar matnlari, laboratoriya mashg’ulotlari uchun uslubiy ko’rsatmalar, har bir mavzu bo’yicha ma’ruza va laboratoriya mashg’ulotlarida o’qitish texnologiyasidan iborat. Keltirilgan ta’lim texnologiyalarining har biri o’zida o’quv mashg’ulotini o’tkazish shart-sharoiti to’g’risida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va ko’zlangan natijalarni, o’quv mashg’ulotning rejasi, o’qitishning usul va vositalarini mujassamlashtirgan. Shuningdek, bu o’quv mashg’ulotining texnologik xaritasini ya’ni o’qituvchi va o’quvchining mazkur o’quv mashg’ulotida erishadigan maqsadi bo’yicha hamkorlikdagi faoliyatning bosqichma-bosqich ta’riflanishini ham o’z ichiga oladi.

Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko’rinib turibdiki, ta’lim jarayoniga o’qitishning yangi, zamonaviy usul va vositalari kirib kelmoqda va samarali foydalanilmoqda.

<b>№</b>	<b>Tarkib mazmuni</b>
<b>1</b>	<b>O‘quv dasturi</b>
<b>2</b>	<b>Ishchi dastur</b>
<b>3</b>	<b>Kalendar reja</b>
<b>4</b>	<b>Ma’ruza matni</b>
<b>5</b>	<b>Laboratoriya ishlari uslubiqo’llanmasi</b>
<b>6</b>	<b>Glossariy</b>
<b>7</b>	<b>Nazorat uchun savollar(ON, YAN)</b>
<b>8</b>	<b>Tarqatma taqdimot va materiallar</b>
<b>9</b>	<b>Ta’lim texnologiyasi</b>
<b>10</b>	<b>Referat mavzulari</b>
<b>11</b>	<b>Adabiyotlar ro‘yxati</b>
<b>12</b>	<b>Tayanch konspekt</b>
<b>13</b>	<b>O‘quv materiallar(ma’ruza matni, o‘quv qo‘llanmalar)</b>
<b>14</b>	<b>Xorijiy adabiyotlar</b>
<b>15</b>	<b>Kurs ishlari mavzulari(uslubiy ko‘rsatma)</b>
<b>16</b>	<b>Annotatsiya</b>
<b>17</b>	<b>Mualliflar haqida ma’lumot</b>
<b>18</b>	<b>Maslahat va tavsiyalar</b>
<b>19</b>	<b>Meyoriy xujjatlar</b>
<b>20</b>	<b>Talabalar bilimini baholash mezoni</b>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

Ro‘yxatga olindi **“Tasdiqlayman”**  
№\_\_\_\_\_ Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti  
«\_\_\_\_\_» 2020 y. rektori \_\_\_\_\_ O.SH.Bazarov  
“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2020 y.

# **YOG'-MOY MAHSULOTLARI EKSPERTIZASI FANI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 300 000 – Ishlab chiqarish-texnik soha

Ta'lim sohasi: 320 000 – Ishlab chiqarish texnologiyalari

Magistratura 5A321001 – Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab  
mutaxassisligi chiqarish va qayta ishlash texnologiyasi (yog‘-moy  
mahsulotlari)

**Tuzuvchi:**

Axmedov A.N. –“Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasini dotsenti

**Taqrizchilar:**

Suvanova F.U. – QarMII –“Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasini mudiri, **t.f.n., prof.**

Jabborov J.B. – Qarshi yog’-ekstraksiya AJ Sifatni va standartlarga rioya etilishini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i bo‘limi boshlig‘i

Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasining 2020 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ son yig‘ilishida va “Muhandislik texnologiyasi” fakulteti Uslubiy komissiyasining 2020 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ son yig‘ilishida hamda institut Uslubiy Kengashining 2020 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ son yig‘ilishida muhokama qilinib tasdiqlangan.

Institut Kengashining 2020 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ son yig‘ilishi qarori bilan o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

**O’quv uslubiy boshqarma boshlig‘i****Sh.R.Turdiyev****Fakultet uslubiy komissiyasi raisi****M.Hakimova****Kafedra mudiri:****F.U.Suvanova**

## “Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi” fan dasturi

<b>Fan (modul) kodi</b>	<b>O‘quv yili</b>	<b>Semestr</b>	<b>ECTS krediti</b>
YMME 11.04	2020-2021	1	4
<b>Fan (modul) turi</b>	<b>Ta’lim tili</b>		<b>Haftalik dars soati</b>
Tanlov	o‘zbek		4
<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim</b>	<b>Jami yuklama</b>
Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi	60	60	120

### O‘qituvchi haqida ma’lumot

<b>Kafedra nomi</b>	Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi		
<b>O‘qituvchilar</b>	F.I.SH.	Telefon nomeri	e-mail
<b>Ma’ruzachi</b>	Axmedov Azimjon Normo’movich	+998 91 4588696	a.ahmedov80@mail.ru
<b>Amaliy mashg‘ulot</b>	-	-	-
<b>Laboratoriya mashg‘uloti</b>	Axmedov Azimjon Normo’movich	+998 91 4588696	a.ahmedov80@mail.ru

### I.Fanning mazmuni

“Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi” fani yog’-moy korxonalarida xom ashyoni qabul qilishdan tortib saqlash, qayta ishlash va tayyor yarim tayyor mahsulotlar va chiqindilarni omborlarga joylab va ularni iste’molchilarga berishga qadar bo’lgan jarayonlarni to’g’ri nazorat qilish va ularni sifat ko’rsatkichlarini to’g’ri tahlil qilishga o’rgatadi. Tahlillarni to’g’ri bajarilishi yog’-moy korxonalari boyicha qayd va hisobotlarni to’g’ri olib borilishicha yordam beradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirib mahsulotlarni chiqish unumini oshiradi va mahsulotlarni qayta ishlashda yo’qolishini kamaytirish darajasigacha olib keladi hamda mahsulotlar sifatini yaxshilaydi.

“Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi” fanini o‘rganishdan maqsad, moy ishlab chiqarish korxonalarida xom ashyoni qabul qilishdan tortib, saqlash, ishlab chiqarishga berish, ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni

omborlarga joylab, ularni iste'molchilarga berishga qadar bo'lgan barcha texnologik jarayonlarni fizik-kimyoviy nazoratini to'g'ri olib borishni o'rgatishdir. Ushbu fanni vazifasi o'simlik moylari ishlab chiqarish jarayonlarida namuna olishni to'g'ri tashkil qilish va taxlillarni sifatlari bajarilishiga, ularni sifat ko'rsatkichlarini to'g'ri tahlil qilishga yordam berish.

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **1-mavzu. Kirish. Yog'-moy mahsulotlari ekspertizasi fanining ahamiyati va roli.**

"Yog'-moy mahsulotlari ekspertizasi" fani maqsadi va vazifasi. Ekspertiza o'tkazish tarixi. Ikkilamchi mahsulotlar.

### **2-mavzu. Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizlik mezonlari**

Fanda foydalaniladigan asosiy tushunchalarning mazmuni. Oziq-ovqat tovarlari sifat ekspertizasi fanining obektlari. Oziq-ovqat tovarlarining iste'mol qiymatini belgilovchi muhim ko'rsatkichlari. Oziq-ovqat tovarlari ekspertizasi turlari.

### **3-mavzu. Yog'-moy sanoatida qo'llaniladigan meyoriy-texnik hujjatlar (TSh, O'zDST, qoida, yo'riqnomalar va h.k.)**

Yog'-moy korxonalarida qo'llaniladigan standartlar guruhlari. Texnik shartlar. O'zbekiston Davlat standarti. Qoida, Yo'riqnomalar.

### **4-mavzu. Moyli urug'lar uchun texnikaviy talablar.**

Texnik paxta chigiti. Paxta chigitini qabul qilish va nazorat usullari. Kungaboqar urug'iga qoyiladigan talablar. Maxsar urug'iga qoyiladigan talablar.

### **5-mavzu. Shulxa, shrot va boshqa ikkilamchi mahsulotlar uchun texnikaviy talablar.**

O'simlik moylarini ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan ikkilamchi mahsulotlar. Sheluxaga qoyiladigan talablar. Shrotga qoyiladigan talablar. Turli xil moyli urug' shrotlarining aralashmalariga qoyiladigan talablar.

### **6-mavzu. Rafinatsiyalanmagan o'simlik moylari uchun texnikaviy talablar.**

Rafinatsiyalanmagan paxta moyi O'zDSt 2802:2013 talablari. Moyning asosiy komponentlari. Paxta moyining sifat va tarkibiy ko'rsatkichlari. Rafinatsiyalanmagan paxta moyini qabul qilish qoidalari. Qadoqlash, transportda tashish va saqlash. Turli xil moylar talabi.

### **7-mavzu. Rafinatsiyalangan o'simlik moylari uchun texnikaviy talablar.**

Rafinatsiyalangan paxta moyi (O'zDSt 816:2015). Rafinatsiyalangan paxta moyini qo'llanilishi va sifati. Ekstraksiya usuli bilan olingan rafinatsiyalangan paxta moyi talablari. Tamg'alash. Transportda tashish va saqlash. Turli xil moy talablari.

## **8-mavzu. Salomas, katalizator va vodorod uchun texnikaviy talablar.**

Salomasning turlari, organoleptik ko'rsatkichlari va talablari. Katalizator turlari. Texnik vodorod ko'rsatkichi.

## **9-mavzu. Margarin va mayonez mahsulotlari uchun texnikaviy talablar.**

Margarin turlari va texnikaviy talablari. Margarin orgonoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Mayonez turlari va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Xavsizlik ko'rsatkichlari va mikrobiologik ko'rsatkichlari.

## **10-mavzu. Yog' kislotalari va glitserin uchun texnikaviy talablar.**

Distillangan yog' kislotalari turlari, ko'rsatkichlari va qo'llanilishi. Qabul qilish qoidalari. Transportda tashish va saqlash. Distillangan glitserin orgonoleptik va fizik ko'rsatkichlari.

## **11-mavzu. Sovun va yuvuvchi vositalar uchun texnikaviy talablar.**

Qattiq xo'jalik sovuni turlari va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Pastasimon xo'jalik sovuni TSH va orgonoleptik hamda fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Qattiq atir sovun turlari va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari.

## **12-mavzu. Yog'-moq sanoatida qo'llaniladigan yordamchi materiallar uchun texnikaviy talablar.**

Texnik oyuvchi natriy fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Transportda tashish va saqlash. OU-A markali kukunsimon, oqartiruvchi, aktivlangan yog'och ko'miri (GOST 4453-74). Qadoqlash, tamg'alash, transportda tashish, saqlash va xavfsizlik talablari. Paxta tolali va dag'al aralashmali filtr mato GOST 332-91. Oziqaviy limon kislotasi. Texnik sulfat kislota.

## **13,14-mavzu. Yog'-moq sanoatida qo'llaniladigan yog'li xom ashyolar uchun texnikaviy talablar**

Palma moyi fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Turli xil yog'li hom ashyolarga qoyiladigan talablar.

## **15-mavzu. Yog'-moy korxonalarining chiqindilari uchun texnikaviy talablar.**

Soapstok turlari va organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Texnikaviy talablar. Transportda tashish va saqlash. Gossipol smolasi va qabul qilib olish qoidalari.

### **III. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Laboratoriya mashg'ulotlar uchun quyidagi namunaviy mavzular tavsiya etiladi:

1. Paxta chigitidagi momiq miqdorini aniqlash.
2. Sheluxadagi moy miqdorini aniqlash.
3. Ekstraktsion moyni cho'kma miqdorini va chaqnash haroratini aniqlash.
4. Moylarning kislota sonini aniqlash.

5. Moyning tarkibidagi namlik va yengil uchuvchan moddalarni aniqlash
6. Atirsovundagi yog' kislotalari miqdorini aniqlash
7. Margarin analizi

Laboratoriya mashg'ulotlari zamonaviy qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir kichik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, Guruhlarga bo'linib o'tiladi. "Keys-stadi" texnologiyasi ishlataladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurulmalari yordamida uzatiladi.

#### **IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

#### **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limning maqsadi - talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rGANISH;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'Zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rGANISH;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rGANISH;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k..

#### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:**

1. Moyli urug'larning O'zDSt boyicha fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari
2. Yog' va moylarning anizidin soni.
3. Yog' va moylarning perekis soni.

4. Rafinatsiyalanmagan va rafinatsiyalangan o'simlik moylarini O'zDSt boyicha fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari
5. Shrotni O'zDSt boyicha fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari
6. Salomasni O'zDSt boyicha fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari.
7. Margarinni O'zDSt boyicha fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari.
8. Mayonezni O'zDSt boyicha fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari.
9. Yog' va moylarning trans kislotalar miqdorini aniqlash.
10. Import yog' va moylarni meyoriy hujjatlar boyicha fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari
11. Gossipol smolasining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari
12. Suyuq sovunlarni meyoriy hujjatlar boyicha fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari
13. Atir va xo'jalik sovunlarni meyoriy hujjatlar boyicha fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari
14. Yordamchi va qo'shimcha moddalarning meyoriy hujjatlar boyicha fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

## **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)**

“Fan boyicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qoyiladi:

- Yog' - moy korxonalariga keltirilgan xom ashylardan namunalar olib ularning sifat ko'rsatkichlarini to'g'ri taxlil qila olish, qayta ishlashga berilgan xom ashyo va uni qayta ishlashda hosil bo'lgan tayyor va yarim tayyor mahsulot hamda chiqindilardan namunalar olib, taxlil qilish va olingan natijalarni standart talablariga mos kelishini to'g'ri aniqlay olish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifat darajasini baholashni va uni nazorat qilishni hamda boshqarishni tashkil qilish malakalariga ega bo'lshi;
- moyli urug'lar, yanchilma, qovurma, shulxa va kunjarani texnik talablarini, ekstraksiya erituvchilarining fizik-kimyoviy xossalari haqida, sanoatda ishlatiladigan erituvchilarining turlarini, rafinatsiyalanmagan va rafinatsiyalangan o'simlik moylarini, sanoat katalizatorlari, vodorod, salomasga qoyiladigan texnik talablarni, margarin va margarin mahsulotlari, margarin retsepturasi, margarin ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladigan xom ashylar haqida ma'lumot olish, glitserin ishlab chiqarish, yog'larni gidroliz usullari haqida ma'lumotga ega bo'lshi, shu bilan birga ularni fizik-kimyoviy nazoratini bilishi va va ulardan foydalana olishi;
- soapstokni qayta ishlash, yog' kislotalari olish va ularni distillyasiyalash, sovun ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qila olishi.

- yog'-moy mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

## VII. Ta’lim texnologiyalari va uslublari

Talabalarning «Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi» fanini o‘qitishda amaldagi texnik vositalar (plakatlar, texnologik sxemalar, kompyuter disklarida yozilgan dasturlar, slaydlar, dia- va kinofilmlar) bilan birgalikda yangi informatsion texnologiyalar vositalari (virtual stendlar, modulli tizimlar) qo‘llaniladi.

Bulardan tashqari ushbu yo‘nalish bo‘yicha barcha davriy nashrlar va yangi nashrdan chiqqan adabiyotlar qo‘llaniladi.

Talabalarning fanni o‘zlashtirishini baholash tizimi asosida amalga oshiriladi. bu fandan 2-3 marta joriy baholash, (JB), bir marta oraliq baholash (OB) va yakuniy baholash nazoratlari o‘tkaziladi. Joriy va og‘izaki baholashda og‘zaki, yozma, test, referat yozish usullari qo‘llaniladi. Yakuniy baholash tayanch atamalarga asoslangan yozma ish tarzida amalga oshiriladi.

Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi fanini o‘qitishda talabalarning bilimini reyting nazorati tizimini qo‘llab aniqlashga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi. Bundan tashqari fanni o‘zlashtirishni mustahkamlash, talabaning ijodiy fikrlashini ta’minlash maqsadida, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida olingan turli namunalar bo‘yicha natijalar tahlili amalga oshiriladi va o‘qituvchi bilan muhokama qilinadi.

1 Fani o‘qitishda oldindan tarqatma material, uslubiy ko‘rsatmalar talabalarga tarqatiladi, plakat stendlardan, EHM dan foydalaniladi.

2. Talabalarga laboratoriyada mashg‘ulotlarida videokassetalar va DVD-disklarga tushurilgan laboratoriya boyicha olingan videomaterial hamda texnologik jarayonlar namoish etiladi.

3. Yangi texnologiyalar, nazorat turlari va standartlar bilan tanishish uchun internet tizimlaridan foydalaniladi: [www.inser.ru](http://www.inser.ru).

4. Saytlar: <http://www.koloss.ru/pub/CatView.asp?Catid=10722/>  
<http://www.bankreferatov.ru/db/M/BF6A3FEF55072EA6C3256F71003DC544/>  
[http://mshp.minsk.by/education/ychebno-metodicheskiy\\_center/umd/prog/1-74\\_2006\\_2002/index/htm/](http://mshp.minsk.by/education/ychebno-metodicheskiy_center/umd/prog/1-74_2006_2002/index/htm/), <http://tashkent.marketcenter.ru/contant/dok-0-203/html/>

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

**Dialogik yondashuv.** Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarни baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta’lim.** Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

**O‘qitishning usullari va texnikasi.** Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O‘qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O‘qitish vositalari:** o‘qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blitz-so‘rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejulashtirish, qo‘yligan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o‘quv mashg‘ulotida ham, butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs

oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

## **VIII. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar**

Fanga oid nazariy materiallar ma’ruza mashg‘ulotlarini ma’ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma’ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish va o‘zlashtirish mashg‘ulotlarga to‘liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta’lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo‘yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo‘yicha talabalalar test usulida oraliq nazorat va og‘zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTVning 2018 yil 9 avgustdagagi 9-2018-sod buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom” asosida baholanadi.

### **Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a’lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

*Yakuniy nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimini baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib bormagan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.*

**Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o‘zlashtirgan talabalarga tegishli ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) o‘quv rejasida ushbu fanga ko‘rsatilgan kredit beriladi.**

## **IX. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Qodirov Y., Ro'ziboyev A. Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi. Darslik. -T.: Fan va texnologiY. - 2014. -320 b.
2. Wolf Hamm, Richard J. Hamilton, Gijs Calliauw. Edible Oil Processing, 2nd Edition. - USA, Wiley-Blackwell. 2013, 342 pages
3. Y.Qodirov, D. Ravshanov, A. Ruziboev "O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi". Darslik. "Cho'lpon ", Toshkent, 2014, - 320 b

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Rukovodstvo po texnologii polucheniya i pererabotki rastitelnix masel i jirov./ Pod. redaksiY. A.G. Sergeyeva L. Uchebnoye posobiye. : VNIIJ tom 2, -1973, tom 3 kn. 1, -1985, kn. 2 -1977
2. Zayseva L.V., Nechayev A.P. "Jiri i masla: sovremenniye podxodi k modernizasii traditsionníx texnologiy". Uchebnoye posobiye. -M.: Deli plyus, -2013.-152s.
3. Nechayev A.P., Kochatkova A.A. i dr. "Mayonezi" Uchebnoye posobiye. Sankt-Peterburg.: -2000. s.74.
4. Arutyunyan N.S., Arshiyeva YE.A., Yanova L.I. i dr. Texnologiya pererabotki jirov. Uchebnik. -M. Agropromizdat - 1985. - 367 s.
5. Qodirov Y. "Yog'larni qayta ishlash texnologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari". O'quv qo'llanma. T.: Cho'lpon, -2005, -168 b.
6. Arutyunyan N.S., Kornena YE.P., Nesterova YE.A. Rafinasiya masel i jirov. Sankt-Peterburg.2004. s.281

### **Elektron resurslar:**

1. [www.tan.com.ua](http://www.tan.com.ua)
2. [www.cimbria.com](http://www.cimbria.com)
3. [www.twirpx.com](http://www.twirpx.com)
4. [www.slavoliY.ua](http://www.slavoliY.ua)
5. [www.oil.jasko.ru](http://www.oil.jasko.ru)

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

# QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi  
№  
“      ”        2020 y.

**“Tasdiqlayman”**  
O‘quv ishlari boyicha prorekтор  

---

O.N.Bozorov  
“ ” 2020 y.

# **YOG'-MOY MAHSULOTLARI EKSPERTIZASI FANI SILLABUSI**

Bilim sohasi: 300 000 – Ishlab chiqarish-texnik soha

Ta'lim sohasi: 320 000 – Ishlab chiqarish texnologiyalari

Magistratura 5A321001 – Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab  
mutaxassisligi chiqarish va qayta ishlash texnologiyasi (yog‘-moy mahsulotlari)

**Qarshi-2020**

Ushbu fan sillabusi Institut Kengashining 2020 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_ son yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan namunaviy o’quv dasturi asosida tuzilgan.

**Tuzuvchi:**

Axmedov A.N. –“Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasi dotsenti

**Taqrizchilar:**

- |               |   |
|---------------|---|
| Suvanova F.U. | – QarMII –“Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasi mudiri, <b>t.f.n., prof.</b>                |
| Jabborov J.B. | – Qarshi yog’-ekstraksiya AJ Sifatni va standartlarga rioya etilishini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i |

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasining 2020 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_ son yig‘ilishida hamda “Muhandislik texnologiyasi” fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2020 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_ son yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2020 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_ son yig‘ilishi qarori bilan o’quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

**O’quv uslubiy boshqarma boshlig‘i**

**Sh.R.Turdiyev**

**Fakultet uslubiy komissiyasi raisi**

**M.Hakimova**

**Kafedra mudiri:**

**F.U.Suvanova**

## “Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi” fani sillabusi

<b>Fan (modul) kodi</b>	<b>O‘quv yili</b>	<b>Semestr</b>	<b>ECTS krediti</b>
YMME 11.04	2020-2021	1	4
<b>Fan (modul) turi</b>	<b>Ta’lim tili</b>	<b>Haftalik dars soati</b>	
Tanlov	o‘zbek	4	
<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim</b>	<b>Jami yuklama</b>
Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi	60	60	120

### O‘qituvchi haqida ma’lumot

<b>Kafedra nomi</b>	Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi		
<b>O‘qituvchilar</b>	F.I.SH.	Telefon nomeri	e-mail
<b>Ma’ruzachi</b>	Axmedov Azimjon	+998 91 4588696	a.ahmedov80@mail.ru
	Normo’minovich		
<b>Amaliy mashg‘ulot</b>	-	-	-
<b>Laboratoriya mashg‘uloti</b>	Axmedov Azimjon	+998 91 4588696	a.ahmedov80@mail.ru
	Normo’minovich		

### I.Fanning mazmuni

“Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi” fani yog’-moy korxonalarida xom ashyoni qabul qilishdan tortib saqlash, qayta ishslash va tayyor yarim tayyor mahsulotlar va chiqindilarni omborlarga joylab va ularni iste’molchilarga berishga qadar bo’lgan jarayonlarni to’g’ri nazorat qilish va ularni sifat ko’rsatkichlarini to’g’ri tahlil qilishga o’rgatadi. Tahlillarni to’g’ri bajarilishi yog’-moy korxonalari boyicha qayd va hisobotlarni to’g’ri olib borishicha yordam beradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirib mahsulotlarni chiqish unumini oshiradi va mahsulotlarni qayta ishslashda yo’qolishini kamaytirish darajasigacha olib keladi hamda mahsulotlar sifatini yaxshilaydi.

“Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi” fanini o‘rganishdan maqsad, moy ishlab chiqarish korxonalarida xom ashyoni qabul qilishdan tortib, saqlash, ishlab chiqarishga berish, ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni omborlarga joylab, ularni iste’molchilarga berishga qadar bo’lgan barcha texnologik jarayonlarni fizik-kimyoviy nazoratini to’g’ri olib borishni o’rgatishdir. Ushbu fanni vazifasi o’simlik moylari ishlab chiqarish jarayonlarida namuna olishni to’g’ri tashkil qilish

va taxlillarni sifatli bajarilishiga, ularni sifat ko'rsatkichlarini to'g'ri tahlil qilishga yordam berish.

## **II. Fan o'qitilishining natijalari**

### **(shakllanadigan kompetentliklar)**

"Fan boyicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qoyiladi:

- Yog'- moy korxonalariga keltirilgan xom ashylardan namunalar olib ularning sifat ko'rsatkichlarini to'g'ri taxlil qila olish, qayta ishlashga berilgan xom ashyo va uni qayta ishlashda hosil bo'lgan tayyor va yarim tayyor mahsulot hamda chiqindilardan namunalar olib, taxlil qilish va olingan natijalarni standart talablariga mos kelishini to'g'ri aniqlay olish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifat darajasini baholashni va uni nazorat qilishni hamda boshqarishni tashkil qilish malakalariga ega bo'lshi;

- moyli urug'lar, yanchilma, qovurma, shulxa va kunjarani texnik talablarini, ekstraksiya erituvchilarning fizik-kimyoviy xossalari haqida, sanoatda ishlatiladigan erituvchilarning turlarini, rafinatsiyalanmagan va rafinatsiyalangan o'simlik moylarini, sanoat katalizatorlari, vodorod, salomasga qoyiladigan texnik talablarni, margarin va margarin mahsulotlari, margarin retsepturasi, margarin ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladigan xom ashylar haqida ma'lumot olish, glitserin ishlab chiqarish, yog'larni gidroliz usullari haqida ma'lumotga ega bo'lshi, shu bilan birga ularni fizik-kimyoviy nazoratini bilishi va va ulardan foydalana olishi;

- soapstokni qayta ishlash, yog' kislotalari olish va ularni distillyasiyalash, sovun ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qila olishi.

- yog'-moy mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lshi kerak.

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi, Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

Fani o'quv rejasidagi organik, fizik va koloid kimyo, biokimyo, mikrobiologiya, oliv matematika, fizika, axborot texnologiyalari, oziq-ovqat kimyosi, metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish, tarmoqda qo'llaniladigan xom ashyo va materiallar, yog'-moy ishlab chiqarish texnologiyasi fanlari bilan o'zaro bog'langan.

Xom ashyni qabul qilishda nazoratlarni olib borish va ularni sifat ko'rsatkichlarini to'g'ri tahlil qilish, sifatli xom ashyo qabul qilishni to'g'ri tashkil qilish, uning konditsion vaznnini to'g'ri aniqlashga, chigitlarning navlarini va ularning narxlarini to'g'ri o'rnatishga yordam beradi. Masalan, qabul qilib olinayotgan chigitlarni sifat ko'rsatkichlariga qarab bir navdan boshqa navga o'tkazish va h.k

Moyli urug‘larni saqlash davridagi nazoratlarni esa urug‘larni buzulishiga yo‘l qo‘yilishini oldini olish va ularni ishlab chiqarishga sifatli va benuqson qilib berilishiga yordam beradi.

Ishlab chiqarishdagi yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi ishlab chiqarilayotgan yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni hamda ishlab chiqarish chiqindilarini sifatini yaxshilashga, ularni isrofgarchilagini oldini olishga va ishlab chiqrish unumini oshirishga qaratilgan. To‘g‘ri olib borilgan tahlillar asosida bajarilgan hisob-kitoblar natijasi asosida ish yuritishga o‘rgatadi.

Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi ishlab chiqarishning asosini tashkil etadi va korxona bo‘yicha olib boriladigan sarf - harajatlar va olinadigan daromadlar ushbu nazoratlar asosida olib borilgan hisob-kitoblar natijasidan kelib chiqadi.

### **III. Ta’lim texnologiyalari va uslublari**

Talabalarning «Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi» fanini o‘qitishda amaldagi texnik vositalar (plakatlar, texnologik sxemalar, kompyuter disklarida yozilgan dasturlar, slaydlar, dia- va kinofilmlar) bilan birgalikda yangi informatsion texnologiyalar vositalari (virtual stendlar, modulli tizimlar) qo‘llaniladi.

Bulardan tashqari ushbu yo‘nalish bo‘yicha barcha davriy nashrlar va yangi nashrdan chiqqan adabiyotlar qo‘llaniladi.

Talabalarning fanni o‘zlashtirishini baholash tizimi asosida amalga oshiriladi. bu fandan 2-3 marta joriy baholash, (JB), bir marta oraliq baholash (OB) va yakuniy baholash nazoratlari o‘tkaziladi. Joriy va og‘izaki baholashda og‘zaki, yozma, test, referat yozish usullari qo‘llaniladi. Yakuniy baholash tayanch atamalarga asoslangan yozma ish tarzida amalga oshiriladi.

Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi fanini o‘qitishda talabalarning bilimini reyting nazorati tizimini qo‘llab aniqlashga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi. Bundan tashqari fanni o‘zlashtirishni mustahkamlash, talabaning ijodiy fikrlashini ta’minlash maqsadida, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida olingan turli namunalar bo‘yicha natijalar tahlili amalga oshiriladi va o‘qituvchi bilan muhokama qilinadi.

1 Fani o‘qitishda oldindan tarqatma material, uslubiy ko‘rsatmalar talabalarga tarqatiladi, plakat stendlardan, EHM dan foydalaniladi.

2. Talabalarga laboratoriyyada mashg‘ulotlarida videokassetalar va DVD-disklarga tushurilgan laboratoriya boyicha olingan videomaterial hamda texnologik jarayonlar namoish etiladi.

3. Yangi texnologiyalar, nazorat turlari va standartlar bilan tanishish uchun internet tizimlaridan foydalaniladi: [www.inser.ru](http://www.inser.ru).

4. Saytlar: <http://www.koloss.ru/pub> CatView.asp.Catid=10722/  
<http://www.bankreferatov.ru/db/M/BF6A3FEF55072EA6C3256F> 71003DC544/  
[http://mshp.minsk.by/education/ychebno-metodicheskiy\\_center/umd/prog/1-74-2006-2002/index/htm/](http://mshp.minsk.by/education/ychebno-metodicheskiy_center/umd/prog/1-74-2006-2002/index/htm/), <http://tashkent.marketcenter.ru/contant/dok-0-203/html/>

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalash tirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

**Dialogik yondashuv.** Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarini baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta’lim.** Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’milanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

**O‘qitishning usullari va texnikasi.** Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O‘qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O‘qitish vositalari:** o‘qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blitz-so‘rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejallashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o‘quv mashg‘ulotida ham, butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test

topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

#### IV. Fan tarkibi (ma’ruza mashg‘ulotlari)

<b>Nº Mavzular</b>	<b>Qisqacha mazmuni</b>	<b>soat</b>
1. <b>1-mavzu. Kirish. Yog'-moy mahsulotlari ekspertizasi fanining ahamiyati va roli.</b>	“Yog’-moy mahsulotlari ekspertizasi” fani maqsadi va vazifasi. Ekspertiza o’tkazish tarixi. Ikkilamchi mahsulotlar.	2
2. <b>2-mavzu. Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizlik mezonlari</b>	Fanda foydalaniladigan asosiy tushunchalarning mazmuni. Oziq-ovqat tovarlari sifat ekspertizasi fanining obektlar. Oziq-ovqat tovarlarining iste’mol qiymatini belgilovchi muhim ko’rsatkichlari. Oziq-ovqat tovarlari ekspertizasi turlari.	2
3 <b>3-mavzu. Yog’-moy sanoatida qo’llaniladigan meyoriy-texnik hujjatlar (TSh, O’zDST, qoida, yo’riqnomha va h.k.)</b>	Yog’-moy korxonalarida qo’llaniladigan standartlar guruhlari. Texnik shartlar. O’zbekiston Davlat standarti. Qoida, Yo’riqnomha	2
4 <b>4-mavzu. Moyli urug’lar uchun texnikaviy talablar</b>	Texnik paxta chigit. Paxta chigitini qabul qilish va nazorat usullari. Kungaboqar urug’iga qoyiladigan talablar. Maxsar urug’iga qoyiladigan talablar.	22
5 <b>5-mavzu. Shulxa, shrot va boshqa ikkilamchi mahsulotlar uchun texnikaviy talablar</b>	O’simlik moylarini ishlab chiqarishda hosil bo’ladigan ikkilamchi mahsulotlar. Sheluxaga qoyiladigan talablar. Shrotga qoyiladigan talablar. Turli xil moyli urug’ shrotlarining aralashmalariga qoyiladigan talablar.	2
6 <b>6-mavzu. Rafinatsiyalanmagan o’simlik moylari uchun texnikaviy talablar</b>	Rafinatsiyalanmagan paxta moyi O`zDSt 2802:2013 talablari. Moyning asosiy komponentlari. Paxta moyining sifat va tarkibiy ko’rsatkichlari. Rafinatsiyalanmagan paxta moyini qabul qilish qoidalari. Qadoqlash, transportda tashish va saqlash. Turli xil moylar talabi.	2
7 <b>7-mavzu. Rafinatsiyalangan o’simlik moylari uchun texnikaviy talablar</b>	Rafinatsiyalangan paxta moyi (O’zDSt 816:2015). Rafinatsiyalangan paxta moyini qo’llanilishi va sifati. Ekstraksiya usuli bilan olingan rafinatsiyalangan paxta moyi talablari. Tamg’alash. Transportda tashish va saqlash. Turli xil moy talablari.	2
8 <b>8-mavzu. Salomas, katalizator va vodorod</b>	Salomasning turlari, organaleptik ko’rsatkichlari va talablari. Katalizator	2

	<b>uchun talablar</b>	<b>texnikaviy turlari.</b> Texnik vodorod ko'rsatkichi.	
9	<b>9-mavzu. Margarin va mayonez uchun texnikaviy talablar</b>	Margarin turlari va texnikaviy talablari. Margarin organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Mayonez turlari va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. xavsizlik ko'rsatkichlari va mikrobiologik ko'rsatkichlari	2
10	<b>10-mavzu. Yog' kislotalari va glitserin uchun texnikaviy talablar</b>	Distillangan yog' kislotalari turlari, ko'rsatkichlari va qo'llanilishi. Qabul qilish qoidalari. Transportda tashish va saqlash. Distillangan glitserin organoleptik va fizik ko'rsatkichlari.	2
11	<b>11-mavzu. Sovun va yuvuvchi vositalar uchun texnikaviy talablar</b>	Qattiq xo'jalik sovuni turlari va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Pastasimon xo'jalik sovuni TSH va organoleptik hamda fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Qattiq atir sovun turlari va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari.	2
12	<b>12-mavzu. Yog'-moq sanoatida qo'llaniladigan yordamchi materiallar uchun texnikaviy talablar</b>	Texnik oyuvchi natriy fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Transportda tashish va saqlash. OU-A markali kukunsimon, oqartiruvchi, aktivlangan yog'och ko'miri (GOST 4453-74). Qadoqlash, tamg'alash, transportda tashish, saqlash va xavfsizlik talablari. Paxta tolali va dag'al aralashmali filtr mato GOST 332-91. Oziqaviy limon kislotasi. Texnik sulfat kisloti	2
13	<b>13,14-mavzu. Yog'-moq sanoatida qo'llaniladigan yog'li xom ashyolar uchun texnikaviy talablar</b>	Palma moyi fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Turli xil yog'li hom ashyolarga qoyiladigan talablar.	4
14	<b>15-mavzu. Yog'-moy korxonalarining chiqindilari uchun texnikaviy talablar</b>	Soapstok turlari va organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Texnikaviy talablar. Transportda tashish va saqlash. Gossipol smolasi va qabul qilib olish qoidalari	2
	<b>Jami</b>		30

### Laboratoriya mashg'ulotlari mavzular

<b>№</b>		<b>soat</b>
1	<b>1-Laboratoriya ishi.</b> Paxta chigitidagi momiq miqdorini aniqlash.	2
2	<b>2-Laboratoriya ishi.</b> Sheluxadagi moy miqdorini aniqlash.	2

3	<b>3-Laboratoriya ishi.</b> Ekstraktsion moyni cho'kma miqdorini va chaqnash haroratini aniqlash.	2
1.	Yog'dagi aralshmalarning massa ulushini aniqlash.	
2.	Yog'dagi cho'kmani hajmiy miqdorini aniqlash.	2
3.	Yog'ning chaqnash haroratini aniqlash.	2
4	Kollokvium	2
5	<b>4-Laboratoriya ishi.</b> Moylarning kislota sonini aniqlash.	
1.	Rafinatsiyalangan moyni kislota sonini aniqlash.	2
2.	Rafinatsiyalanmagan moyni kislota soni aniqlash.	2
6	<b>5-Laboratoriya ishi.</b> Moyning tarkibidagi namlik va yengil uchuvchan moddalarni aniqlash	2
1.	Moyning tarkibidagi namlikni aniqlash.	
2.	Moyning hidi va ta'mini aniqlash.	2
7	<b>6-Laboratoriya ishi.</b> Atirsovundagi yog' kislotalari miqdorini aniqlash	
1.	Tezlashtirilgan usul.	2
2.	Soddalashtirilgan usul	2
8	<b>7-Laboratoriya ishi.</b> Margarin analizi	
1.	Margarindan namuna olish	2
2.	Namlikning massa ulushini aniqlash	2
9	Kollokvium	2
	<b>Jami</b>	<b>30</b>

Laboratoriya mashg'ulotlari zamonaviy qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir kichik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, Guruhlarga bo'linib o'tiladi. "Keys-stadi" texnologiyasi ishlataladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurulmalari yordamida uzatiladi.

### **Amaliy mashg'ulotlar**

Amaliy mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

### **V. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lifning maqsadi - talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lган fanlar bo'limlari va mavzularini chuqr o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalilanligiga o'quv mashg'ulotlari;

- masofaviy (distansion) ta’lim;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o‘z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tayyorlash va h.k..

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:**

1. Moyli urug’larning O’zDSt boyicha fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari
2. Yog’ va moylarning anizidin soni.
3. Yog’ va moylarning perekis soni.
4. Rafinatsiyalanmagan va rafinatsiyalangan o’simlik moylarini O’zDSt boyicha fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari
5. Shrotni O’zDSt boyicha fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari
6. Salomasni O’zDSt boyicha fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari.
7. Margarinni O’zDSt boyicha fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari.
8. Mayonezni O’zDSt boyicha fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari.
9. Yog’ va moylarning trans kislotalar miqdorini aniqlash.
10. Import yog’ va moylarni meyoriy hujjatlar boyicha fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari
11. Gossipol smolasining fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari
12. Suyuqsovunlarni meyoriy hujjatlar boyicha fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari
13. Atir va xo’jaliksovunlarni meyoriy hujjatlar boyicha fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari
14. Yordamchi va qo’shimcha moddalarning meyoriy hujjatlar boyicha fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari

## **VI. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar**

Fanga oid nazariy materiallar ma’ruza mashg‘ulotlarini ma’ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma’ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

ГОСТ 10459-87	Бумага основа для кислотной ленты	не ограничен Иэм3
ГОСТ 10585-99	Топливно-нефтанская мастика	П-7-2005 П-1-2007
ГОСТ 10626-76	Влагалища в хлопковые материи для не ограниченной	не ограничен Иэм3
ГОСТ 10674-97	Вагоны цистерны магистральных железных дорог	не ограничен Иэм3
ГОСТ 10970-87	Молоко сухое обезжиренное	не ограничен Иэм1

1	2	3	1	2	3
ГОСТ 11254-85	Жиры, животные, теплые пищевые. Определение	не ограничен	ГОСТ 18251-87	Лента кисеевая на бумаге основе	не ограничен
ГОСТ 11354-93	Яички из деревянных многооборотных для продуции	не ограничен	ГОСТ 18321-73	Статистический контроль	Метод не ограничен Издм]
ГОСТ 12026-76	Бумага фильтровальная лабораторная	не ограничен Издм	ГОСТ 18310-87	свойственного отбора к штучной продукции	не ограничен Издм
ГОСТ 12290-89	Картон фильтровальный для пищевых жидкостей	не ограничен Издм	ГОСТ 19113-84	Канифоль со сномкой	П-1-1999
ГОСТ 12329-77	Нефтепродукты. Определение ароматических	не ограничен Издм	ГОСТ 19433.1-2.3-2010	Группы опасных классификаций и маркировки	не ограничен Издм
ГОСТ 12569-99	Углеводородов.	не ограничен	ГОСТ 20015-88	Хлорформ	не ограничен Издм
ГОСТ 12570-98	Сахар. Правила приемки и методы обработки проб	не ограничен	ГОСТ 20258-95	Матины моченые для стеклянной тары	не ограничен
ГОСТ 12571-2013	Сахар. Метод определения влаги и сухих веществ	не ограничен	ГОСТ 23239-89	Кислоты жирные синтетические фракций С <sub>1</sub> -С <sub>6</sub>	не ограничен Издм]
ГОСТ 12572-2007	Сахар. Метод определения сахараозы	не ограничен	ГОСТ 23285-78	Пакеты на плоских подложках. Пищевые продукты и стеклянная тара	не ограничен Издм
(ГОСТ 12573-2013 ГОСТ 12573-67)	Сахар. Метод определения цветности	не ограничен	ГОСТ 23683-89	Пластиковые нефтегазовые твердые	не ограничен Издм
ГОСТ 13277-79	Молоко кипрое пастеризованное	не ограничен Издм	ГОСТ 23932-90	Посуда и оборудование лабораторные стеклянные	не ограничен
ГОСТ 13302-77	Кислоты нефтяные	не ограничен Издм	ГОСТ 24104-2001	Весь общего назначения и образцовые	Перездание 2013
ГОСТ 13345-85	Жесть	не ограничен Издм	ГОСТ 24363-80	Каната гидрофильтра	не ограничен Издм
ГОСТ 13358-84	Яички дощечные для консервирования	не ограничен Издм	ГОСТ 24598-80	Концентраты пищевые. Упаковка, маркировка, не ограничен Издм	не ограничен Издм
ГОСТ 13511-2006	Яички из тогдированного картона для пищевых продуктов, тортовых изделий и молочных фасадств	не ограничен	ГОСТ 24831-81	Гаря. Оборудование. Типы, основные параметры и размеры	не ограничен Издм
ГОСТ 13512-91	Яички из горячированного картона кондитерских изделий	не ограничен	ГОСТ 25292-82	Жиры, животные, теплые пищевые	не ограничен Издм
ГОСТ 13515-91	Яички из картона тарного типового скененного для сплошного масла и маргарина	не ограничен Издм	ГОСТ 25336-82	Посуда и оборудование лабораторные стеклянные	не ограничен Издм
ГОСТ 13516-86	Яички из горячированного картона для консервов, пресервов и пищевых жидкостей	не ограничен Издм	ГОСТ 26377-84	Типы и основные параметры и размеры.	не ограничен Издм
ГОСТ 13685-84	Соль по деревенская. Методы испытаний	не ограничен Издм	ГОСТ 26574-85	Распотреблены нефтегазов	не ограничен Издм
ГОСТ 13830-97	Соль повышенная промышленная	не ограничен	ГОСТ 26809-86	Мука пшеничная хлебопекарная	не ограничен Издм
ГОСТ 13928-84	Молоко и сыворотка пастеризованная и полутвердая	не ограничен Издм	ГОСТ 27066-86	Мягкий сыроваренный из проб к канализации	не ограничен Издм
ГОСТ 13950-91	Боочки стальные сваренные и закатанные на воронку	не ограничен	ГОСТ 128750-90	Продукты. Упаковка, маркировка, транспортирование и хранение	не ограничен Издм
ГОСТ 14192-96	Маргаринка групповая	не ограничен Издм	ГОСТ 28875-90	Продукты и приправы. Примеси, отбор проб и не ограничен	П-2009г
ГОСТ 14201-83	Канифоль таполовая	не ограничен Издм	ГОСТ 29065-91	Приности. Печенье, бисквиты	не ограничен Издм
ГОСТ 15846-2002	Продукция, получаемая в районах Крайнего Севера и приравненных к ним районов Урала, методы обработки и полупродукты	не ограничен Издм	ГОСТ 29053-91	Приности. Перец красный молотый	не ограничен Издм
ГОСТ 16337-77	Политилен высокого давления	не ограничен Издм	ГОСТ 29056-91	Приности. Глинн	не ограничен Издм
ГОСТ 16338-85	Полиэтилен низкого давления	не ограничен Издм	ГОСТ 29298-2005	Ткань хб смешанная бытовая	не ограничен
ГОСТ 16599-71	Ванилин	не ограничен Издм	ГОСТ 30090-93	Метки и мешочные ткани	П-1-2007 П-10-2007
ГОСТ 17162-81	Казеин технический	не ограничен Издм	ГОСТ 30305.1-95	Консервы молочные струйные.	не ограничен Издм]
			ГОСТ 30305.2-95	Выполнения измерений массой доли влаги	П-5-2001 П-4-2008
				молочных сухие. Методика выполнения измерений массовой доли сахараозы (полимеретрический метод)	П-3-2016

1	2	3	1	2	3
ГОСТ 30305.3-95 Продукты молочные сухие. Титрометрические методики выделения измельченной яичной массы	Продукты молочные сухие. Методика выполнения испытаний	не ограничен П-В-2009	ГОСТ 12.2.007-075 ССБТ. Изделия электротехнические. Общие требования безопасности.	ССБТ. Изделия электротехнические. Общие требования безопасности.	не ограничен ИЭМ4
ГОСТ 30305.4-95 Продукты молочные сухие. Методика выполнения испытаний на молочную кислотность	Молоко и молочные продукты. Методика определения стадиококка	не ограничен	ГОСТ 12.2.061-81 ССБТ. Оборудование производственное. Общие требования безопасности рабочими местами.	ССБТ. Оборудование производственное. Общие требования безопасности рабочими местами.	не ограничен
ГОСТ 30347.97 Продукты яичные. Методы отбора проб и испытаний	Продукты яичные. Методы отбора проб и испытаний	не ограничен	ГОСТ 12.2.124-2013 ССБТ. Оборудование производственное. Общие требования безопасности.	ССБТ. Оборудование производственное. Общие требования безопасности.	не ограничен
ГОСТ 30364.0-97 Продукты яичные. Методы физико-химического анализа.	Продукты яичные. Методы физико-химического анализа.	не ограничен	ГОСТ 12.2.124-90 ССБТ. Оборудование для коптильнирования воздуха и вентиляции. Общие требования безопасности.	ССБТ. Оборудование для коптильнирования воздуха и вентиляции. Общие требования безопасности.	не ограничен
ГОСТ 30364.1-97 контроля	Сахар белый. Технические условия	не ограничен	ГОСТ 12.2.137-96 Оборудование для коптильнирования воздуха и вентиляции. Общие требования безопасности.	ССБТ. Процессы производства. Общие требования безопасности.	не ограничен
ГОСТ 31361-2008 Жиры и масла животные и растительные. Определение антибиотиков	Жиры и масла животные и растительные. Определение антибиотиков	не ограничен П-1-2015г	ГОСТ 12.3.002-2014 ССБТ. Пожарная техника для защиты объектов, не имеющих видов размещения и обслуживания.	ССБТ. Пожарная техника для защиты объектов, не имеющих видов размещения и обслуживания.	не ограничен ИЭМ1
ГОСТ 31895-2012 Крахмал кукурузный	Крахмал кукурузный	не ограничен	ГОСТ 12.3.002-75 ССБТ. Средства защиты работников. Общие требования и классификация.	ССБТ. Средства защиты работников. Общие требования и классификация.	не ограничен
ГОСТ 32159-2013 Продукты пищевые. Метод определения количества пшеницы в тесте С-137	Продукты пищевые. Метод определения количества пшеницы в тесте С-137	не ограничен П-1-2015г	ГОСТ 12.4.009-83 ССБТ. Основные виды размещения и обслуживания.	ССБТ. Система вентиляционная. Общие требования.	не ограничен ИЭМ1
ГОСТ 32161-2013 Продукты пищевые. Метод определения количества пшеницы в тесте С-137	Продукты пищевые. Метод определения количества пшеницы в тесте С-137	не ограничен П-1-2017г	ГОСТ 12.4.021-75 ССБТ. Система вентиляционная. Общие требования.	ССБТ. Система вентиляционная. Общие требования.	не ограничен ИЭМ1
ГОСТ 32163-2013 Продукты пищевые. Метод определения стронция Sr-90	Продукты пищевые. Метод определения стронция Sr-90	не ограничен П-1-2017г	ГОСТ 17.2.3.02-2014 Охрана природы. Атмосфера. Правила установления полусмога выбросов вредных веществ прошлых предприятий.	ГОСТ 17.2.3.02-78 П-1-2017г	не ограничен
ГОСТ 32164-2013 Маргарин, жиры для кулинарии, кондитерской, хлебопекарской и молочной промышленности	Продукты пищевые. Метод определения количества стронция Sr-90 и Cs-137	не ограничен П-1-2017г	ГОСТ 17.2.3.02-2017 Правила приемки и надзора за их соответствием.	ГОСТ 17.2.3.02-2017 Правила приемки и надзора за их соответствием.	не ограничен
ОДСИ 8.022-2002 ГСИ РУЗ. Общие методологические требования к количеству фасованых товаров в упаковках любого вида и порядок осуществления государственного метрологического контроля и надзора за их соответствием.	Вода питьевая. Гигиенические требования к контролю за качеством	не ограничен	ГОСТ 17.4.3.05-86 Охрана природы. Печь. Требования к сточным водам и их осадкам для ядерного и радиоактивного	ГОСТ 17.4.3.05-86 Охрана природы. Печь. Требования к сточным водам и их осадкам для ядерного и радиоактивного	не ограничен
ОДСИ 9.50-2011 Масло куровое	Масло куровое	не ограничен	ГОСТ 12.0.004-2015 ССБТ. Организация обучения безопасности труда	ССБТ. Организация обучения безопасности труда	не ограничен
ОДСИ 2771-2013 Бензин экспрессионный прямогонный	Бензин экспрессионный прямогонный	до 24.09.2018г.	ГОСТ 12.0.004-90 ССБТ. Общие санитарно-гигиенические требования к воздуху рабочей зоны.	ССБТ. Общие санитарно-гигиенические требования к воздуху рабочей зоны.	не ограничен
ГОСТ 12.0.005-2013 ГОСТ 12.1.004-91 ГОСТ 12.1.005-88 ГОСТ 12.2.003-91	ТРЕБОВАНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ И ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ	не ограничен	ГОСТ 12.1.004-91 ССБТ. Оборудование производственное. Общие требования.	ССБТ. Оборудование производственное. Общие требования.	не ограничен ИЭМ1
ГОСТ 12.1.005-88 ГОСТ 12.2.003-91	ГОСТ 12.2.004-90 ГОСТ 12.2.005-88 ГОСТ 12.2.006-88	не ограничен П-7004 П-7004	ГОСТ 12.2.004-90 ССБТ. Оборудование производственное. Общие требования безопасности.	ГОСТ 12.2.004-90 ССБТ. Оборудование производственное. Общие требования безопасности.	не ограничен П-7004

## 4-MA'RUZA. MOYLI URUG'LAR UCHUN TEXNIKAVIY TALABLAR

**Reja:** Texnik paxta chigit. Paxta chigitini qabul qilish va nazorat usullari. Kungaboqar urug'iga qoyiladigan talablar. Maxsar urug'iga qoyiladigan talablar.

**Paxta chigit:** O'zbekiston Respublikasida paxta moyini olish uchun ishlatiladigan paxta chigit O'zDSt 596:2014 "Texnik paxta chigit" standart talablariga javob bergandan so'ng ishlab chiqarishga beriladi.

Paxta moyi olish uchun asosiy xom ashyo texnik paxta chigit hisoblanadi. Ular yog'-moy sanoati korxonalariga qayta ishslash uchun yetkazib beriladi.

Linterlangan texnik paxta chigit nuqsonli urug'larning massa ulushiga qarab 1, 2, 3 va 4 sanoat navlariga bo'linadi.

Lintlangan va jinlangan texnik paxta chigit sifat ko'rsatkichlari boyicha 1-jadval va 2-jadvalda ko'rsatilgan talablarga javob berishi kerak.

1-jadval

### **Lintlangan paxta chigitining sifat ko'rsatkichlari**

Xom ashyo, material yoki yarim tayyor mahsulot nomi. Standart belgisi	Urug' navi	Ishlatishdan oldin tekshirish uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar		Eslatma
		Ko'rsatkich nomi va o'lchov birliklari	Qiymat	
1	2	3	4	5
Texnik paxta chigit (O'zDSt 596:2014)		Nuqsonli chigitning massa ulushi, %, ko'p emas		Chigit GOST 12.1.044 boyicha yonuvchanlikning uchinchi guruhiga kiradi
	1		1,5	
	2		3,0	
	3		11,0	
	4		33,0	
		Namlikning massa ulushi, %, ko'p emas (cheklangan)		
	1	1 sindf	8,0	
		2 sindf	10,0	
		3 sindf	10,0	
	2	1 sindf	9,0	
		2 sindf	11,0	
		3 sindf	11,0	
	3		12,0	
	4		13,0	
		Tukdorlikni massa ulushi, %, (asosiy) O'rta tolali navlar		
	1	1 sindf – ko'p emas	7,0	
		2 sindf – ko'p emas	9,0	
1	2	3	4	5
	2	3 sindf – ko'p emas	10,5	
		1 sindf – ko'p emas	8,0	
		2 sindf – ko'p emas	9,0	
	3	3 sindf – ko'p emas	10,5	
			7,0-11,0	

	4	Uzun tolali navlar	8,0-13,0	
	1	1 sinf	2,0-6,5	
	2	1 sinf	3,0-7,5	
	3		4,0-8,5	
	4		4,5-9,0	

2-jadval

**Jinlangan paxta chigitining sifat ko'rsatkichlari**

Chigit navi	Nuqsonli chigitning massa ulushi, %, dan ko'p emas	Namlikning massa ulushi, %, dan ko'p emas (cheagaralangan)	O'rta tolali paxta navlari uchun tukdorlikning massa ulushi, %
I	1,5	10,0	10,5-13,0
II	3,0	11,0	10,5-14,0
III	11,0	12,0	11,0-15,0
IV	33,0	13,0	13,0-16,0

Lintlangan va jinlangan texnik paxta chigitining kesimidagi yadro rangi boyicha 3-jadvalda ko'rsatilgan talablarga javob berishi kerak.

3-jadval

**Paxta chigiti yadrosining kesimdagi rangi**

Chigit navi	Kesilgan paxta chigitidagi yadro rangi
I	yashil va paxta chigitining seleksion naviga qarab boshqa tusdagi och sariq rang
II	paxta chigitining seleksion naviga bog'liq tusdagi och sariq rang
III	och sariqdan sariqqacha
IV	sariqdan och jigarran

Paxta chigitining konditsion vaznnini aniqlashda amal qilinadigan hisoblash me'yorlari quyidagicha bo'lishi kerak:

namlikning massa ulushi - 10%,

mineral va organik chiqindilarning massa ulushi 0,5%.

Paxta chigitidagi toksinlar, mikotoksinlar va pestitsidlarning qoldiq miqdori O'zR SanPiN 0283-10-sonli "Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha gigiyenik talablar" da belgilangan me'yorlardan oshmasligi kerak.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha talablar:

- chigit yog'dorligi 20,0% va undan ortiq;

- chigitdagi moyning kislota soni - 3 mg KOH/g dan ko'p emas;

- chigitdagi namlikning massa ulushi - 8% dan ortiq emas.

Ushbu ko'rsatkichlarning zaruriyati, ularning aniq qiymatlarining darjasи, har bir ko'rsatkich uchun qabul qilish shartlari va qo'shimcha to'lovlar talabi paxta chigit etkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzishda o'zaro kelishuv asosida ishlab chiqaruvchi va iste'molchi tomonidan belgilanadi.

Sifat to'g'risidagi yo'l hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- paxta zavodining nomi va joylashgan joyi;

- paxta chigitining seleksiya navi va qayta ishlash turi (lintlangan yoki jinlangan)

- to'p raqami;

- to'pning haqiqiy va konditsion og'irligi, kg;
- chigitning sanoat navi;
- lintlangan chigit sinfi (I va II navlar uchun);
- sinov natijalari: nuqsonli chigitning massa ulushi, namlikning massa ulushi, mineral va organik ifloslikning massa ulushi, tukdorlikning massa ulushi;
- chigitni chiqarib yuborish sanasi;
- amaldagi standart belgisi.

### **Paxta chigitini qabul qilish**

Paxta chigiti to'plarda qabul qilinadi. Sifat to'g'risida bitta xujjatda rasmiylashtirilgan, sifati boyicha bir xil bo'lgan bitta seleksiya va sanoat navi hamda sinfdagi paxta chigitining miqdori chigit to'pi hisoblanadi.

To'pdagi chigit miqdori cheklanadi:

- chigitni temir yo'l orqali tashish paytida bitta vagon bilan;
- avtotrondport orqali tashishda bitta saqlash joyidan bir sutka ichida yetkazib beriladigan chigit miqdori;
- bevosita ishlab chiqarishdan transportyorlar bilan bir sutka davomida yetkazib beriladigan chigit miqdori.

### **Paxta chigitini sifati boyicha qabul qilish**

To'pning sifati jamlangan namunalardan ajrtib olingan, 2 kg atrofidagi massaga ega o'rtacha namunaning tahlil natijalari boyicha aniqlanadi.

Agar kamida bir ko'rsatkich uchun qoniqarsiz sinov natijalari olinadigan bo'lsa, yetkazib beruvchi va iste'molchining laboratoriya tahlillari natijalari ruxsat etiladigan nomuvofiqlikdan oshib ketgan bo'lsa, qolgan namunadan boshqa o'rtacha namunalar olinadi va chigitni ushbu ko'rsatkichi bo'yicha qayta sinovdan o'tkazish amalga oshiriladi. Qayta tahlil natijalari butun to'pga nisbatan qo'llaniladi.

1 yoki 2 sinf uchun tukdorlik massa ulushining me'yorlari oshib ketganda, litnlangan chigit tukdorlikka mos keladigan sinfga o'tkaziladi.

1, 2 navlarning 3 sinfiga hamda III va IV navlarda linterlangan chigitning tuqdurlik darajasi belgilagan miqdordan ko'p bo'lgan taqdirda amaldagi narxlarga belgilangan tartibda chegirma qo'llaniladi.

Agar paxta chigitida namlikning massa ulushi chegaralangan meyordan oshib ketadigan bo'lsa, belgilangan tartibda narxga chergirma beriladi.

Paxta chigiti pestitsidlar miqdori boyicha meyorlarga mos kelmaganda, ularni qabul qilish va to'lash shartlari iste'molchi va yetkazib beruvchining o'zaro roziligi bilan belgilanadi.

Agar qo'shimcha talablar bajarilmasa, yetkazib beruvchilar yetkazib berish shartnomasiga muvofiq iste'molchi oldida javobgar bo'ladi.

2-jadvalga binoan, chigit tukdorligi talabga javob bermasa, ularga narxdan chegirma berilmaydi.

### **Paxta chigitini miqdori bo'yicha qabul qilish**

Mineral va organik iflosliklarning massa ulushi 0,5% va namlikning massa ulushi 10% hisoblash me'yorlariga keltirilgan paxta chigitining to'pi konditsion massa boyicha qabul qilinadi.

Chigitning konditsion vazni (M<sub>k</sub>) kilogrammda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$M_k = M_f \frac{100 - (W_f + S_f)}{100 - (W_b + S_b)}$$

Bu yerda:

M<sub>f</sub> – chigit to'pining haqiqiy massasi, kg;

W<sub>f</sub> - namlikning haqiqiy massa ulushi, %;

S<sub>f</sub> - mineral va organik iflosliklarning haqiqiy massa ulushi, %;

W<sub>b</sub> – namlik massa ulushining hisoblash moyori, 10 % ga teng

S<sub>b</sub> – mineral va organik iflosliklar massa ulushining hisoblash moyori, 0,5 % ga teng.

### Nazorat usullari

Nuqsonli chigitning massa ulushini aniqlash	O'zDSt 597 boyicha
Namuna olish	O'zDSt 598 boyicha
Mineral va organik ifloslikning massa ulushini aniqlash	O'zDSt 599 boyicha
Namlikning massa ulushini aniqlash	O'zDSt 600 boyicha
Tukdorlikni massa ulushini aniqlash	O'zDSt 601 boyicha
Chigitning yog'dorligini aniqlash	O'zDSt 602 boyicha
Chigitdagi moyning kislota sonini aniqlash	O'zDSt 603 boyicha
Paxta chigitidagi toksin, mikotoksin va pestitsidlarning massa ulushini aniqlash belgilangan tartibda tasdiqlangan usullar bilan amalga oshiriladi.	

Ta'minlovchining va iste'molchining laboratoriya tahlillari natijalari o'rtaida farq tekshiruv usullari uchun moyoriy hujjatlarda belgilangan qiymatlardan oshmasligi kerak.

### Paxta chigitining fizik-kimyoviy va fizik-mexanik ko'rsatkichlari

Paxta chigit, chigit qobig'i (sheluxa) va qobig'dan havo qatlami bilan ajratilgan yadrodan iborat. Sheluxaning asosiy tarkibi klechatkadan iborat. Yadro asosan moy va oqsil moddalaridan tashkil topgan. Paxtaning ikkita turi ingichka tolali va o'rta tolali turlari mavjud. Ingichka tolali paxta chigit o'rta tolali paxta chigitidan tukdorlik darajasining pastligi, yog'dorlik va gossipol miqdorining biroz ko'pligi bilan farq qiladi.

Paxta chigitining xarakterli xususiyati - yadrosidagi to'qimalarda sariq pigment - gossipol mavjudligidir. Uning miqdori chigitda keng ko'lamda o'zgaradi va ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi: urug'ning o'sishi, yetishtirish, navli xususiyatlar va boshqalar.

Gossipol va uning hosilalari joylashgan yadro tugunchasinig devori selluloza, pektin bilan toyingan, gemiseliyuloz va identsifikatsiya qilinmagan moddalardan iborat. Gossipol zaxar va yurak qon tomirlari va asab zaharidir. Gossipolning rangi va toksikligi qayta ishlanadigan mahsulotlarning (yog', kunjara, shrot) ozuqaviyligini yoki ozuqa qiymatini belgilaydi. Bu omillar chigitni qayta ishslash jarayonida butunlay o'zgarib turadi. Paxta chigitida gossipoldan tashqari, oqsillar, fosfatidlar, azotsiz ekstraktiv moddalar, uglevodlar va boshqalar mavjud.

## Paxta chigitining kimyoviy tarkibi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

### Paxta chigitining kimyoviy tarkibi

Nº	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Chegaralangan qiymat
1	2	3	4
1	Chigit tarkibi yadro qobiq	% %	35-71 29-65
2	Yog'li moy miqdori Chigitda yadroda qobiqda	% % %	15,9-28,6 34,1-46,8 0,32-1,24
3	Xom protein miqdori	%	16,8-29,4
4	R <sub>2</sub> O <sub>5</sub> umumiyl miqdori	%	0,76-1,77
5	Fosfatillardagi R <sub>2</sub> O <sub>5</sub> miqdori	%	0,11-0,15
6	Kletchatka miqdori	%	12,4-18,7
7	Mineral elementlarning miqdori(kuldorlik)	%	2,3-4,7
8	Azotsiz ektraktiv moddalar miqdori	%	26,3-29,0
9	Quruq yadro massasiga nisbatan gossipol erkin bog'langan	% %	0,002-1,710 0,002-1,64 0,08-0,7
10	Oshlovchi moddalar	%	8,5-9,5
1	2	3	4
11	Uglevodlar miqdori	%	24,0-31,0
12	B <sub>2</sub> (riboflavin)	%	0,23
13	B <sub>5</sub> (pantotenik k-ta)	%	1,1
14	PP-B <sub>5</sub> (nikotin k-ta)	%	1,6

Paxta chigitining fizik va mexanik xususiyatlari saqlash omborlari, bunkerlar, transport vositalarini, tayyorlov sexlarining mashinalarini va ba'zi hollarda uskunalarning ish rejimlarini o'rnatish uchun zarur bo'ladi.

Paxta chigitining eng keng tarqalgan navlari uchun fizik-mexanik ko'rsatkichlari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

### Paxta chigitining fizik-mexanik ko'rsatkichlari

Nº	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Chegaralangan qiymat
1	2	3	4
1	Chiziqli o'lchamlar uzunligi kengligi qalinligi	mm mm mm	9,0 5,0 4,2
2	Chigitning zichligi, kg/m <sup>3</sup> tuyuladigan haqiqiy	kg/m <sup>3</sup> kg/m <sup>3</sup>	1,05-1,06 1,11-1,6
3	Yadro zichligi, haqiqiy	kg/m <sup>3</sup>	1,04-1,05
4	Sheluxa zichligi, haqiqiy	kg/m <sup>3</sup>	1,34-1,36
5	7,7 % tukdorlikdagi urug'ning hajmiy massasi minimal maksimal o'rta	kg/m <sup>3</sup> kg/m <sup>3</sup> kg/m <sup>3</sup>	350,0 363,0 356,5

7,7 % tukdorlikdagi tabiiy qiyalik burchagi Ichki ishqalanish koefisenti Ilashish kuchi	grad. kt kg/sm <sup>2</sup>	51-52 0,81 0,125
---	-----------------------------------	------------------------

### Paxta chigitini saqlash

Paxta chigit, belgilangan tartibda tasdiqlangan sanitariya qoidalariga va saqlash sharoitlariga muvofiq omborxonalarda, shiypon ostida yoki faol shamollatish vositalari bilan jihozlangan maxsus ochiq joylarda, shunday to'kib saqlanadi.

Chigitni, faol shamollatish vositalari bilan jihozlanmagan ochiq joylarda, 5-10 kungacha qisqa muddatli saqlashga ruxsat etiladi.

Saqlash va tashish vaqtida chigitning o'rta tolali va ingichka tolali seleksiya navlarini, shuningdek sanoat navlarini aralashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Paxta chigitining sanoat navlarini qayta ishslash aralashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Yangi hosildan olinadigan urug'larni qabul qilinishidan avval yog'-moy korxonasi, xomashyo bo'limi va laboratoriya xodimlari urug'larni qabul qilib olish va joylashtirish uchun reja ishlab chiqishlari kerak, ular ishlov berish va ishlab chiqarishga kirish vaqtida chigitni ortiqcha tashishlarni kamaytirish zarurligini hisobga olishlari kerak.

Chigitni qabul qilish va joylashtirish rejasi chigitni saqlab qolish uchun qo'llaniladigan choralarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Reja zavod rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Chigitni saqlashga jo'natalishidan oldin chigitning holati tashqi ko'rinishiga qarab hisobga olinadi. O'z-o'zidan yonadigan, unib-o'smagan, mog'orlagan, namiqqan, mog'orlagan yoki chigitga xos bo'limgan boshqa hidlarga ega bo'lgan chigit ajratiladi, bunday chigitni oddiy chigit bilan aralashtirmasdan alohida saqlanadi.

Chigitni qabul qilish va joylashtirishda, ilgari zararlangan chigitlar uzoq vaqt davomida saqlana olmasligi va birinchi navbatda ularni qayta ishslash kerakligini yodda tutish kerak.

Zavod sharoitida chigitni navlariga qarab alohida saqlash joylari mavjud bo'lishi kerak. Chigitni alohida saqlash uch guruhga bo'linadi: 1-chi va 2-chi, 3-chi, 4-chi guruhlar.

Saqlashning barcha inventarlari xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan bo'lishi va maxsus mo'ljallangan joylarda bo'lishi kerak.

Saqlash joylaridagi tozalikni saqlash va chiqindi uyumlari va zararkunandalarni zarar yetkazishining oldini olish uchun, har bir saqlash joyining kirish joyida poyabzallarni tozalash uchun sharoit bo'lishi kerak.

Barcha saqlash omborlari chigitning haroratini uzoqdan nazorat qilish uchun mo'ljallangan qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Ular mavjud bo'limganda urug'larning haroratini nazorat qilish ko'chma termoshtanglar bilan amalga oshiriladi.

Moyli urug'larni saqlash omborlarinig yer osti va yarim yer ostili binolari, moyli urug'larni tashish uchun mo'ljallangan galereya va tunnellar, shuningdek

urug'ni tashish qurilmalari joylashtirilgan 1 metrdan ortiq chuqurlikdagi lahmlar mexanik ventilyatsiya uskunalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Moyli urug'larni saqlash omborlarinig yer osti va yarim yer ostili binolari, moyli urug'larni tashish uchun mo'ljallangan galereya va tunnellar, shuningdek urug'ni tashish qurilmalari joylashtirilgan 1 metrdan ortiq chuqurlikdagi lahmlardagi ventilyatsiya uskunalari nosoz bo'lgan taqdirda ularga kirishga faqat ulardagi havo muhitida karbonat angidrid mavjudligi tekshirilgandan so'ng ruxsat etiladi. Uning miqdori umumiy hajm bo'yicha 0,5% dan oshmasligi kerak.

Moyli urug'larni saqlash omborlarinig yer osti va yarim yer ostili binolari, moyli urug'larni tashish uchun mo'ljallangan galereya, tunnel, lahmlarda karbonat angidrid mavjudligi statsionar yoki ko'chma qurilmalar bilan korxona bosh muhandisi tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq nazorat qilinishi kerak.

Karbonat angidridning paydo bo'lishi mumkin bo'lgan joylar ogohlantiruvchi belgilari bilan va PSH-1, PSH-2 shlangli gazli niqob bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Paxta chigitini yopiq tekis polli omborxonalarda, shiypon ostida saqlash amalga oshilishi kerak, ombor bo'limganda yoki yetarli hajmga ega bo'limgan sharoitda ochiq joylarda shibbalangan piramidalar(hirmonlar)da saqlanishi kerak.

Paxta chigiti saqlanadigan ochiq joylar quyidagicha oraliq bilan joylashtirilgan bo'lishi kerak:

- a) temir yo'l tuzilmasidan 4 m masofada;
- b) I va II darajadagi yong'inga xavfli binolardan 8 m;
- c) III darajadagi yong'inga xavfli binolardan 10 m;
- g) IV-V darajadagi yong'inga xavfli binolardan 12 m.

Paxta chigiti o'rtasida (yon va old hirmonlar o'rtasida) yong'inga qarshi oraliqlar mahalliy (respublika) yong'in nazorati organlari bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak. Hirmon guruhlari o'rtasida yong'inga qarshi oraliq 25 m bo'lishi kerak.

Kam tukdorli chigit (2% va undan kam tukdorlik bilan) mexanizatsiyalashtirilgan konus tubli omborlarda yoki yopiq tekis tubli omborlarda saqlanadi. Ushbu inshootlar yer osti suvlari past gorizontda yuqori uchastkada quriladi. Maydon asoslari har ikki tomonda ham  $5^{\circ}$  burchak ostida nishablik bo'lishi va yer osti suvlarining kirib borishiga xalaqit beruvchi suv o'tkazmaydigan qatlam bilan qoplangan bo'lishi kerak. Maydon atrofida yomg'ir suvlarini maydondan tashqariga chiqarib tashlash uchun ariqchalar o'rnatiladi. Yaxshi shibbalangan, tukdor paxta chigiti hirmoning yuqori qatlamlarida namlikning hirmonga kirishiga to'sqinlik qiladigan qobiq hosil qiladi.

Omborxona atrofida joylashgan drenaj kanallari soz holatda bo'lishi kerak.

Tunnellar, omborxonalarni qabul qilish punktlari va boshqalar quruq, yaxshi shamollatiladigan va ko'zdan kechirish uchun qulay bo'lishi kerak.

Mexanizatsiyalashtirilgan omborlar va elevatorlarga nisbatan keltirilgan talablarga qo'shimcha ravishda quyidagilar ham qo'llaniladi:

- a) transport lentalari, harakatlanuvchi lenta kallagi va boshmoqlari, cho'michlar, urug' tozalash mashinalari va mexanizatsiyalangan omborlarning

boshqa uskunalarini muntazam ravishda soz holatda saqlanadi hamda chang va chigitdan to'kilgan qoldiqlardan tozalanadi;

b) barcha omborxonalarining chuqurlarini, galereyalarniehtiyotkorlik bilan muntazam tozalashga alohida e'tibor beriladi.

Saqlash joylari joylashgan hudud va ular bilan bog'liq bo'lган hudud toza holda saqlanadi. Chigitdan bo'shatilgandan so'ng, saqlash joylari yoki uning alohida kameralari tozalanadi va dezinfektsiyalanadi. Saqlash uskunalarini va inventarlari toza holda saqlanadi va kerak bo'lгanda dezinfektsiyalanadi.

Chigitni oqilona saqlash uchun kompleksning bir qismi faol shamollatishdir, bu esa quruq havo bilan shamollatadigan chigitni harorati va namligini kamaytiradi, chigit massasini harakatlanmaydigan joylarda havo tarkibini yangilashni ta'minlaydi, chigitni yetilishi uchun sharoit yaratadi.

Chigitni faol ravishda ventilyatsiya qilish uchun chigit ostida yoki omborlarda  $25 \times 10$  o'lchamdagisi statsionar shamollatish maydonchlarini qurish tavsiya etiladi. Shamollatish qurilmasi ventilyator, kirish va chiqish bo'lган havo o'tkazgich, betonli kanallar, panjara va qopqoqlardan iborat. Kanallar  $4 \text{ mm} \times 50 \text{ mm}$  gacha teshiklari bilan  $5 \text{ mm}$  qalinli metall panjara bilan yopiladi. Ishchi qismning kesimi  $400 \times 400 \text{ mm}$ . Faol ventilyatsiya bilan chigit orasidagi effektiv balandligi 10 metrdan ortiq emas. Statsionar shamollatish joylarini har qanday joyda qurilishi mumkin. Sutkaning sovuq vaqtida shamollatish tavsiya qilinadi, chunki bu chigit massasining haroratini sezilarli darajada kamaytiradi va o'z-o'zidan yonishni oldini oladi. 1 tonna chigit uchun siqilgan havo sarfi  $35 \text{ m}^3/\text{t}$  soat. Statik elektr quvvati oqimlaridan himoya qilish uchun barcha havo kanallar yerga ulangan bo'lishi kerak.

### **Paxta chigiti hisobi**

Korxonaga kiradigan har bir moyli urug' to'pi og'irligi, sifati va miqdori bo'yicha chigit xo'jaligining boshlig'i tomonidan tortiladi va qabul qilinadi. Paxta chigiti tortib belgilangan miqdor bo'yicha qabul qilinadi va hisobga olinadi. Paxta urug'ining sifati sertifikatlar bilan belgilanadi.

Paxta chigitni hisobga olish "Yog'-moy samoati korxonalarida xom-ashyo, materiallar va tayyor mahsulotni hisobga olish bo'yicha yo'riqnomasi" ga muvofiq qat'iy amalga oshirilishi kerak, Toshkent, 2004 y.

Olingan chigit har bir moddiy-javobgar shaxs tomonidan alohida saqlash joylarining chegaralarini ajratmasdan, miqdor-sifat hisobini yuritish kitoblarida nav, miqdor va sifat bo'yicha hisobga olinadi va hisoblanadi.

Sifat va miqdorni hisobga olish kitobi omborlarni tozalash va inventarizatsiyalashda saqlash vaqtida sifat o'zgarishi natijasida hosil bo'lган kamchilik yoki ortiqcha qiymatlarning haqiqiyligini aniqlash imkonini beradi. Kitobdagagi yozuvlar to'g'ri ishlangan hujjatlar asosida, amalga oshirilgan ishlardan keyingi kundan kechiktirmay va kitobdagagi shaklga mos ravishda olib boriladi. Hisoblash namlik, ifloslik va tukdorlikni ko'rsatish bilan navi va miqdori bo'yicha olib boriladi.

Sifat va miqdorni hisobga olish kitobida korxonaga keltirilgan chigitning haqiqiy og'irligi ko'rsatiladi. Paxta tozalash korxonasi(paxta chigitini avtomobil

transportida olib kelinganda), tayyorlov maskani va temir yo'l stansiyalarining yuk xatlarida massaga yozilgan ko'rsatkich to'g'ri kelmasa unda qabul qilinayotgan chigitning ombor mudiri, kuzatib keluvchi va xaydovchining hamda temir yo'l stansiyasining yuk xatlariga tijorat dalolatnomalari tuziladi. Moyli urug' yetishmovchiligi yuk tashish paytidagi tabiiy yo'qotish meyordan oshib ketgan hollarda tijorat dalolatnomasi tuziladi. Agar kamchilik bu me'yorlardan oshmagan bo'lsa, stantsiya agenti hisob-fakturaning orqasiga belgi qoyadi va muhrlanadi.

Moyli urug'ni yetkazib berish quyidagi hujjatlardan iborat:

- chigitni korxona ichida, ombordan ishlab chiqarishga, bitta boshqaruvchiga tayinlangan ombovlardan, ikkinchisiga tayinlangan ombovlarga o'tkazish – dalolatnomasi bilan,
- chigitni boshqa korxonalarga yetkazib berish - korxonanining direktori va tegishli yuk tashish hujjatlari bo'yicha.

Paxta chigitni ishlab chiqarish uchun topshiriladi, bu yerda korxonanining laboratoriysi hisob va ishlab chiqarishni nazorat qilish qoidalariga muvofiq tahlil qiladi. Ishlab chiqarishga kelib tushadigan urug'ning o'lchash kitobiga kiritilgan ma'lumotlar va laboratoriya tahlillari ma'lumotlari asosida chigitni ichki uzatish dalolatnomalari tuziladi.

Chigitni qayta ishlashdan so'ng yoki chigit ombovlari bo'shatilgandan so'ng, yiliga kamida bir marta ombovlarni tozalash kerak. Ombovlarni tozalash ishlari boshqaruva raisi tomonidan vakolatli muhandis - texnik xodimlardan tashkil topgan komissiya tomonidan tuziladigan dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

**Kungaboqar urug'i.** Kungaboqar urug'i yog'-moy korxonalariga qabul qilishdan oldin **GOST 22391-2015 “Podsolnechnik. Texnicheskiye usloviya”** standart talablariga javob berishi lozim.

Kungaboqar urug'i texnik talablarga ko'ra, 6-jadvalda ko'rsatilgan 3ta sinfga bo'linadi.

6-jadval

#### Kungaboqar urug'inining organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	Kungaboqar sinflari uchun sifat ko'rsatkich qiyatlari		
	1	2	3
Xolati	O'z-o'zidan qizib kuygan yoki quritish vaqtida kuyishlardan xoli, sog'lom xolatda		
Rangi	Normal kungaboqar urug'iga xos va nav xususiyatiga ko'ra aniqlangan rangga mos		
Hidi	Sog'lom kungaboqar urug'iga xos (dimiqqan, mog'orlagan, begona xidlardan xoli)		
Namlikning massaviy ulushi, %	6,0-8,0		
Quruq moddaga qayta xisoblanganda moyning massaviy ulushi, %, kam emas	50,0	45,0	40,0
Urug'dagi moyning kislota soni, mg KOH/g, ko'p emas	1,3	2,2	5,0
Moyli aralashmalar, % ,ko'p emas	3,0	5,0	7,0
shu jumladan unib ketgan urug'lar	1,0	2,0	3,0
Begona aralashmalar, %, ko'p emas	1,0	2,0	3,0
shu jumladan:			

buzulgan urug'lar	0,2	0,5	1,0
mineral aralashmalar	0,3	0,5	0,5
mineral aralashmalar qatorida:			
toshlar ,shlak ruda	0,15	0,3	0,3
zararli aralashmalar:			
Kanakunjut urug'i		Ruxsat etilmaydi.	

## 1.

Kungaboqar urug'ining sinfi eng yomon qiymatlardan biri boyicha 6-jadvalda belgilangan ko'rsatkichlar boyicha aniqlanadi.

Kungaboqar urug'i moyining kislota soni chegaraviy meyorga mos kelmasa ular texnik maqsadlar uchun ishlatalinadi.

**Maxsar urug'i.** Korxonalarga maxsar urug'i qabul qilishda **GOST 12096-76 «Saflor dlya pererabotki. Texniicheskiye usloviya»** standartiga mos ravishda qabul qilinadi.

Maxsar urug'ini tayyorlashdagi hisob kitoblar olib boriladigan bazis meyorlari 7-dajvalda ko'rsatilgan.

7-jadval

Ko'rsatkichlar nomi	Meyor
Namlik, %	13,0
Begona aralashmalar miqdori, %	2,0
Moyli aralashmalar miqdori, %	4,0
Oziqa zaxiralarining zararkunandalar bilan zararlanganligi	Ruxsat etilmaydi.

Tayyorlanayotgan maxsar urug'ining chegaraviy meyorlari 8-jadvalda ko'rsatilgan.

8-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Meyori
Namlik,%, ko'p emas	15,0
Begona va moyli aralashmalar (jami), %, ko'p emas shu jumladan begona aralashmalar	15,0 5,0
Oziqa zaxiralarining zararkunandalar bilan zararlanganligi	Kana bilan zararlangandan tashqari ruxsat etilmaydi
Kanakunjut donining mayjudligi	Ruxsat etilmaydi

**Eslatma:** Tayyorlov korxonasi va yetkazib beruvchi kelishgan holda tayyorlanadigan maxsar urug'ining namligi va begona aralashmalar miqdorining chegaralangan meyordan ko'proq bo'lishga ularni saqlanganligini ta'minlovchi ushbu urug'larni konditsiyaga keltirish imkonи bo'lgandagina ruxsat beriladi.

Qayta ishlashga berilayotgan maxsar urug'i 9-jadvalda keltirilgan meyor va talablarga javob berishi kerak.

9-jadval

Ko'rsatkichlar nomi	Meyor
Namlik,%, ko'p emas	13,0
Begona va moyli aralashmalar, (jami), %, ko'p emas shu jumladan iflos aralashmalar	15,0 3,0
Oziqa zaxiralarining zararkunandalar bilan zararlanganligi	Kana bilan II bosqichdan yuqori bo'limgan zararlanganlardan tashqari, ruxsat etilmaydi.
Kanakunjut donining mayjudligi	Ruxsat etilmaydi

Yig'ib olingan va keltirilgan maxsar urug'i qizimaydigan, sog'lom xolatda, xidi va rangi normal maxsar urug'iga xos (dimiqqan, mog'orlagan va boshqa begona xidlarsiz) bo'lishi kerak.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Texnik paxta chigitiga qoyiladigan talablar.
2. Texnik paxta chigitini qabul qilishda tavsiya e'tiladigan qo'shimcha talablar.
3. Kungaboqar urug'iga qoyiladigan talablar.
4. Maxsar urug'iga qoyiladigan talablar.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Paxta chigiti, nav, sinf, kungaboqar urug'i, maxsar urug'i.

## **5-MA'RUZA. SHELUXA, SHROT VA BOSHQA IKKILAMCHI MAHSULOTLAR UCHUN TEXNIKAVIY TALABLAR**

**Reja:** O'simlik moylarini ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan ikkilamchi mahsulotlar. Sheluxaga qoyiladigan talablar. Shrotga qoyiladigan talablar. Turli xil moyli urug' shrotlarining aralashmalariga qoyiladigan talablar.

Paxta chigitini sanoatda qayta ishlashda, yadrodan tashqari, sheluxa (chigit qobig'i) ajraladi, bu qishloq xo'jaliklardagi hayvonlarni boqish uchun, hamda furfurol, oziq-ovqat ksiliti va boshqalar uchun xom ashyo sifatida ishlatiladi.

Paxta sheluxasi ishlab chiqarilgandan so'ng, u **O'zDSt 2790:2013 “Paxta chigiti sheluxasi. Texnikaviy shartlar”** talablariga javob berishi kerak.

Sheluxaning chiqish miqdori qayta ishlangan chigit og'irligining taxminan 30% ni tashkil qiladi. Organoleptik ko'rsatkichlari boyicha paxta sheluxasi 1-jadvalda ko'rsatilgan talablarga javob berishi kerak.

1-jadval

#### **Paxta sheluxasining organoleptik ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkich nomi	Xususiyati va meyori	GOST boyicha tekshirish usuli
Rangi Hidi	Kulrangdan jigarranggacha Paxta sheluxasiga xos, begona hidlarsiz, dimiqmagan	13979. 4 13979. 4

Hayot faoliyati havfsizligi, sog'lijni saqlash va atrof-muhit muhofazasini ta'minlovchi ko'rsatkichlarga muvofiq paxta sheluxasi 2-jadvalda keltirilgan talablarga javob berishi kerak.

Paxta sheluxasi korxonadan yuk tashish vositasiga tarasiz, to'kilgan holatda ortiladi. Sheluxa to'p holida qabul qilinadi va yetkazib beriladi. Bitta korxonada bir sutkada ishlab chiqarilgan, organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari boyicha bir xil va uning sifatini tasdiqlovchi bitta hujjat bilan rasmiylashtirilgan 500 tonnadan ko'p bo'lamagan har qanday sheluxa miqdori

to'p deb hisoblanadi.

Sifat guvohnomasida quyidagilar ko'rsatiladi: ishlab chiqaruvchi korxona nomi, mahsulotning nomi, to'p massasi, ishlab chiqarilgan sanasi, sifat boyicha xujjatning raqami va berilgan sanasi, 1 va 2-jadvalda ko'rsatilgan ko'rsatkichlar bo'yicha mahsulotni tahlili ma'lumotlari.

Agar paxta chigit shelixasining standart talablaridan bittasiga javob bermasa, uni realizatsiya qilish taqiqlanadi.

Paxta shelixasining portlash va yong'inga xavfli ko'rsatkichlari:

- tutash harorati - 235 °S;
- o'z-o'zidan yonish harorati - 465 °S;
- yonish harorati - 235 °S;
- yonuvchanligining quyi konsentratsiyalangan qiymati - 200 g/sm<sup>3</sup>.

Har o'n kunda kamida bir marta qishloq xo'jalik hayvonlarini boqish uchun mo'ljallangan paxta chigit shelixasidagi erkin gossipolning massa ulushi aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligi hayvonlarini boqish uchun mo'ljallangan paxta chigit shelixasidagi, shuningdek oziq-ovqat ksiliti olish uchun mo'ljallangan paxta chigit shelixasidagi xlor organik pestitsidlar oyda kamida bir marta aniqlanadi.

Sheluxanining haqiqiy zichligi 1.34 - 1.36 kg/m<sup>3</sup>

**Paxta shroti.** Paxta shroti ozuqa mahsuloti hisoblanib, u omuxta-yem ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi chorva mollarini oziqlantirish uchun foydalilanadi

Shrot, **O'zDSt 3098:2016 “Paxta shroti. Texnikaviy shartlar”** talablariga muvofiq, chaqilgan va qayta ishlangan paxta chigitidan “forpress-ekstraksiya” sxemasi boyicha ishlab chiqariladi.

Aholining hayoti, salomatligi, xavfsizligini va atrof-muhit muhofazasini ta'minlashga qo'yiladigan talablar

2-jadval

Chiqindi nomi	Tarkibi			Qayta tiklash yoki zararsizlan-tirishning zaruriyati	Chiqindining tozaligiga meyoriy talablar			Foydalanish joyi (bosqich nomi va jihoz raqami) Yo'qotish yoki saqlash usuli
	Tarkibidagilarning nomi	Foizdagi miqdori	Texnik tavsifi		Ko'rsat-kich nomi	Qayta ishslash-gacha	Qayta ishslash-dan keyin	
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Paxta chigit shelixasi O'zDSt 2790 : 2013	Namlik va uchuvchan moddalarning massa ulushi, ko'p emas, % Absolyut quruq moddalar hisobidagi xom-yog'ning massa ulushi, %, ko'p emas Begona aralashmalar (tosh, tuproq va boshqalar), %, ko'p emas Metall aralashmalar: o'lchami 2 mm gacha bo'lgan zarralar, %, ko'p emas o'lchami 2 mm dan katta va o'tkir qirralari bo'lgan zarralar  Erkin gossipolning massa ulushi absolyut quruq moddaga nisbatan, % dan ko'p emas	14  3,0  0,2  0,01  Yo'l qoyil-maydi  0,02		Qayta tiklash yoki zararsizlan-tirish talab etilmaydi	Sheluxa zaharli emas va u bilan ishlaganda inson organizimiga zarar yetkatmaydi.			Qishloq xo'jalik hayvonlarini boqish uchun va furfurol, oziq-ovqat ksiliti va boshqa maqsadlar uchun xom ashyo sifatida

1	2	3	4	5	6	7	8	9
	<p>Xlororganik pestidsidlar <math>\text{mln}^{-1}</math> mg/kg  geksaxloran (izomerlar soni)  DDT (metabolit va izomerlar  yig'indisi)  Geptaxloran va aldirin</p> <p>Toksik elementlar miqdori,  <math>\text{mln}^{-1}</math> (mg/kg) dan ko'p emas:  Qo'rg'oshin  Kadmiy  Simob</p>	0,2 0,05 Yo'l qoyil- maydi 0,05 0,1 0,02						

Paxta shroti (oddiy, tostirlangan va kam gossipolli) organoleptik ko'rsatkichlari boyicha 3-jadvalda keltirilgan talablarga javob berishi kerak.

3-jadval

Ko'rsatkich nomi	Oddiy, tostirlangan va kam gossipolli shrot tavsifi		Sinov usuli
	Birinchi nav	Ikkinchi nav	
Rangi	Sariqdan jigarranggacha	Sariqdan to'q jigarranggacha	GOST 13979.4- 68
Hidi	Paxta shrotiga xos begona hidrlarsiz (mog'or, dimlangan, benzin, kuygan)	Paxta shrotiga xos begona hidrlarsiz (benzin)	GOST 13979.4- 68

Sifat ko'rsatkichlariga qarab paxta shroti 4-jadvalda ko'rsatilgan quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Paxta shrotidagi suvda eriydigan vitaminlar miqdori, %:

Tiamin (B1)	3,9 – 14,0
Riboflavin (B2)	5,3 – 9,0
Niasin (PP)	28,6 – 45,0
Pantoten kislotasi	9,7 – 14,0

4-jadval

Ko'rsatkichlar nomi	Shrotlar uchun meyor						Sinov usuli	
	Oddiy		Tostirlangan		Kam gossipolli			
	1 nav	2 nav	1 nav	2 nav	1 nav	2 nav		
1	2	3	4	5	6	7	8	
Namlik va uchuvchan moddalarning massa ulushi, %	7-9		9-11		9-11		GOST 13979.1 boyicha	
Absolyut quruq moddaga qayta hisoblangan xom yog'ning massa ulushi, % ko'p emas			1,5				GOST 13496.15 yoki O'zDSt 612 boyicha	
Absolyut quruq moddaga qayta hisoblangan xom proteinning massa ulushi, % kam emas	44,0	36,0	44,0	36,0	45,0	37,0	GOST 13496.4 boyicha	
Shrotdagagi eruvchan proteinlarning umumiy protein miqdoriga nisbatan massa ulushi, % kam emas	-	-	55,0	44,0	55,0	44,0	GOST 13979.3 boyicha	
Absolyut quruq moddaga qayta hisoblangan xom kletchatkaning massa ulushi, % ko'p emas	14,0	25,0	14,0	25,0	14,0	25,0	GOST 13496.2 boyicha	
Absolyut quruq moddaga qayta hisoblangan 10% li xlorid kislotada erimaydigan kulning massa ulushi, % ko'p emas	0,5	1,0	0,5	1,0	0,5	1,0	GOST 13979.6 boyicha	
Metall aralashmalarning massa ulushi, % ko'p emas:								
- o'lchami 2 mm dan katta bo'lmanan zarrachalar					0,01		GOST 13979.5 boyicha	
- o'lchami 2 mm dan katta bo'lgan qirrali zarrachalar								
					Yo'l qoyilmaydi			

Begona aralashmalar (tosh, shisha, tuproq) Absolyut quruq moddaga qayta hisoblangan erkin gossiponing massa ulushi, % ko'p emas Qoldiq erituvchi (benzin, nefras) miqdorining massa ulushi, % ko'p emas Xlororganik pestisidlar, $\text{mln}^{-1}$ (mg/kg shrot), ko'p emas: - geksoxloran (izomerlar yig'indisi) - DDT (izomerlar va metabolitlar yig'indisi) - geptoxloran (geptoxlor epoksi) - aldrin Toksik elementlar miqadori, $\text{mln}^{-1}$ mg/kg shrotga, ko'p emas: -simob -kadmiy -qo'rg'oshin	0,1	Yo'l qoyilmaydi 0,02 0,05 0,2 0,05 Yo'l qoyilmaydi Yo'l qoyilmaydi 0,02 0,1 0,5	0,01	O'zDSt 3098 boyicha GOST 13979.11 boyicha GOST 11246-96 Illova B boyicha GOST 30178, 31262
1	2	3	4	5
Umumiy ozuqaviylik qiymati	1,08	0,93	1,08	0,93
		6	7	8
		1,09	0,94	OzDSt 3098:2016 ilovasiga qarang

### Qadoqlash, tamg'alash, tashish va saqlash

Paxta shroti GOST 2226 boyicha butun, toza va quruq qog'oz qoplarga yoki amaldagi meyoriy xujjalalar boyicha polimer qoplarga massasi 40 kg dan oshmagan holda qadoqlanadi yoki tarasiz (qoplama shunday o'zini yuklash) chiqarib yuboriladi.

Transport uchun tamg'alash GOST 14192 boyicha bajariladi. Qadoqlangan mahsulotni tavsiflovchi markirovkada quyidagilar bo'lishi lozim:

- ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi, tovar belgisi, manzili;
- mahsulot nomi, nav va turi;
- to'p raqami;
- sof og'irligi (massa netto) (kg);
- ishlab chiqarilgan sanasi (kun,oy,yil);
- yuklangan sanasi (kun,oy,yil);
- saqlash muddati (kun,oy,yil);
- umumiy ozuqaviylik qiymati;
- sertifikatlashtirish to'g'risida ma'lumot;
- O'zbekiston Respublikasi hududida realizasiya qilinganda «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» va eksportga jo'natilganda «Made in Uzbekistan» yozuvlari;
- amaldagi standart belgisi;

Paxta shroti toza, quruq, dezinfeksiya qilingan temir yo'l vagonlari yoki brezent bilan yopiladigan avtomashinalarda tashiladi. O'z-o'zidan yonish va

kuyishni oldini olish uchun paxta shroti saqlash yoki jo'natishdan oldin sovutilishi lozim. Qish oylarida saqlashga kelaytgan shrot harorati  $35^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'lmasligi lozim, yoz oylarida esa uning harorati atrofdagi havo haroratidan  $5^{\circ}\text{C}$  dan yuori bo'lmasligi kerak. Paxta shroti don zarakurandalari bilan zararlanmagan, yaxshi shamollatiladigan, to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari va issiqlik manbalari ta'siridan himoyalangan bino-inshootlarda saqlanadi.

Saqlanayotgan shrotning harorati sistematik ravishda masofaviy termometr yoki termoshtanga bilan tekshirib turilishi lozim. Harorat oshib ketganda shrotni sovutish kerak: a) shrotni bir ombordan boshqasiga ko'chirish, b) quruq va sovuq ob-havoda eshik va oynalarni ochish va shamollatish moslamalarini ishga tushirish.

Shrot namligining quyi chegaradan tushib ketishi, shrotni tashish vaqtida statik elektr yig'ilishi tufayli portlash xavfini ortishiga va shrotni changsimon qismini alangalanish darajasini kuchayishiga olib keladi. Namlikning yuqori chegaradan ortib ketishi saqlashda shrotni kuyishiga va uni o'z-o'zidan qizishiga olib keladi.

Paxta shrotining saqlash muddati to'kilgan holda ishlab chiqarilgan kundan boshlab - 3 oy, qadoqlangan holda - 1 yil.

**Maxsar shroti.** Maxsar shroti chaqilmagan maxsar urug'ini forpresslash-ekstraksiyaklash usulida olinadi va **O'zDSt 2860:2014 “Maxsar shroti. Texnikaviy shartlar”** standartiga javob berishi kerak. Maxsar shroti asosiy ozuquyemga qo'shimcha sifatida qo'shiladi.

Orgonoleptik sifat ko'rsatkichlariga ko'ra maxsar shroti 5-jadvalda berilgan talablarga mos bo'lishi kerak

5-jadval

Ko'rsatkich nomi	Shrot tavsifi
Rangi	Kulrangdan jigarranggacha
Hidi	Maxsar shrotiga xos bo'lмаган, boshqa xidlarsiz (mog'or isi, kuygan hidlarsiz)

Xayvon xayoti, sog'lig'i va atrof muxitni ximoya qilishni ta'minlovchi ko'rsatkichlar boyicha maxsar shroti 6-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

6-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Meyori
Namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushi. %, ko'p emas	10
Xom yog'ning absolyut quruq moddaga nisbatan massaviy ulushi, %, ko'p emas	2,0
Qayta xisoblangan absalyut quruq modda tarkibidagi, kulning massaviy ulushi, %, ko'p emas	6,0
xlorid kislotada erimaydigan kulning massaviy ulushi, absalyut quruq moddaga nisbatan %, ko'p emas	1,5
Begona aralashmalar	Yo'l qoyilmaydi.
Metal aralashmalar massaviy ulushi%, ko'p emas	0,01
-o'lchami 2mmgacha bo'lган chiqindilar	Ruxsat etilmaydi.
-o'lchami 2mm dan ko'p va chetki qismi kesuvchi chiqindilar	
Toksik elementlar miqdori, $\text{mln}^{-1}$ ( $\text{mg/kg}$ ) ko'p emas:	
Qo'rg'oshin	0,5
Kadmiy	0,1

Simob		0,02
Nitratlar miqdori $\text{mln}^{-1}$ (mg/kg),dan ko'p emas		450
Nitritlar miqdori $\text{mln}^{-1}$ (mg/kg),dan ko'p emas		10
Zararkunandalar bilan zararlanganligi yoki zararlanish belgilari mayjudligi	Yo'l qoyilmaydi	

Maxsar shroti oziqaviy qiymat ko'rsatkichlari boyicha 7-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

7-jadval

Ko'rsatkich nomi	Meyori
Xom proteining quruq moddaga nisbatan massaviy ulushi, % kam emas	20,0
Qayta xisoblangan quruq modda tarkibidagi xom klechatkaning massaviy ulushi, % ko'p emas	40,0
Umumiy energetic toyimliligi quruq moddaga nisbatan, oziqaviy birlikda, kam emas	0,72

**Paxta-soya shroti.** Paxta va soya shrotlari aralashmasi, tosterlangan. birinchi nav paxta shroti va tosterlangan yembop soya shrotining 90:10 nisbatdagi ko'rinishida ishlab chiqariladi va **O'zDSt 3180:2017 “Paxta-soya shroti. Texnikaviy talablar”** standartiga javob berishi lozim.

Paxta va soya shroti chorva mollari uchun oziqa sifatida va omixta yemlar uchun xom ashyo bo'lib xisoblanadi.

Paxta va soya shroti organaleptik korsatkichlari 8-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

8-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Tavsifi
Rangi	Sariq rangdan jigarranggacha
Hidi	Paxta va soya shrotiga xos, begona xidlarsiz.

Xayot xavsizligi, xayvonlar salomatligi, atrof-muxit ximoyasini taminlash uchun paxta va soya shroti aralashmasi 9- jadval talablariga boysinishi shart

9-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Meyor
Ekstraksiya moyining chaqnash xarorati, °S, past emas	Aniq-lanmaydi.	225
Pereksoni, mmol aktiv kislarod/kg, ko'p emas	4,0	10,0
Anizidin soni, kop emas.	3,0	Aniqlanmaydi.

Rangi va uni aniqlash usuli istemolchi talabiga binoan bajariladi. Raps moyini texnik maqsadlar uchun xam ishlashga ruxsat etiladi. Bunda moyning aniq sifat ko'rsatkichlari foydalanuvchi talabiga ko'ra kelishiladi. Raps moyi, raps doni ([GOST 10583](#)) dan ajratib olinadi.

### **Kungaboqar moyi (GOST 1129-93)**

Qayta ishlash va sifat ko'rsatkichlariga ko'ra 17-jadvalda berilgan nav va markalarga bo'linadi.

17-jadval

Yog' turi	nav	marka	OPK kodi
Rafinatsiyalanmagan kungaboqar moyi.	Oliy Birinchi Ikkinchchi		91 41 36 11 00 91 41 36 12 00 91 41 3613 00
Gidratatsiya qilingan kungaboqar moyi	Oliy Birinchi Ikkinchchi		91 41 3621 00 91 41 36 22 00 91 41 3623 00
Rafinatsiyalangan, dezodoratsiyalanmagan kungaboqar moyi	-	-	91 41 36 39 00
Rafinatsiyalangan, dezodoratsiyalangan kungaboqar moyi	-	D P	91 41 36 69 00 91 41 36 69 00

Bolalar ozuqasi va parxez taomlar ishlab chiqarish uchun rafinatsiyalangan, dezodoratsiyalangan D markali kungaboqar moyi qo'llash tavsiya qilinadi.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'i uchun rafinatsiyalangan, dezodoratsiyalangan D va P markali va yana presslab olingan: rafinatsiyalangan, dezodoratsiyalanmagan, gidratatsiyalangan oliy va birinchi nav va rafinatsiyalanmagan oliy va birinchi navli kungaboqar moylari qo'llaniladi.

Gidratatsiyalangan va rafinatsiyalanmagan 2 nav kungaboqar moyi qayta ishlashga beriladi (rafinatsiyalanadi).

### **Texnik talablar**

Orgonoleptik ko'rsatkichlariga ko'ra kungaboqar moyi 18-jadvalda berilgan talablariga mos bo'lishi kerak.

18-jadvalda

Ko'rsatkic h nomlari	Moy ko'rsatkichlari							
	rafinatsiyalangan			gidratatsiyalangan			rafinatsiyalanmagan	
	Dezo-doratsiya-langan	Dezodo-ratsiya-lanmagan	oliy	Birin-chi	Ikkin-chi	oliy	Birin-chi	Ikkin-chi
Tiniqligi	Tiniq, quyqalarsiz				Yengil xiralan ish	Cho'kma ustida "to'r" bo'lishi		Cho'km a ustida yengil

				yoki “to’r” ning borligi sifatsiz lik omili xisobl anmay di	sifatsizlik omili xisoblan- maydi	xiralanis h sifatsizli k omili xisoblan maydi.
Hidi va ta’mi	Hidsiz: moy tamiga xos yoki yoqimli spesifik kungaboqar moyiga xos ta’m va hidga ega	Rafinatsiyalang an kungaboqar moyi tamiga xos, begona xid va achchiq ta’msiz	Gidratatsiyal angan kungaboqar moyiga xos begona, achchiq ta’m, va xidlarsiz		Kungabo-qar moyiga xos, begona xid, achchiq ta’mlarsiz	Kungab oqar moyiga xos. Yengil aynigan xid va yengil achiq ta’m bo’lishi sifatsizli k omili emas

Eslatma: qayta ishlash korxonalariga hamda umumiy ovqatlanish birlashmalariga, savdo tarmog’iga realizatsiya qilinayotgan rafinatsiyalangan va gidratatsiyalangan kungaboqar moyidagi yengil xiralanish va “to’r”lanish ularni sifatsizlik omili xisoblanmaydi.

Fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari ko’ra kungaboqar moyi 19-jadval sifat talablarga mos bo’lishi kerak.

19-jadval

Ko’rsatkich nomlari	Moy uchun meyorlar								
	rafinatsiyalangan		gidratatsiyalangan			raginatsiyalanmagan			
	Dezodorat-siyalangan		dezod oratsi yalan maga n	Oliy	Birin-chi	Ikkin-chi	Oliy	birinc hi	
	D	P						ikkinch i	
Rang soni , mg yod, ko’p emas	10		12	15	20	30	15	25	35
Kislota soni, mg KOH/g, ko’p emas	0,4	0,6	0,6	1,5	4,0	6,0	1,5	4,0	6,0
Yog’ bo’lmagan aralashmalar massaviy ulushi, %, ko’p emas	Mavjud emas						0,05	0,10	0,20
Fosfor saqlovchi moddalarning massaviy ulushi, %, ko’p emas Stearooleositin miqdori P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> miqdori	Mavjud emas			0,10	0,20	0,25	0,40	0,60	0,80

			0,009	0,018	0,022	0,035	0,053	0,070
Namlik va uchuvchan moddalar massaviy ulushi %, ko'p emas	0,10	0,10	0,10	0,15	0,3	0,2	0,2	0,3
Sovun (sifat analizi)	Mavjud emas		Aniqlanmaydi					
Ekstraksiya moyining chaqnavsh harorati, °C, past emas	234	225	225	225	225	225	225	225
Tiniqlik bosqichi, fem, ko'p emas	25	25	40	-	40	-	-	-
Pereks soni, mmol/kg $\frac{1}{2}$ O <sub>2</sub> , ko'p emas	10	10	10	10	-	10	10	-

Umumiy ovqatlanish va savdo tarmog'iga yo'naltirilgan "muzlatilgan", rafinatsiyalangan, gideratatsiyalangan kungaboqar moyi tiniqlik darajasi 15 femdan yuqori bo'lmasligi kerak.

Rafinatsiyalangan kungaboqar moyi texnik maqsadlarda realizatsiya qilinayotganda oshib ketgan kislota soni, foydalanuvchi bilan kelishilgan xolda sifatsizlik omili xisoblanmaydi.

Rafinatsiyalangan va rafinatsiyalangan, dezodoratsiyalangan kungaboqar moyi oziq-ovqat maxsulotlariuchun sanoat qayta ishlashga (yengil xiralanish va fasfor saqlovchi moddalar 0,1% dan oshmaganda) yetkazib berishda pereks somi 15mmol/kg  $\frac{1}{2}$  O ko'p bo'limganda sifatsizlik omili xisoblanmaydi.

#### Paxta salat moyi (O'zDSt 3181:2017)

**Paxta salat moyi** press usulida olingan rafinatsiyalangan paxta moyi yoki ekstraksiya usulida olingan rafinatsiyalangan oliy va birinchi navli paxta moyini 7,5-12 °C haroratda fraksiyalash bilan ajratib olingan suyuq fraksiyasi hisoblanadi.

Paxta salat moyi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, konserva sanoati va ovqatlanishda ishlatiladi.

Paxta salat moyi organoleptik va fizik – kimyoviyo ko'rsatkichlari boyicha 20-jadvalda keltirilgan talablarga javob berishi kerak.

20- jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi	Moyning tavsifi va meyorlari		
		dezodoratsiyalangan		dezodoratsiyalanganmagan
		Oliy nav	Birinchi nav	
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
1.	Hidi va ta'mi	Hidsiz, moy ta'mi yo'qotilgan		rafinatsiyalangan paxta moyiga xos
2.	35 sariq birlidagi rangi, qizil birlikda, ko'p emas	5	8	8
3.	0 °Charoratdagi tiniqligi	Tiniq, 7 soatlik tindirishdan keyin	Tiniq, 6 soatlik tindirishdan keyin	
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
4.	Kislota soni, mg KOH/g. ko'p emas	0,2	0,3	0,3
5.	Namlik va uchuvchi moddalar massaviy ulishi, %, ko'p emas	0,1	0,1	0,2
6.	Yog' bo'limgan aralashmalar massa ulushi(massaviy cho'kma), %, ko'p emas	Mavjud emas		
7.	Sovun miqdori (sifat ko'rsatkichi)	Mavjud emas		

8.	Perekis soni, mmol/kg, 1/2 «O», ko'p emas	7,0	7,0	7,0
9.	Ekstraksiya paxta moyining uchqunlanish harorati, °S, past emas	234	232	232

Paxta salatmoyidagi toksik elementlar, pestitsid, radionuklid va mikotoksinlar miqdori, O'zbekiston Respublikasi sog'lijni saqlash vazirligi davlat sanitariya nazorati departamenti SaNPiN 0283-10 – “Gigenicheskiye trebovaniya k bezopasnosti pishevoy produksii” tomonidan belgilangan meyorlardan oshmasligi kerak. Bu meyorlar 20.1-jadvalda ko'rsatilgan.

20.1-jadval

Toksik elementlar nomi	Ruxsat etilgan maksimal darajasi mg/kg, ko'p emas Ovqatlanishda iste'mol qilinadigan o'simlik moyi
1	2
Qo'rg'oshin	0,10
Kadmiy	0,05
Mishyak	0,10
Simob	0,03
Mis	0,50
Ruh	5,0
Temir	5,0
<b>Mikotoksinlar:</b>	
Aflotoksin	0,005
Zearolenon	1,0
<b>Pestitsidlар:</b>	
Geksaxlorsiklogeksan ( $\alpha$ , $\beta$ , $\gamma$ -izomerlar)	0,2 rafinatsiyalangan 0,05 dezodoratsiyalangan
DDT va uning metabolitlari	0,2 rafinatsiyalangan 0,1 dezodoratsiyalangan
<b>Radionuklidlar :</b>	
Seziy 137	60 Bk/kg
Stronsiy 90	80 Bk/kg

### Izoh :

1. Mikotoksin va pestitsidlarni aniqlash o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan usullar boyicha amalga oshiriladi.

2. Pestitsid va toksik elementlar miqdorini nazorat qilish, maxsulot sifatini kafolatlovchi maxsulot ishlab chiqaruvchining O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni Saqlash Vazirligi sanitariya epidemiologiya nazorati organi bilan kelishuvi boyicha belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Dezodoratsiyalangan oliv va birinchi navli paxta salat moylari savdo tarmoqlari va umumiy ovqatlanish korxonalariga etkazib berish uchun mo'ljallangan.

Paxta moyining dezodoratsiyalanmagan yengil fraksiyasi konserva sanoati va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'llash uchun, savdo tarmoqlari va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun mo'ljallanmagan.

Paxta salat moyi ishlab chiqarish uchun O'zDSt 816:2015 talablariga javob beradigan rafinatsiyalangan paxta moyi (oliv va birinchi navli ekstraksiya va press usullarida olingan) ishlatiladi.

### Qadoqlash

Dezodoratsiyalangan paxta salat moyi chakana savdo uchun faqat qadoqlangan xolda chiqariladi:

Dezodoratsiyalangan paxta salat moyi qadoqlash:

- GOST 10117.2 yoki O'zDSt 968 boyicha sof og'irligi 450 g dan 1000 gacha bo'lган, xajmi 0,45 l dan 1 l gacha bo'lган shisha butilkalarda;

- amaldagi meyoriy xujjatlar asosida sof og'irligi 450 g dan 5000 gacha bo'lган, xajmi 0,45 l dan 5 l gacha bo'lган shaklli PET (polietilentereftalat) butilkalarda.

Sof og'irligidan ruxsat etilgan og'ish, g da:

450 g dan 1000 g kiritib qadoqlashda  $\pm$  5 g;

1000 g dan ko'p 5000 g kiritib qadoqlashda  $\pm$  10 g.

Xajmidan ruxsat etilgan og'ish, ml da

0,45 l dan 1,0 l kiritib qadoqlashda  $\pm$  5 ml;

1,0 l dan ko'p 5,0 l kiritib qadoqlashda  $\pm$  10 ml.

Salat moyi solingan shisha butilka GOST 745 boyicha alyumin folgali qalpoqchalar bilan yoki amaldagi normativ xujjatlar boyicha polietilen qopqoqlar bilan zinch qilib berkitilishi lozim.

Polimer materiallardan tayyorlangan butilkalar PET butilka uchun polietilen qopqoqlar bilan tizinlanadi, 3-5 l hajmli butilkalarni yopish uchun esa amaldagi meyoriyhujjatlar boyicha bandli qopqoqlar ishlataladi.

Salat moyi solingan butilkalar GOST 11354 boyicha ko'p qo'llaniladigan taxtali yashiklar, GOST 13516 boyicha gofra karton qutilar va GOST 25951 boyicha issiqlik ta'sirida tortilmaydigan plyonkaga joyylanadi

Dezodoratsiyalanmagan paxta salat moyinitashish uchun GOST 6247 bo'yicha ichki yuzasi qoplangan va ruxlanmagan po'lat bochkalarga, GOST 5037 bo'yicha metal flyagalarga quyiladi.

### Tamg'alash

Salat moyi qadoqlangan xar bir qadoq birligiga, quyidagilarni ko'rsatgan holda, rangli bezatilgan yorliq (tipografikbosma) yopishtirilgan bo'lishi lozim:

-tovar belgisi(mavjud bo'lganda);

- ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi, mulkchilik shakli, manzili va telefoni;

-sof og'irligi yoki hajmi;

-mahsulot navi va turining nomi;

-quyilgan sanasi (kun, oy, yil);

-yaroqlilik muddati (kun, oy, yil);

-100g mahsulotning oziqaviy qiymati, kcal;

- sertifikatlashtirish haqida ma'lumot;

-saqlash sharoiti;

-registrasiya raqami bilan shtrix-kod;

- O'zbekiston Respublikasi doirasida sotilganda «O'zbekistondaishlabchiqarilgan» va eksportga yetkazib berishda «MadeinUzbekistan» yozuvini bilan amalga oshirilishi kerak;

-amaldagi meyoriy hujjat belgisi.

Transport taralarini tamg'alash quyidagi qo'shimcha belgilarni qo'yish bilan olib borilishi lozim:

-tovar belgisi(mavjud bo'lganda);

- ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi, mulkchilik shakli, manzili va telefoni;

-mahsulot navi va turining nomi;

- bir birlik qadoqlangan mahsulotning sof hajmi (l) yoki og'irligi (g) va qadoq birligidagi butilkalar miqdori yoki qadoqlanmagan quyilgan mahsulot uchun sof og'irligi;

-quyilgan sanasi (kun, oy, yil);

-yaroqlilik muddati (kun, oy, yil);

- O'zbekiston Respublikasi doirasida sotilganda «O'zbekistondaishlabchiqarilgan» va eksportga yetkazib berishda «MadeinUzbekistan» yozuvini bilan amalga oshirilishi kerak;

- sertifikatlashtirish haqida ma'lumot;

-saqlash sharoiti;

-amaldagi meyoriy hujjat belgisi.

Yashiklarni transport tamg' alash GOST 14192 boyicha "Namlikdan saqlang", "Quyosh nurlaridan saqlang" "Mo'rt. Ehtiyot bo'ling" manipulyatsion belgilarini qayd qilib amalga oshiriladi.

Qadoqlangan paxta salat moyining yaroqlilik muddati quyilgan kundan boshlab 12 oy qilib belgilangan.

O'simlik moylarining oziqaviy va energetik qiymatlari

100 g mahsulotdagi yo'g' miqdori, g, kam emas, - 99,90

100 g mahsulotdagi suv miqdori, g, ko'p emas, - 0,10

100 g mahsulotning energetik qiymati, kcal - 899

Salat moyi asosan mayonez ishlab chiqarish uchun ishlatiladi va bir oyda 3-12 tonna miqdorida ishlab chiqariladi.

Soya, kungaboqar va maxsar kabi kam miqdorda ishlab chiqariladigan moylar alohida mahsulot sifatida ishlab chiqarilmayda va ular margarin, "O'zbekiston", "Baraka" moylari va h.k. ishlab chiqarishga beriladi.

### **Makkajo'xori moyi**

**(maslo kukuruznoye GOST 8808-2000)**

Makkajo'xori moyi ishlab chiqarilishi, sifat ko'rsatkichiga va ishlatilish maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi.

Markasi	Qo'llanilishi
P	Ishlab chiqarish korxonalarida rafinatsiyalash va dezodoratsiyalash bilan qayta ishlash uchun
CK	Kulinar va margarine tarkibiga qo'shish va boshqa oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish uchun
D	Bolalar oziqasi va parxez taomlar ishlab chiqarish uchun
P	Umumiy oziq-ovqat korxonalari va savdo tarmoqlari, hamda boshqa oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish uchun

Organoleptik ko'rsatkichlariga ko'ra makkajo'xori moyi 21-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

21-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Makkajo'xori moyi		Rafinatsiyalan-magan P markali
	Rafinatsiyalangan	Dezodoratsiya-langan D va P markali	
Tiniqlik	Tiniq, cho'kmalarsiz		Tubiga cho'kgan yengil xiralanishga ruxsat etiladi.
Hidi va ta'mi	Hidsiz, moy ta'miga xos	Rafinatsiyalangan moy ta'miga xos, begona va achchiq ta'msiz, begona xidlarsiz	Kukuruza moyiga xos, begona xidlarsiz.

Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga ko'ra makkajo'xori moyi 22-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

22-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Makkajo'xori moyi meyorlari			
	Rafinatsiyalangan markalar		Rafinatsiyala-nmagan markalar	
	Dezodoratsiya-langan markalar	Dezodoratsiya-lanmagan markalar		
	D	P	CK	P

Rang ko'rsatkichi, mg I <sub>2</sub> , ko'p emas	18	20	20	100
Kislota soni, mg KOH/g, ko'p emas	0,35	0,4	0,6	5,0
Fosfor saqlovchi moddalarning massaviy ulushi, %, ko'p emas, qayta xisoblanganda Stearoleolesitinga P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> ga	0,05 0,005	0,05 0,005	0,05 0,005	1,0 0,096
Namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,10	0,10	0,10	0,20
Yog' bo'limgan aralashmalarning massaviy ulushi	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas	0,1
Sovun miqdori (sifat analizi)	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas	aniqlanmaydi
Ekstraksiya moyi chaqnash harorati, °C, past emas	234	225	225	225
Pereksoni, mmol/kg ½ 0, ko'p emas	10	10	10	10

***Yeryong'oq moyi*  
(Maslo araxisovoye GOST 79-68)**

Ishlab chiqarish usuli, sifat ko'rsatkichlariga ko'ra yeryong'oq moyi quyidagi 23-jadvalda berilgan nav va ko'rinishda bo'ladi.

23-jadval

Yeryong'oq moyi turlari		nav	Kod OKP
Rafinatsiyalangan Yeryong'oq moyi	dezodoratsiyalangan	-	91 4131 6900
dezodoratsiyalangan	dezodoratsiyalanmagan	-	91 4131 3999
dezodoratsiyalanmagan	Rafinatsiyalananmagan Yeryong'oq moyi	Oliy birinchi	91 4131 1199
Rafinatsiyalananmagan Yeryong'oq moyi		-	91 4131 1299
Rafinatsiyalananmagan Yeryong'oq moyi		-	914131 1899

Orgonoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari 24-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

24-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Rafinatsiyalangan moy		rafinatsiyalanmagan		
	Dezodo- ratsiya- langan	Dezodo- ratsiya- lanmagan	Oliy	Birinchi	Texnik moy
Tiniqligi. 24 soat tindirilgan, 20 °C haroratda	Tiniq		Tiniq,	chokindili	Chokindida quyqalanishga ruxsat etiladi
Ta'mi va xidi	Moy tamiga xos, xidsiz	Moy tamiga xos, begona tam va xidlarsiz.	Yeryong'oq moyiga xos	Yeryong'oq moyiga xos yengil taxir maza bo'lishi mumkin	
Rangi	Och sariq yashilsifat tusli			Meyorlanmaydi.	
Kislota soni, mg KOH, ko'p emas	0,5	0,4	1,0	2,25	4,0
Yog' bo'limgan	Yo'q	Yo'q	0,05	0,15	0,15

aralashmalari massaviy ulushi, %, ko'p emas					
Uchuvchan moddalar va namlikning massaviy ulushi	0,1	0,15	0,15	0,2	0,2
Sovun (sifat ko'rsatkichi).	Mavjud emas	-	-	-	-
Chaqnash harorati, °C, past emas	234	234	225	225	225
Pereksoni, mmol/kg, ko'p emas			10		

Chaqnash harorati faqat ekstraksiyalash usuli bilan olingan moylarda tekshiriladi.

### **Rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan kungaboqar moyi GOST 1129-2013**

Ishlov berish usuli, sifat ko'rsatkichlarining darajasi va ishlatishlish maqsadiga ko'ra rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan kungaboqar moyi 25-jadvalga mos ravishda markalarga bo'linadi

25-jadval

Kungaboqar moyining markasi	Ishlatilish maqsadi
"Premium" rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan	Bolalar va parhez ovqatlar mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun va bevosita ovqatlanishda ishlatish uchun
"Oliy nav" rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan	Bevosita ovqatlanishda ishlatish uchun va
"Birinchi nav" rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan	oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun

#### **Texnik talablari**

Organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarga ko'ra rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan kungaboqar moyi 26-jadvalda keltirilgan talablarga mos kelishi kerak.

26-jadval

Ko'rsatkichlar nomi	Rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan moy uchun tavsif va meyorlar					
	Premium	Oliy nav		Birinchi nav		
		muzlatilgan	muzlatil-magan	muzlatilgan	muzlatil-magan	
1	2	3	4	5	6	
Tiniqligi				Tiniq, cho'kmasiz		
Hidi va ta'm				Hidsiz, ta'mi yo'qotilgan		
Rangi, mg yod, ko'p emas		6			10	
Kislota soni, mg KOH/g, ko'p emas		0,30			0,40	
1	2	3	4	5	6	
Yog' bo'limgan aralashmalarning massaviy ulushi, %, ko'p emas				mavjud emas		
Fosfor saqlovchi moddalarning massaviy ulushi, %, ko'p emas:						
stearooleoletsinga qayta hisoblanganda				mavjud emas		
R <sub>2</sub> O <sub>5</sub> ga qayta hisoblanganda				mavjud emas		
Sovun (sifat ko'rsatkichi)				mavjud emas		

Namlik va uchuvchan moddalaming massaviy ulushi, %, ko'p emas				0,10
Ekstraksiya usulida olingan moynmg uchqunlanish harorati, °C kam emas			meyorlanmaydi	
Perekis soni, mol aktiv kislород/kg, ko'p emas	2,0	4,0		10,0
Anizidin soni, ko'p emas		3,0		meyorlanmaydi
Sovuq sinov	Sinovga chidamli	meyorlanmaydi	Sinovga chidamli	meyorlanmaydi

### Transportda tashish va va saqlash

Kungaboqar moyi barcha turdag'i transport vositalari yordamida mahsulotni yetkazib berish shartnomasidagi shartlar va texnologik rostlash to'g'risidagi qonun talablariga mos ravishda tashiladi.

Qadoqlanmagan kungaboqar moyi ostidan bo'shatiladigan temir yo'l sisternalarida, zich yopiladigan lyukli avtosisternalarda va boshqa usti yopiq transport vositalarida mahsulotni yetkazib berish shartnomasidagi shartlar va texnologik rostlash to'g'risidagi qonun talablariga mos ravishda tashiladi.

Usti ochiq avtoreport vositalari bilan tashilganda bochka, flyaga va qadoqlangan kungaboqar moyi bo'lgan qutilar yog'ingarchiliklardan va quyosh nurlaridan himoyalangan bo'lishi lozim.

Ochiq qutilarda solingan kungaboqar moyi bo'lgan iste'mol taralarini yuklash iste'molchi bilan kelishilgan bo'lishi lozim.

Gofrilrnga kartondan yasalgan qutiga qadoqlangan va issiqlikka chidamli plyonka bilan guruhlab o'rالган iste'mol tarasidagi kungaboqar moyi temir yo'l vagonlarida poddonlarda tashiladi. Qutilarni, transport paketlarini va guruh qadoqlarini joylash va mahkamlash GOST 22477 talablariga mos kelishi kerak.

Vagon devorlariga mahkamlovchi moslama va yog'och go'lalar yordamida mahkamlangan poddonlarga qutilarni joylashtirishga ruhsat etiladi. Poddonlarga yashiklarni joylash balandligi besh qatordan oshmasligi kerak.

Temir yo'l sisternalari va avtosisternalar oziq-ovqat mahsulotlarini tashishga qoyiladigan talablarga mos kelishi kerak.

Bevosita ovqatlanishda ishlatish uchun mo'ljallangan kungaboqar moyini temir yo'l sisternalari va avtosisternalarga quyish sisternalarning tubigacha yetadigan o'tkazish quvuri yordamida amalga oshiriladi.

Bochka, flyaga hamda transport paketlariga qadoqlangan kungaboqar moyi joylangan qutilarni tashish GOST 21650, GOST 22477, GOST 24597 va GOST 26663 talablariga muvofiq olib boriladi.

Kungaboqar moyi iste'mol taralariga quyilgungacha mazkur moy markasining ko'rsatkich qiymatlari oralig'ida uning saqlanishini ta'minlaydigan sharoitlarda saqlanadi.

Iste'mol taralariga qadoqlangan kungaboqar moyi yopiq qorong'u binolarda, flyaga va bochkalaridagi esa yopiq binolarda saqlanadi.

### Ishlab chiqaruvchining kafolatları

Rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan kungaboqar moyining yaroqlilik muddati ishlab chiqarish texnologiyasi va mahsulot standartini GOST 1129-2013) qabul qilgan davlat hududida amal qilinadigan meyoriy huquqiy dalolatnomalarga muvofiq saqlash sharoitlariga qarab ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilanadi.

Rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan kungaboqar moyi uchun tavsiya etiladigan yaroqlilik muddati GOST 1129-2013 ning E ilovasida keltirilban.

### Rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan maxsar moyi

Rafinatsiyalangan maxsar moyi (press yoki ekstraksiya usulida olingan) dan O'zDSt

2866:2014 talablariga mos ishlab chiqarilgan rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan maxsar moyining (press yoki ekstraksiya usulida olingan) organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari 27 - jadvalda keltirilgan.

27 - jadval

Ko'rsatkichlar nomi 1	Rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan maxsar moyi uchun tavsif va meyorlar	
	Press usulida olingan	Ekstraksiya usulida olingan
Tiniqligi	Tiniq	
Hidi va ta'm	Hidsiz, moy ta'miga mos	
Rangi	Yashil tusga ega to'q sariq rangda	
Kislota soni, mg KOH/g, ko'p emas	0,30	
Namlik va uchuvchan moddalaming massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,15	
Yog' bo'limgan aralashmalar massa ulushi(massa boyicha cho'kma), %, ko'p emas	Mavjud emas	
Sovun (sifat ko'rsatkichi)	Mavjud emas	
Sovunlanmaydigan moddalar miqdori, %, ko'p emas	1,0	
Perekis soni, mmol/kg, ½"O", ko'p emas	8	
Paxta moyiga sifat reaksiyasi	Mavjud emas	Mavjud emas
Ekstraksiya usulida olingan moynmg uchqunlanish harorati, °C kam emas	Aniqlanmaydi	238

Rafinatsiyalangan maxsar moyi uchun "Yod soni" ko'rsatkichi (130-155 g, J<sub>2</sub>/100 g dan ko'p emas) ma'lumot sifatida ko'rsatilgan va iste'molchi talabiga ko'ra aniqlanadi.

Rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan maxsar moyi (press yoki ekstraksiya usulida olingan) sotuv tarmoqlari va umumiylar ovqatlanish joylari uchun, hamda oziq-ovqat mahsulotlariga sanoatda qayta ishslash uchun mo'ljallangan.

#### Ishlab chiqaruvchining kafolatlari

Ishlab chiqaruvchi rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan maxsar moyini transportda tashish va saqlash shartlari bajarilgandagina O'zDSt 2866:2014 talablariga javob berishga kafolat beradi.

Maxsar moyining yaroqlilik muddati:

- butilka va flyagalarga qadoqlangan rafinatsiyalangan hidsizlantirilgan quyilgan kunidan boshlab – 12 oy;
- bochkalarga quyilgan rafinatsiyalangan hidsizlantirilgan quyilgan kunidan boshlab – 6 oy.

#### Rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan soya moyi

Rafinatsiyalangan soya moyi (press yoki ekstraksiya usulida olingan) dan O'zDSt 3093:2016 talablariga mos ishlab chiqarilgan rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan soya moyining (press yoki ekstraksiya usulida olingan) organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari 28 - jadvalda keltirilgan

28 - jadval

№ t/r	Ko'rsatkichlar nomi	Rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan soya moyi uchun tavsif va meyorlar	
		Oily nav	Birinchi nav

1	2	3
1. Tiniqligi		Tiniq, cho'kmasiz
2. Hidi va ta'mi		Hidsiz, moy ta'miga mos
3. Rangi, mg yod, ko'p emas	12	15
4. Kislotasi soni, mg KOH/g, ko'p emas	0,3	0,3
5. Namlik va uchuvchan moddalaming massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,1	0,1
6. Yog' bo'limgan aralashmalar massa ulushi(massa boyicha cho'kma), %, ko'p emas		Mavjud emas
7. Fosforining massaviy ulushi, mg/kg, ko'p emas - stearooleoletsitinga qayta hisoblanganda, ko'p emas		20 0,05
8. Sovun (sifat ko'rsatkichi)		Mavjud emas
9. Ekstraksiya usulida olingan moyning uchqunlanish harorati, °C kam emas		Meyorlanmaydi
10. Perekis soni, mmol aktiv kislorod/kg, ko'p emas	4,0	10,0
11. Anizidin soni, ko'p emas	3,0	Meyorlanmaydi

**Izoh:**

1. Bolalar ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qo'llaniladigan rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan soya moyining perekis soni 2 mmol aktiv kislorod / kg dan ko'p emas.

2. Savdo tashkilotlarining roziligi bilan chakana savdo uchun rangi 30mg yoddan ko'p bo'limgan rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan soya moyini chiqarish mumkin.

**Ishlab chiqaruvchining kafolatlari**

Ishlab chiqaruvchi O'zDSt 3093:2016 da ko'rsatilgan tashish va saqlash shartlariga riyoqa qilingandagina rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan soya moyini O'zDSt 3093:2016 talablariga mos kelishiga kafolat beridi.

Rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan soya moyining yaroqlilik muddati (ishlab chiqarilgan kundan boshlab):

- qadoqlangan moylar uchun – 6 oy;
- qadoqlanmagan moylar uchun – 4 oy;
- qadoqlangan moylar bolalar ovqatlari uchun – 3 oy.

O'simlik moylari tarkibidagi toksik elementlar, mikotoksinlar, pestisidlarning va radionuklidlar miqdori va oksidlanishdan buzilish ko'rsatkichlari O'zR Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligiga bo'lgan gigiyenik talablar SanPiN 0283-10 «Gigiyenicheskiye trebovaniya k bezopasnosti pishevoy produksii» va O'zR Vazirlar Mahkamasining 19.07.2017 yildagi 520-sonli qarori bilan tasdiqlangan UzTR.520-023:2013 “Yog'-moy mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida”gi O'zR Umumiy texnik reglamentida belgilangan meyorlardan oshmasligi kerak.

**O'simlik moylarini nazorat qilish usullari**

1. Namuna tanlash usullari	GOST 5471 yoki O'zDSt 1201 boyicha
2. Hidi va tiniqligini aniqlash	GOST 5472 yoki O'zDSt 1198 boyicha
3. Ta'mini aniqlash	Organoleptic usulda
4. Yod sonini aniqlash	GOST 5475 yoki O'zDSt 1202 boyicha
5. Kislotasi sonini aniqlash	GOST 31933 yoki O'zDSt 1203 boyicha
6. Moyning rangini o'lchash usuli	GOST 5477 yoki O'zDSt 1199 boyicha
7. Sovunlanmaydigan moddalar miqdorini aniqlash usuli	GOST 5479 yoki O'zDSt 1194 boy'icha
8. Sovun mavjudligi uchun sifat ko'rsatkichi aniqlash	GOST 5480 yoki O'zDSt 1195 boy'icha
9. Yog' bo'limgan aralashmalarning massaviy ulushi (vazndagi cho'kma)	GOST 5481 yoki O'zDSt 1197 boy'icha

aniqlash		
10. Moyning uchqunlanish haroratini aniqlash	GOST 9287 yoki O'zDSt 1196 boy'icha	
11. Namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushini aniqlash	GOST 11812 yoki O'zDSt 1193 boy'icha	
12. Perekis sonini aniqlash	GOST 26593 yoki O'zDSt 1200 boy'icha	
13. Toksik elementlar miqdorini aniqlash GOST 26927, GOST 26928, GOST 26930, GOST 26931, GOST 26932, GOST 26933, GOST 30178, GOST 31628 boy'icha	GOST 26929 boy'icha	
Toksik elementlarni aniqlash uchun mineralizatsiyalash. Namuna tayyorlash	GOST 30711 boy'icha	
14. Aflotoksin V <sub>1</sub> ni aniqlash	GOST 30711 boy'icha	
15. Pestitsidlar va radionuklidlarni aniqlash o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan usullar boyicha		
16. Moy tarkibida erituvchi (benzin) borligini aniqlash (sifat ko'rsatkichi)	O'zDSt 816 llova «S»	
17. Tarkibida fosfor bo'lган moddalarning massaviy ulushi	GOST 7824 yoki GOST 31753 boyicha	
18. Anizidin sonini aniqlash	GOST 31756 boyicha	

#### **Qadoqlangan, rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan moy.**

Aniq moy turining amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga mos keladigan PET butilkalarga qadoqlangan rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan (press va ekstraksiya usulida olingan) va dezodoratsiyalanmagan (press usulida olingan) moylar, hamda o'simlik moylarining aralashmalari tayyor mahsulot hisoblanadi.

Qadoqlangan ko'rinishda chiqariladigan rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan moy, sifat ko'rsatkichlari boyicha, qadoqlashda xom ashyo sifatida ishlatiladigan dezodoratsiyalangan moyning sifat ko'rsatkichlari bilan bir xil.

#### **8-MA'RUDA.**

### **Salomas katalizator va vodorod uchun texnikaviy talablar**

**Margarin sanoati uchun rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan salomas (O'zDSt 2827:2014)**

**Reja.** Salomasning turlari, organaleptik ko'rsatkichlari va talablari. Katalizator turlari. Texnik vodorod ko'rsatkichi.

Rafinatsiyalangan dezodoratsiyalangan salomas margarin, non qandolatr maxsulotlari pishiriqlarda ishlatiladigan yog'larni ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi.

Boshlang'ich xomashyo va qo'llanilishiga ko'ra salomas 1-jadvalda ko'rsatilgan markalarga bo'linadi.

1-jadval

Markasi	Salomasning qo'llanilishi	OKP kodi
1	O'simlik yog'laridan olingan, margarine maxsulotlari uchun salomas	91 45 11 11 99
2	O'simlik va hayvon yog'lari aralashmasidan olingan, margarin maxsulotlari uchun salomas	91 45 1112 99
3	Qandolat maxsulotlari uchun salomas	91 45 11 13 99

Organaleptik ko'rsatkichlariga ko'ra salomas 2-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

2-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Salomas tavsifi		
	1-marka	2-marka	3-marka
Hidi va ta'mi	Xidsiz va ta'msiz		
15 dan 20 °Cgacha xaroratdagi rangi	Och sariq rangdan to'q emas		Och jigarrangdan to'q emas

Eslatma: paxta va soya moylaridan ishlab chiqarilgan salomaslar kulrang tusga ega bo'lishi mumkin.

Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga ko'ra salomas 3-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

3-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Salomas tavsifi		
	1-marka	2-marka	3-marka
1	2	3	4
Kislota soni, mg KOH\g, ko'p emas	0,5	0,5	0,5
Namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushi mg\kg, ko'p emas	0,10	0,10	0,10
Nikelning massaviy ulushi mg\kg ko'p emas	0,7	0,7	0,7
Sovun (sifat namunasi)	Mavjud emas		
Erish harorati °C	31-34	32-36	35-37
Qotish harorati, °C kam emas	-	-	29
15°C haroratdagi qattiqligi, g\sm	160-320	160-320	550-750
20 °C haroratdagi qattiq triglitseridlarning massaviy ulushi, %	29-37	29-40	Meyorlan-maydi
Pereksoni, mmol\kg,ko'p emas	10	10	10

1- va 2-markali salomasni erish harorati 33-34 °C va qattiqligi 200g/sm dan past bo'lмаган ravishda ishlab chiqarish mumkin.

Buterbrod margarinlarini ishlab chiuqarish uchun 1-markali salomasni quyidagi ko'rsatkichlar bilan ishlab chiqarish mumkin.

- erish harorati 34 dan 36°C gacha va qattiqligi 350dan 450g/sm gacha;

-erish harorati 40 dan 63°C gacha va qattiqligi, 300dan 500g/sm gacha va kislota soni 3 mg/KOH gacha;

Istemolchi bilan kelishilgan xolda, kungaboqar, soya yog'larini toyintirish bilanolangan va ularning paxta yog'i, palma yog'i bilan aqrashmasidan tayyorlangan 3markali salomasni 36-38 °C harorati bilanham ishlab chiqarishga ruxsat etiladi.

## KATALIZATOR

**Texnik vodorod  
(GOST 3022-80)**

Vodorod-rangsiz tez yonuvchi hidga ega bo'lмаган gaz. Narmal sharoitda zichligi 0,09 kg/m<sup>3</sup>; havodagi zichligi -0,07 kg/m<sup>3</sup>. Texnik vodorod siqilgan va siqilmagan xolda 2 markada ishlab chiqariladi.

-A marka-

-B marka

Texnik vodorod fizik-kimyoviy korsatkichlari 4-jadvalda ko'rsatilgan talablarga mos bo'lishi kerak.

4-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Markalar uchun meyor	
	A	B
Quruq gaz dagi vodorodning hajmiy ulushi,%, kam emas.	99,99	99,95
Umumiy azot va kislarodning hajmiy nisbati,% ko'p emas	0,01	0,05
20°C 101,3 kPa (760 mm.sim.ust) da Suv parining massaviy konsentratsiyasi, g/sm <sup>3</sup> , ko'p emas:		
a)quvur o'tkazgichda	0,5	0,5
b)bosm ostidagi ballonlarda	0,2	0,2

Texnik vodorod markalari siqilgan va siqilmagan xolda ishlab chiqariladi.

Maxsulot nomi	OKP kodi
21 14 20	Texnik vodorod
21 14 21	Siqilgan texnik vodorod
21 14 22	Siqilmagan texnik vodorod
21 14 21 010003	Siqilgan A markali texnik vodorod
21 14 21 02 00 00	Siqilmagan A markali texnik vodorod
21 14 22 01 00 09	Siqilgan B markali texnik vodorod
21 14 22 02 00 06	Siqilmagan B markali texnik vodorod

**9-MA'RUAZ. MARGARIN VA MAYONEZ MAXSULOTLARI UCHUN  
TEXNIKAVIY TALABLAR**

**Reja.** Margarin turlari va texnikaviy talablari. Margarin organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Mayonez turlari va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. xavsizlik ko'rsatkichlari va mikrobiologik ko'rsatkichlari

**Margarin (TSh 86-45:2013)**

Margarin qandolatchilik non-bulka va pishiriqlar tayyorlash uchun qo'llaniladi.margarin ushbu texnikaviy talablarga mos, o'rnatilgan tartibda , tasdiqlangan texnalogik reglament va retsepturaga asosan, margarine ishlab chiqarishdagi sanitary gigenik qoida talablariga riosa qilgan xolda ishlab chiqarilishi shart.

Margarin qo'llanilishiga ko'ra 1-jadvalda ko'rsatilgan marka va guruxlarga bo'linadi

1-jadval

Margarin markasi	Margarin guruhining nomi	OKP kodi
Qattiq (QM)	Parxez guruhi	
Yumshoq (YM)	Buterbrod guruhi	91 42 10
Suyuq (SM)	oshxona guruhi sutsiz guruhi	

Izoh: (QM)-qattiq margarine non-bulka,pishiriqlar pishirishda qandolatchilik sanoatida va uy sharoitida pishiriqlar pishirish uchun qo'llaniladi.

(YM)- Yumshoq margarine pishiriqlar, non bulka va qandolat maxsulotlarini tayyorlash uchun, shuningdek uy sharoitida pishiriqlar pishirish va umumiyl ovqatlanish tarmoqlarida qo'llaniladi.

(SM)- Suyuq margarine uy sharoitida maxsulotlarni qovurish va pishirish va umumiyl ovqatlanish tarmoqlarida, shunin gdek oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoatida qo'llaniladi.

Margarine turli assaortiment nomlarida tasdiqlangan retsepyuraga muvofiq ishlab chiqariladi.aniq nomdagagi margarine uchun retseptura korxonada saqlanadi va ishlab chiqaruvchining xususiy mulki hisoblanadi.

Parxez guruxi margarinlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi bilan kelishilgan xretseptura asosida ishlab chiqariladi.

Margarin organoleptik ko'rsatkichlarga ko'ra 2-jadvalda ko'rsatilgan talablarga javob berishi kerak.

2-jadval

Guruhi nomi	Hidi va ta'mi	(20+2°C haroratdagi konsistensiyasi)	Rangi
Parxez guruhi	Hidi va ta'mi toza, ma'lum nomdagagi margarine retsepturasiga asosan qo'shilgan aromatik va ta'm beruvchi qo'shimchalar xidi va ta'miga xos. Begona hid va ta'mlar bo'lishi mumkin emas.	QM uchun tez eruvchan, plastic, bir xil tarkibli. Kesilganda yuza qismi yaltiroq va quruq ko'rinishda	Och sariq rangdan, sariqgacha, butun massasi boyicha bir xil tarkibli
Buterbrod guruhi	Bu guruxh ko'rsatkichlari ham yuqoridagidek	YM uchun plastic, yumshoq oson surkaluvchan, bir xil tarkibli, kesilgandagi yuza qismi yaltiroq yoki yarim yaltiroq	Och sariq rangdan, sariqgacha, butun massasi boyicha bir xil tarkibli
Oshxona guruhi	Bu guruxh ko'rsatkichlari ham yuqoridagidek	QM uchun plastic, zich, bir xil tarkibli; qadoqlanmagan margarine uchun surkaluvchan konsistensiyasi yaroqsizlik omili xisoblanmaydi. Kesib ko'rilmaga yuza qismi yaltiroq, yarim yaltiroq yoki xira quruq ko'rinishda. YM uchun tez eruvchan, plastic, bir xil tarkibli, kesib ko'rilmaga yaltiroq yoki yarim yaltiroq*	Bu guruxh ko'rsatkichlari ham yuqoridagidek

Sutsiz guruhi	Bu guruh ko'rsatkichlari ham yuqoridagidek	QM uchun plastik, zich, bir xil tarkibli. Biroz surkaluvchan konsistensiysi yaroqsizlik omili xisoblanmaydi. Kesib ko'rulganda yuza qismi yaltiroq, yarim yaltiroq, quruq ko'rinishdli. SM uchun bir xil tarkibli, siljuvchan	Oq rangdan och sariq ranggacha, butun massasi boyicha bir xil rang bo'lmasligi yaroqsizlik omili xisoblanmaydi. Paxta, soya, raps, palma yog'i va ulardan olingan salomaslar qo'llanilganda och kulrang bo'lishiga ruxsat etiladi.
---------------	--	---	--

\*yumshoq margarinning konsistensiysi  $10+2^{\circ}\text{C}$  haroratda aniqlaniladi.

Margarin fizik-kimyoviy ko'rsatkichiga ko'ra 3-jadvalda ko'rsatilgan talablarga javob berishi kerak.

3 –jadval

Korsatkich nomi	Meyorlari					
	Parvez guruhi	Buterbrod guruhi	Oshxona guruhi		Sutsiz guruhi	
	QM	YM	QM	Ym	QM	SM
Yog'ning massaviy ulushi, %	82dan kam emas	62-82 oralig'ida	62-82 oralig'ida		82,5 dan kam emas	
Namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushi, %	17dan ko'p emas	17-37 oralig'ida	17-37 oralig'ida		16,5 dan ko'p emas	
Margarindan ajratib olingan yog'ning erish xarorati, $^{\circ}\text{C}$	27-32	25-32	27-32	25-32	27-32	
Tuzning massaviy ulushi, %, oralig'ida	0,3-0,5	0-0,5	0,3-0,7		0-0,5	
Margarinning kislota soni, Kettosorfera boyicha, ko'p emas	2,5	2,5	2,5		2,5	

Izoh: tarkibida tuz bo'limgan buterbrod guruhi margarinining namligi va uchuvchan moddalarning massaviy ulushi 17,5-37-5% dan yuqori bo'lmasligi kerak.

Tarkibida tuz bo'limgan sutsiz guruhi margarinining namligi va uchuvchan moddalarning massaviy ulushi 17,0% dan yuqori bo'lmasligi kerak.

Savdo tarmog'i uchun margarin vitaminlar qo'shilgan va qo'shilmagan xolda ishlab chiqariladi. Aniq nomdag'i margarinning retsepturasi asosan qattiq o'simlik eterifikatsiyalangan yog'lar o'rniga sariyog', palma yadroli yog', palma stearini qo'shishga ruxsat etiladi. Margarinning oziqaviy va energetik qiymati aniq nomli margarinning retsepturasida ko'rsatilishi kerak. Yuklanayotgandagi margarinning xarorati uning yaxshi saqlanishini taminlash uchun istemolchi bilan o'zaro kelishilgan xolda o'rnatalishi yoki  $10^{\circ}\text{C}$  bo'lishi kerak.

### Mayonez (O'zDSt 2901:2014)

Moyonez-rafinatsiyalangan, dezodoratsiyalangan o'simlik yog'lari, suv tuxum, qayta ishlangan sut maxsulotlari, oziqaviy qo'shimchalar ingredientlarni qo'shib yoki qo'shmasdan tayyorlanadi.

Mayonez quyidagi turlarga bo'linadi:

Turning nomi	OKP kodi
Yuqori kaloriyali	91 43 11
O'rta kaloriyali	91 43 12
Past kaloriyali	91 43 13

Mayonez tasdiqlangan retsepturaga asosan turli assortimen nomlariga mos ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarishda standart talabiga mos (**O'zDSt 2901:2014**), o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan texnologik yo'riqnomha, retsepturaga asosan, sanitary-bakteriologik nazorat qilish qoidalariga amal qilgan xolda bo'lishi kerak.

Orgonoliptik ko'rsatkichlari boyicha mayonezlar 5-jadvalda ko'rsatilgan talablarga mos bo'lishi kerak.

5-jadval

Ko'rsatkich nomi	Mayonez turning tavsifi
Tashqi ko'rinishi, konsistensiyasi	Havo sharchalariga ega, qaymoqsimon, yaxshi aralashgan mahsulot. Aniq nomli mayonez uchun retsepturaga mos qo'shilayotgan ziravorlarning zarrachalari, qo'shimchalarining zarrachalari, xantaldan nuqtaviy xollar bo'ladi.
Xidi va ta'mi	Hidi va ta'mi toza, aniq nomli mayonezning retsepturasiga mos qo'shilgan aromatic va ta'm beruvchi qo'shimchalarining hidi va ta'miga xos. Begona xid va ta'mlar bo'lishiga yo'l qoyilmaydi.
Rangi	Aniq nomli mayonez uchun retsepturaga mos boshlang'ich xom ashy ova oziqaviy qo'shimchalar tusiga ega, butun massasi boyicha oq yoki sarg'ish.

Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari boyicha mayonezlar 6-jadval talabiga mos kelishi kerak.

6-jadval

Ko'rsatkich nomi	Meyorlari		
	Yuqori kaloriyali	O'rta koloriyali	Past koloriyali
Yog'ning massaviy ulushi, %	55 dan ko'p	40 dan 55 gacha	40 dan kam
Namlikning massaviy ulushi %, ko'p emas	25	52	60
Limon yoki sirka kislotasiga qayta xisoblangan kislotaliligi, foiz, ko'p emas		1,0	
Emulsiyaning mustaxkamligi, parchalanmagan emulsiya miqdori	98	98	97

Mayonezdagi xavsizlik ko'rsatkichlari va mikrobiologik ko'rsatkichlari miqdori 7-jadvalda belgilangan meyorlardan oshmasligi kerak.

7-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Meyor
pH	4,0 dan 4,7 gacha
Effektiv qovushqoqlik, Pa*c (3 c <sup>-1</sup> tezlanishda )	5,0 dan 20,0 gacha
Osh tuzining massaviy ulushi, %	1,0 dan 1,5 gacha
Sorbsion kislotaning massaviy ulushi, %	0,06 dan 0,1 gacha

## 10-MA'RUZA. YOG' KISLOTALARI VA GLITSERIN UCHUN TEXNIKAVIY TALABLAR

**Reja.** Distillangan yog' kislotalari turlari, ko'rsatkichlari va qo'llanilishi. Qabul qilish qoidalari. Transportda tashish va saqlash. Distillangan glitserin organoleptik va fizik ko'rsatkichlari.

### **Distillangan yog' kislotalari**

O'zDSt 2776:2013 Paxta soapstogining yog' kislotalari talablariga javob beruvchi, paxta moyini rafinatsiyalash jarayonida xosil bo'lgan paxta soapstogining distillangan yog' kislotalari tayyor mahsulot hisoblanadi.

Xom yog' kislotalari "Komsomolets" liniyasida distillyatsiya qilinadi.

O'zining fizik-kimyoviy va organoleptik ko'rsatkichlari boyicha paxta soapstoki distillyatsiyalangan yog' kislotalari 1-jadvalga keltirilgan talablarga mos bo'lishi kerak.

1-jadval

Ko'rsatkichlar nomi	Tavsif va meyorlar	
	Distillangan yog' kislotalari	
20°S haroratda qotgan holatdagi rangi, to'q emas Hidi	To'q sariq	
Kislota soni, mg KOH/g, kam emas	Yog' kislotaning kuchsiz o'ziga xos hidi	195.0
Namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushi, %, ko'p emas		0.3
Sovunlanmaydigan moddalarning massaviy ulushi, %, ko'p emas		2.0
Yog' kislotalarining qotish harorati (titr), °S, kam emas		32
Sulfat kislota (sifat namunasi)	Mavjud emas	

**Izoh:** Distillangan yog' kislotalarini yuqori namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushi 1% gacha bo'lgan miqdorda yetkazib berishga ruxsat beriladi. Ushbu holatda yuqori namlikdagi yog' kislota miqdori standartda o'rnatilgan namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushi bilan hisoblanadi. Ortiqcha namlik to'lovdan ozod etiladi.

### **Distillangan yog' kislotalarining qo'llanilishi**

Paxta soapstoki distillangan yog' kislotalari quyidagi ishlab chiqarishlarda qo'llaniladi:

- Xo'jalik sovuni ishlab chiqarishda
- Lok-boyoq xom ashyolari ishlab chiqarishda
- Rezina-texnika ishlab chiqarishda
- Polistirol plastmassa buyumlari ishlab chiqarishda

### **Joylash**

Paxta soapstoki yog' kislotalari yopiq, qopqoq va isitish uchun moslamaga ega, kislotaga chidamlili plitka bilan qoplangan yoki GOST 5632 boyicha yog' kislotalariga chidamlili zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan bakkarda saqlanishi kerak.

### **Tamg'alash**

Tamg'alash shtamp bilan tipografik, litografik usullarda qoyiladi.

Xar bir paxta soapstoki yog' kislotalari to'piga yuk hujjati yoki quyidagilar ko'rsatilgan yorliq biriktiriladi:

- ishlab chiqaruvchi korxona nomi, tovar belgisi, manzili;
- mahsulot nomi;
- ishlab chiqarilgan sanasi (oy, yil);
- to'p raqami;
- to'p nettosining massasi (kg);
- sifat ko'rsatkichlari;
- mahsulot standartining belgisi;

- saqlash muddati (oy, yil);
- saqlash sharoiti;
- O'zbekiston Respublikasi hududida sotilganda “O'zbekistonda ishlab chiqarilgan” va eksportga sotilganda “Made in Uzbekistan” degan yozuv.

Transport tarasini tamg'alash yon tomonlarning biriga quyidagilar ko'rsatilgan trafaret shtamp yordamida yoki yorliq yopishtirish bilan amalga oshiriladi:

- ishlab chiqaruvchi korxona nomi, tovar belgisi, manzili;
- mahsulot nomi;
- ishlab chiqarilgan sanasi (oy, yil);
- to'p nettosining massasi (kg);
- sisterna raqami;
- jo'natish sanasi (oy, yil);
- to'p raqami;
- sifat ko'rsatkichlari;
- mahsulot standartining belgisi;
- saqlash muddati (oy, yil);
- saqlash sharoiti;
- O'zbekiston Respublikasi hududida sotilganda “O'zbekistonda ishlab chiqarilgan” va eksportga sotilganda “Made in Uzbekistan” degan yozuv.

Paxta soapstoki yog' kislotalarining transport markalash GOST 14192 boyicha “Yong'indan saqlansin”, “Namlidkan saqlansin” manipulyatsiya belgilarini qoyish bilan amalga oshiriladi.

### **Qabul qilish qoidalari**

Distillangan paxta soapstoki yog' kislotalarining xar bir to'pi qabul qilish-topshirish sinovlaridan o'tkaziladi.

Qabul qilish-topshirishda distillangan paxta soapstoki yog' kislotalari 1-jadvaldagি ko'rsatkichlar boyicha, qadoqlash va tamg'alashga tekshiruvdan o'tkaziladi

Ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan chiqarilgan distillangan paxta soapstoki yog' kislotalarini texnik nazorat bo'limi yoki ishlab chiqarish laboratoriysi qabul qilishi kerak.

Bir vaqtida jo'natish – qabul qilishga mo'ljallangan va belgilangan shakldagi sifati haqidagi bir hujjat bilan rasmiylashtirilgan paxta soapstoki DYK miqdori bir to'p xisoblanadi. Paxta soapstoki yog' kislotalari temir yo'l yoki avtomobil sisternalarida jo'natilganda har bir sisterna bir to'p deb qabul qilinadi

“Sovunlanmaydigan moddalarning massaviy ulushi” ko'rsatkichi ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan oyda bir marotaba o'tkaziladigan davriy sinovlar asosida kafolatlanadi.

Toksik elementlar miqdorini aniqlash akkreditatsiyalangan laboratoriyalarda davriy ravishda, biroq yarim yilda kamida bir marotaba amalga oshiriladi.

Paxta soapstoki yog' kislotalarining sifatini tasdiqlovchi jo'natish hujjatida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- ishlab chiqaruvchi korxona nomi, tovar belgisi, manzili;
- mahsulot nomi;
- to'p miqdori (kg);
- jo'natish sanasi (oy, yil);
- saqlash muddati (oy, yil);
- sifat ko'rsatkichlari;
- mahsulot standartining belgisi.

Iste'molchi o'ziga kelib tushayotgan distillangan paxta soapstoki yog' kislotalarining ko'rsatkichlarini O'zDSt 2776:2013 talablariga mosliligini tekshirish huquqiga ega.

Sifat ko'rsatkichlarning biri boyicha qoniqarsiz sinov natijalari olinganda, yog' kislotalarini tushirish bilan bir vaqtida olingan namuna boyicha qayta sinov o'tkaziladi. Sinov

natijalari ushbu to'pning ko'rsatkichlari uchun tugal hisoblanadi.

Paxta soapstoki yog' kislotalari(DYK)ning sertifikatlashtirish sinovlari O'zDSt 2776:2013 barcha talablari boyicha akkreditatsiyalangan laboratoriyalarda O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish tizimining meyoriy hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

### Nazorat usullari

- |   |   |
|---|---|
| 1. Namuna olish usullari  | - GOST 29039 boyicha                    |
| 2. Hidini aniqlash  | - GOST 29039 boyicha                    |
| 3. Rangini aniqlash   | - ko'z yordamida                        |
| 4. Kislota sonini aniqlash  | - GOST 31933-2012 boyicha               |
| 5. Yog' kislotalarining qotish haroratini aniqlash  | - GOST 790 boyicha                      |
| 6. Namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushini aniqlash  | - GOST 11812 boyicha                    |
| 7. Sovunlanmaydigan moddalarning massaviy ulushini aniqlash   | - GOST 8285 boyicha                     |
| 8. Sulfat kislota mavjudligini aniqlash (sifat namunasi)  | - O'zDSt 2776:2013 boyicha (Ilova "A"). |
| 9. Xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash O'zR Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan usullar boyicha |   |

### Transportda tashish va saqlash

Paxta soapstogining distillangan yog' kislotalari (DYK) GOST 10674 boyicha temir yo'l sisternalarida yoki GOST 9218 boyicha zich berkitiladigan lyukli avtosisternalarda ushbu transport vositasiga belgilangan qoidalariga rioya qilgan holda tashiladi.

Sisterna va avtosisterna distillangan yog' kislotalari bilan to'ldirishdan oldin tekshiriladi. Ularda suv, iflos moddalar, hid bo'lishi mumkin emas. Paxta soapstoki yog' kislotalarini sisternaga quyishdan oldin yoki keyin trubalarni bug' bilan puflash ma'n qilinadi.

Paxta soapstoki yog' kislotalari iste'molchiga jo'natishdan oldin kislotaga chidamli plitkalar bilan qoplangan yoki GOST 5632 boyicha yog' kislotalariga chidamli zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan qopqoq va isitish uchun moslamaga ega yopiq bochkalarda saqlanadi.

Paxta soapstoki yog' kislotalari turlari boyicha alohida saqlanishi kerak.

### Ishlab chiqaruvchi kafolatlari

Ishlab chiqaruvchi O'zDSt 2776:2013 da belgilangan transportda tashish va saqlash sharoitlariga rioya qilingandagina, paxta soapstoki yog' kislotalarining ushbu standart talablariga mos kelishiga kafolat beradi.

Paxta soapstoki yog' kislotalarining saqlash muddati ishlab chiqarilgan kundan boshlab 12 oydan ko'p bo'lмаган muddatni tashkil etadi.

### Distillangan glitserin

#### (GLITSERIN DISTILLIROVANNIY GOST 6824-96)

Distillangan glitserin tabiiy yog' kislotalarini distillab olinadi. Distillangan glitserin farmokologiya yo'nalishida va yana oziq-ovqat, kosmetika hamda rivojlanayotgan soxalarda qo'llaniladi. Ishlatilishiga ko'ra distillangan glitserin quyidagi markalarga bo'linadi.

D-98-dinamit uchun

PK-94-farmokologiya yo'nalishida va yana oziq-ovqat kosmetika yo'nalishlarida qo'llaniladi.

T-94; T-88;- texnik

Orgonoleptik ko'rsatkichlariga ko'ra 2-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

2-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Markalar tavsifi			
	D-98;	PK-94;	T-94;	T-88;
Tiniqligi	Tiniq			
Hidi	100 $^{\circ}\text{C}$ haroratgacha qizdirilganda, glitseringa xos begona hidlarsiz.		15-20 $^{\circ}\text{C}$ haroratda glitseringa xos bo'limgan begona xidlarsiz.	

Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga ko'ra distilllangan glitserin 3-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

3-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Markalar uchun meyoriy ko'rsatkichlari			
	D-98;	PK-94;	T-94;	T-88;
Rang soni, mg J <sub>2</sub> /100 sm <sup>3</sup> , ko'p emas	5	0	5	10
nisbiy zichligi, $d$ , 20 $^{\circ}\text{C}$ haroratda shu haroratdagi suvgaga nisbatan, ko'p emas	1,2584	1,2481	1,2481	1,2322
20 $^{\circ}\text{C}$ haroratda zichligi $p$ , g/sm <sup>3</sup> , kam emas	1,255	1,244	1,244	-
0,1 mol/dm <sup>3</sup> HCl yoki KOH eritmasi bilan glitserin reaksiyasi, sm <sup>3</sup> ko'p emas.	1,5	1,5	1,5	1,5
Toza glitserinning massaviy ulushi, %, kam emas	98	94	94	88
Kulning massaviy ulushi, % ko'p emas	0,14	0,01	0,02	0,25
Sovunlanish koefsenti (murakkab efirlar), 1gr glitserin ml KOHda, ko'p emas	0,7	0,7	0,2	-
xloridlar	Izlari	Mayjud emas	izlari	-
Oltингugurt birikmalari (sulfatlar)	-	-	-	-
uglevodlar	Aniqlanmaydi.			

Eslatma: nisbiy zichlik,  $d$ , tayyor maxsulotni realizatsiya qilishdan oldin ishlab chiqaruvchi-tashkilot tomonidan aniqlaniladi.

20 $^{\circ}\text{C}$  da zichligi  $p, \text{g}/\text{sm}^3$  tayyor maxsulot realizatsiya qilinayotganda istemolchi talabiga binoan ishlab chiqaruvchi tominidan aniqlaniladi.

T-94 markali glitserin uchun kul miqdori istemolchi bilan kelishilgan xolda 0,14% dan oshmaganda sifatsizlik omili deb xisoblanmaydi.

D-98 markali glitserin uchun sovunlanish koefsenti 1,0 KOH/g gacha bo'lganda istemolchi bilan kelishilgan xolda sifatsizlik omili deb xisoblanmaydi.

T-94 markali glitserin uchun sovunlanish koefsenti istemolchi bilan kelishilgan xolda istesnio qilinadi, bu sifatsizlik omili xisoblanmaydi.

PK-94 markali glitserin uchun rang soni 1mg/sm<sup>3</sup> dan ko'p bo'limganda istemolchi bilan kelishilgan xolda sifatsizlik omili xisoblanmaydi.

Xayot xavsizligi, fuqarolar sog'lig'i va atrof-muxit ximoyasini ta'minlash maqsadida distellangan glitserin 4-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

4-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Markalar uchun meyoriy ko'rsatkichlari			
	D-98;	PK-94;	T-94;	T-88;
Akrolein va boshqa qayta tiklanuvchi moddalar	Mavjud emas			
Oqsil moddalar	Mavjud emas			
Temir	-	Mavjud emas	-	-
Qo'rg'oshining mayjudligi	-	5,0	-	-
Margimush	-	-	-	-

## 11-MA'RUDA. SOVUN VA YUVUVCHI VOSITALAR UCHUN TEXNIKAVIY TA'LABLAR

**Reja.** Qattiq xo'jalik sovuni turlari va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Pastasimon xo'jalik sovuni TSH va orgonoleptik hamda fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Qattiq atir sovun turlari va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari.

### Qattiq xo'jalik sovuni (O'zDSt 2833:2017)

Qattiq xo'jalik sovuni turli xil gazlamalarni yuvish uchun shuningdek sanoatda sanitariya-gigenik maqsadlarda foydalilanadi. qattiq xo'jalik sovuni standart talablarga mos, belgilangan tartibda tasdiqlangan texnalogik reglament yoki yo'riqnomha va texnik retseptura, bayonnomalar asosidaishlab chiqarilishio kerak.

Orgonoleptik ko'rsatkichlari boyicha qattiq xo'jalik sovuni 1-jadvalda ko'rsatilgan talablarga, shuningdek aniq turdag'i sovun uchun texnik bayonnomalarda ko'rsatilgan talablarga mos kelishi kerak.

1-jadval

Ko'rsatkichlar nomi	tavsiflari			
	72%-li	70%-li	65%li	60%li
Tashqi ko'rsatkichi	Sovun bo'laklari aniq turdag'i sovun uchun texnik bayonnomada ko'rsatilgan shaklga mos			
Konsistensiyasi	Sovun ushlab turilganda, qattiq			
Rangi	Aniq turdag'i sovun uchun texnik bayonnomaga mos			
Hidi	Aniq turdag'i sovun uchun texnik bayonnomaga mos			

Sovun yuzasidagi tez qurib ketadigan namlikning borligi yaroqsizlik omili hisoblanmaydi.

Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari boyicha sovun 2-jadvalgada ko'rsatilgan talablarga mos kelishi kerak.

2-jadval

Ko'rsatkichlar nomi	tavsiflari			
	72%-li	70%-li	65%li	60%li
1	2	3	4	5
Sifat soni (yog' kislotalarini bo'lakning 100g, nominal massasiga qayta xisoblangandagi massasi) g, kam emas	70,5	69,0	64,0	59,0
Bog'lanmagan uyuvchi ishqorning massaviy ulushi, %, bo'lakning shartli massasiga nisbatan, ko'p emas	0,15	0,15	0,20	0,20
Bog'lanmagan uyuvchi ishqorning	1,0	1,0	1,0	1,0

massaviy ulushi,%, bo'lakning shartli massasiga nisbatan, ko'p emas				
Sovunda ajratib olingan yog' kislotalarining qotish harorati, (titr), °C	36-42	35-42	35-42	35-42
Suvda erimaydigan aralshmalar massaviy ulushi, % bo'lakning shartli massasiga nisbatan, ko'p emas	0,30	0,40	0,40	0,50

"Sovunlanmaydigan organic moddalar vasovunlanmaydigan yog'larning massaviy ulushi" va "Ko'pikning boshlang'ich hajmi" ko'rsatkichlari ilovada keltirilgan.

"Yog' kislotalarining qotish harorati" ko'rsatkich meyorining quyi chegarasi retsepturaga ko'ra 15%-dan kam bo'lмаган sintetik yog' kislotalari qo'shilganda 72%, 70%li uchun 1°C va 65%, 60%-li sovun uchun 2 °C gacha pasayishi yaroqsizlik omili xisoblanmaydi.

60 %li sovunning sifat sonini korxonadan chiqish paytida 58,5 gacha kamayganligi yaroqsizlik omili xisoblanmaydi.

Uzoq saqlashga qoyilayotgan sovunda osh tuzining massaviy ulushi 0,5% dan kam bo'lmasligi kerak. (bo'lakning shartli massasiga nisbatan)

#### Pastasimon xo'jalik sovuni

(TSH 86-40:2007)

Mazkur texnikaviy shart yog' kislotasining natriyli tuzlari, neften kislotosi va suvdan n tashkul topagan maxsulotni o'zida taqdim qiluvchi pastasimon xo'jalik sovuniga taaluqli. Pastasimon xo'jalik sovuni xar xil gazlamalarni yuvishda, shuningdek sanitariya-gigena maqsadlarida sanoatda qo'llashga mo'ljallangan.pastasimon xo'jalik sovuni tarkibidagi yog' kislotalarining miqdoriga ko'ra quyidagi turlarda:-20%; 25%, 30%; 35%; 40%; 50%; ishlab chiqariladi.

Pastasimon xo'jalik sovuni orgonoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari boyicha 3-jadvalda ko'rsatilgan talablarga mos bo'lishi kerak.

3 -jadval

Ko'rsatkich nomi	Tavcifi va meyorlari					
	20%	25%	30%	35%	40%;	50%;
Yog' kislotalarining massaviy ulushi,%	20+1	25+1	30+1	35+1	40+1	50+1
Tashqi ko'rinishi va konsistensiyasi	Mazsimon pasta					
Rangi	Och jigarrangdan jigarranggacha					
Hidi	Spesifik sovunga xos, organic moddalar, taxir yog' va boshqa yoqimsiz xidlarga yo'l qoyilmaydi.					
Erkin oyuvchi kislotalarning massaviy ulushi, %, ortiq emas.	0,2					
Erkin natriy korbanatning massaviy ulushi, %, ortiq emas.	1,0					
Suvda erimaydigan aralashmalarining massaviy ulushi,% ortiq emas	0,5					
Ko'pikning boshlang'ich hajmi, sm <sup>3</sup> , kam emas	250					
Sovunlanmaydigan yog' va moddalarining massaviy ulushi,%, ortiq emas	2,0					

#### Qattiq atir sovun(GOST 28546-2014)

Atir sovun- tabiiy yog' kislotalarining (o'simlik moylari yoki hayvon yog'laridan olingan) yoki tabiiy va sintetik yog' kislotalarining natriyli tuzidan hamda qo'shimchalardan (efir moyi, rang pigmentlari) iborat bo'lishi mumkin. Atir sovun teri-sochni gigenik parvarishida hamda tozalashda, xolatini yaxshi saqlashda qo'llaniladi.

Sovun fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari va tarkibiga qo'shiladigan xomashyolar miqdoriga ko'ra quyidagi markalarga bo'linadi:

-“EKSTRA” atirsovuni –oliy navli xayvon yog'laridan kuydirib olingan va yuqori sifatli o'simlik moylari tabiiy yog' kislotalarining natriyli tuzi. Atirsovun tarkibida yog', dorivot o'tlar ekstrakti, vitaminlar, glitserin va xid beruvchi moddalar saqlashi mumkin.

-«DETSKOYE»-atirsovuni tarkibiga ko'ra xid va rang beruvchi moddalarsiz tabiiy yog' kislotalarining natriyli tuzi bo'lib, bolalar uchun mo'ljallangan moy, dorivor o'simliklar ekstrakti va vitaminlar, krem kabi qo'shimchalar bo'lishi mumkin.

-«KLASSICHESKOYE»-tarkibida tabiiy yog' kislotalarining natriyli tuzi yoki rang va xid beruvchi moddalarsiz bo'lishi mumkin Qo'shimchalardan: dorivor o'simliklar ekstrakti, vitaminlar bo'lishi mumkin.

-«SPETSIALNOYE»- gigienik parvarishda bundan tashqari tarkibiga qo'shimchalar qo'shish xisobiga Sovunga maxsus xususiyat beriladi. Tarkibida sintetik va tabiiy yog' kislotalarining natriyli tuzi bo'lib, quyidagi maxsus qo'shimchalarni saqlashi mumkin: oqlovchi, namunaviy qo'shimcha, triklozan, qarag'ay surtmasi, korbolov kislotosi, xina, yog'och smolasi (degot), va boshqalar.

Barcha turli nomlar bilan atalishi mumkin.

Atirsovun bo'lak, brus ko'rinishida va turli shaklda ishlab chiqariladi. Orgonoleptik ko'rsatkichlari boyicha 4-jadval ko'rsatilgan tavsiflarga mos bo'lishi kerak.

4-jadval

Ko'rsatkich nomlari	tavsifi
Tashqi ko'rinishi	Sirti tasvirli yoki tasvirsiz. Ishlab chiqaruvchi texnik xujjatiga mos spetsifik qo'shimcha qo'shishga ruxsat etiladi.
Shakli	Texnik xujjatlarga mos individual sovun nomiga mos shakl
Rangi	Texnik xujjatlarga mos individual sovun nomiga mos rang
Hidi	Texnik xujjatlarga mos individual sovun nomiga mos hid
Konsistensiyasi	Qo'l bilan tekganda qattiq

Sovun bo'lagi sirtidagi qirilish va bo'rtiqlarning mavjud bo'lishi maxsulot sifatini pasaytirmaydi. Ekstra va detskoye sovunlari uchun 10, klassicheskoye va spetsialnoye uchun 15 dan ko'p bo'limgan dog' nuqtalarga ruxsat etiladi.

Saqlash muddati tugaguncha sovun hidining sustlashishiga ruxsat etiladi.

Maxsus nomdag'i sovun texnik xujjatlariga ko'ra sovun bo'lagi yuzasida surat, maxsus chiziq, naqsh, ijodiytasvir muxri bo'lishiga ruxsat etiladi.

Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari 5-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

5-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Sovun markalari taxesifi			
	Ekstra	Detskoye (bolalar sovuni)	klassicheskoye	Spetsialnoye (maxsus)
Sifat soni, g, kam emas	72	78	74	74
Na <sub>2</sub> O dagi erkin korbanat sodaning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,22	0,20	0,15	0,22
Sovundan ajratib olingan yog' kislotosining qotish harorati (titr), °C	35-44			

Natriy xlorning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,7			
Ko'pikning boshlang'ich xajmi, sm <sup>3</sup> , kam emas	200	350	320	320

## **12-MA'RUZA. YOG'-MOY SANOATIDA QO'LLANILADIGAN YORDAMCHI MATERIALLAR UCHUN TEXNIKAVIY TALABLAR**

**Reja.** Texnik oyuvchi natriy fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Transportda tashish va saqlash. OU-A markali kukunsimon, oqartiruvchi, aktivlangan yog'och ko'miri (GOST 4453-74). Qadoqlash, tamg'alash, transportda tashish, saqlash va xavfsizlik talablari. Paxta tolali va dag'al aralashmali filtr mato GOST 332-91. Oziqaviy limon kislotasi. Texnik sulfat kislota.

### **Texnik oyuvchi natriy (GOST 2263)**

Paxta moyini rafinatsiyalashda neytrallovchi va ochartiruvchi agent sifatida oyuvchi natriy ishqorining xar hil markalari, asosan tarkibida simob bo'lмаган(asosan TD va RD) ishlatalidi.

Eritmaning konsentratsiyasi va uning sarfi dastlabki moy sifati va rafinatsiyalangan moyga qoyilgan talablar bilan aniqlanadi. Oyuvchi natriy ishqori zavodga qattiq holatda qoplarda va temir barabanlarda yoki 42-50% li suvli eritma ko'rinishida temir yo'l sisternalarida keltiriladi.

Texnik oyuvchi natriy ishqorining turli hil markalarini fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

Oyuvchi natriy ishqori oyuvchi modda hisoblanadi va GOST 12.1.007-76 boyicha xavflilikning 2-chi sinfining zaxarli moddalariga kiradi.

Inson terisiga tushganda kimyoviy kuyushga olib keladi, uzoq vaqt ta'sir etganda esa yara va ekzemaga olib keladi. Ko'z pardasiga kuchli ta'sir etadi. Oyuvchi natriy ishqorining ko'zga tushishi xavfli. Ishlab chiqarish binolarining ish zonalaridagi havoda oyuvchi natriy ishqori aerozolining ruhsat etilgan miqdori(PDK) - 0,5 mg/m<sup>3</sup>

3.2-jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi	Markalar uchun meyorlar			
		TD OKP 2132120200	RX		
			birinchi nav 2132210530	ikkinchi nav 2132210540	
1.	Tashqi ko'rinishi	Oq rangli erigan massa. Kuchsiz rangga ruxsat etiladi		Rangsiz yoki rangli eritma. Kristallanmagan cho'kmaga ruxsat etiladi.	
2.	Natriy gidroksidning massaviy ulushi, %, kam emas	94,0	45,5	43,0	
3.	Natriy karbonatning massaviy ulushi, %, ko'p emas	1,0	1,1	2,0	
4.	Natriy xlorning massaviy ulushi, %, ko'p emas	3,5	1,0	1,5	
5.	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub> ga qayta hisoblaganda temirning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,03	0,008	0,2	
6.	Alyuminiy va temir oksidlarining massaviy ulushlari yig'indisi, %, ko'p emas			Meyorlanmaydi	Meyorlanmaydi
7.	SiO <sub>2</sub> ga qayta hisoblaganda				Meyorlanmay-

	silikat kislotaning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,02	0,05	di
8.	Natriy sulfatning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,03	Meyorlanmaydi	
9.	Ca ga qayta hisoblaganda kalsiy va magniyning massaviy ulushlari yig'indisi, %, ko'p emas	0,01	Meyorlanmaydi	
10.	Natriy gipoxloridning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,01	Meyorlanmaydi	
11.	Pb ga qayta hisoblaganda H <sub>2</sub> S guruhidagi og'ir metallar-ning massaviy ulushlari yig'indisi, %, ko'p emas	0,01	Meyorlanmaydi	
12.	Simobning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,0005	Meyorlanmaydi	
13.	Misning massaviy ulushi, %, ko'p emas	Meyorlanmaydi	Meyorlanmaydi	

**Eslatma:**

1. Aralashmalarning meyorlari 100% mahsulot hisobida berilgan.

2. Natriy metali ishlab chiqarishda ishlataladigan qattiq mahsulotda silikat kislota 0,1%, kaliy 0,1% Ca ga qayta hisoblagandagi kalsiy va magniyning yig'indisi 0,03% dan ko'p bo'lmasligi lozim.

3. Istemolchi bilan kelishilgan holda barabanlarga qadoqlangan TDmarkali mahsulot uchun massa ulushi 0,3% dan ko'p bo'lmasligi temir mavjud bo'lgan qo'ng'ir rangli 2-3 mm qalinlikdagi yuza qatlami bo'lishiga ruhsat etiladi.

Ishlab chiqarish personali maxsus kiyim-bosh va shaxsiy himoya vositalari (paxtali matodan tayyorlangan kostyum, rezinali etik, rezinali qo'lqop, himoya ko'zoynagi, GOST 12.4.121-83 boyicha BKF markali filtrlovchi sanoat gaz niqobi) bilan ta'minlanishi lozim.

Havodagi oyuvchi natriy aerozolining konsetrasiyasini belgilangan PDK dan oshib ketmasligini ta'minlash uchun sanoat binolari so'ruvchi shamollatish tizimi bilan jihozlanishi lozim.

Ishqor eritmasi to'kilib ketganda to'kilgan joyni ko'p miqdordagi suv bilan yuvib zararsizlantiriladi.

Oyuvchi natriy ishqori to'p holida qabul qilinadi. Sifat to'g'risidagi hujjatda bitta rasmiylashtirilgan, sifat ko'rsatkishlari boyicha bir hil bo'lgan oyuvchi natriy ishqorlarining miqdori bitta to'p hisoblanadi.

Mahsulot temir yo'l yoki avtomobil sisternalarida yetkazib berilganda xar bir sisterna bitta to'p hisoblanadi.

**Transportda tashish va saqlash**

Texnik oyuvchi natriy ishqori temir yo'l, avtomobil, suv transportlari bilan usti yopiqtransport vositalarida qadoqlangan holda, hamda temir yo'l va avtomobil sisternalarida quylgan holda mazkur transport turiga amal qiladigan yuklarni tashish qoidalariga muvofiq tashiladi.

Mahsulot temir yo'l transporti bilan bochka, baraban, vagon yashiklarida yetkazib beriladi.

Bochka, baraban va yashiklarda qadoqlangan mahsulot GOST 2663-85, GOST 24957-81, GOST 21650-76, GOST 21140-88 boyicha paketlangan ko'rinishda GOST 9557-87 va GOST 26381-84 boyicha poddonlarda tashiladi.

Texnik oyuvchi natriy ishqorining eritmasi ishqorga chidamli materialdan tayyorlangan

yopiq sig’imlarda saqlanadi.

Qadoqlangan mahsulot isitilmaydigan omborxona binolarida saqlanadi.

Kafolati saqlash muddati - ishlab chiqarilgan kundan boshlab bir yil.

#### **OU-A markali kukunsimon, oqartiruvchi, aktivlangan yog’och ko’miri (GOST 4453-74)**

Aktivlangan ko’mir tarkibida begona aralashmalar mavjud bo’lmagan qora rangli mayda dispersli kukun hisoblanadi va yog’och ko’miri – hom ashyoga 800°C dan yuqori haroratda suv bug’i bilan ishlov berib olinadi

Vazifasiga qarab aktivlangan ko’mir to’rtta markada ishlab chiqariladi. Yog’ va moylarni tozalash uchun OU-A markali quruq ishqorli oqartiruvchi ko’mir ishlataladi.

Aktivlangan ko’mirning fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

Iste’molchilar bilan kelishgan holda 10% namlikdagi haqiqiy massasini hisobga olib quruq ishqorli ko’mirda namlik miqdorini 15% gacha bo’lishiga ruhsat etiladi.

Iste’molchilar bilan kelishgan holda ko’mirning aktivligi ko’rsatkichlar – metil ko’ki yoki melassalardan biri boyicha baholanadi.

Kukunsimon, oqartiruvchi, aktivlangan yog’och ko’miri to’plarda qabul qilinadi. Sifat to’g’risidagi bitta hujjat ilova qilingan, sifat ko’rsatkichlari boyich bir xil bo’lgan bir markadagi ko’mirning istalgan miqdori bir to’p sanaladi.

#### **Qadoqlash, tamg’alash, transportda tashish, saqlash va xavfsizlik talablari**

OU markali ko’mir GOST 2226-88 boyicha to’rt-besh qavatlari qog’oz qoplarga, GOST 17811-72 boyicha kimyo mahsulotlari uchun mo’ljallangan polietilen qoplarga hamda polietilen bilan laminatsiyalangan qog’oz qoplarga 20 kg dan ko’p bo’lmagan sof og’irlilikda qadoqlanadi.

Transport taralarini tamg’alash GOST 14192-96 talablariga mos ravishda quyidagi qo’shimcha belgilarni qo’yish bilan olib borilishi lozim:

- mahsulotning nomi va uning markasi;
- to’p raqami;
- ishlab chiqarilgan sanasi;
- amaldagi standart belgisi.

Aktivlangan oqartiruvchi yog’och ko’miri havo transportidan boshqa istalgan transport turi bilan usti yopiq transport vositalarida tashiladi. OU-A markali ko’mir uchun “Namlikdan saqlang” manipulyatsion belgisi qoyiladi. Aktivlangan oqartiruvchi yog’och ko’miri havfli yuklarga kirmaydi.

Aktivlangan ko’mir havo yog’inlari va yer osti suvlarining tushishidan himoyalangan, yopiq va toza omborlarda ishlab chiqaruvchi qadoqlarida saqlanadi.

Kafolati saqlash muddati ishlab chiqarilgan kundan boshlab - uch yil.

Aktivlangan ko’mir inson organizmi uchun zaharli xususiyatga ega emas, biroq inson organizmiga oson kiradigan changi kasalliklarga olib kelish mumkin. Ish binolari havosidagi aktivlangan ko’mir changining ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiyasi (PDK) – 10 mg/m<sup>3</sup>.

Aktivlangan oqartiruvchi ko’mir - qatlamdagi yonish harorati 195°C bo’lgan yonuvchan modda. Aktivlangan ko’mir changi havo bilan portlashga havfli aralashma hosil qiladi. Aerosuspenziya alangalanishining konsentratsiya chegarasi – 114-480 g/m<sup>3</sup>, aerosuspenziyaning o’z-o’zidan alangalanish harorati – 490 °C, cho’kkani ko’mir changining o’z-o’zidan alangalanish harorati 260 °C dan yuqori, portlashning maksimal bosimi – 800 kPa, kislородning portlashga xavfli minimal miqdori – 14% (halm boyicha). Aktivlangan ko’mir bilan ishlaganda F-62sh yoki U-2k turidagi changga qarshi respiratorlardan foydalanish lozim. Aktivlangan ko’mir to’kiladigan joy yong’inga qarshi xavfsizlik meyorlariga mos ravishda jixozlanishi: so’rib oladigan ventillyatsiya mavjud bo’lishi, ochiq olov manbalari bo’lmasliga va h.k. bo’lishi lozim. Ko’mir yonganda suv yoki ko’rik bilan o’chirilishi kerak. Yuklash-tushurish ishlarida GOST 12.3.009-76 talablariga rioya qilish lozim.

**Paxta tolali va dag’al aralashmali filtr mato GOST 332-91**

Paxta tolali va dag' al aralashmali filtr matosanoatning xar hil tarmoqlarida eritmalarini filtrlashda filtrllovchi material sifatida qo'llaniladi. Moyni filtrlash uchun asosan kengligi 84,5; 90; 100; 110; 118; 128; 140; 150; 160 bo'lgan "BF" filtrllovchi beltingi ishlataladi.

"BF" beltingni fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

Matolarda quyidagi tashqi ko'rinishdagi qo'pol nuqsonlarga yo'l qoyilmaydi:

1) matoning butunligini buzilishi (yirtiqlar, teshiklar, kesilgan joylar, so'kilgan, g'ijimlangan)

2) ikki va undan ortiq to'qima iplarni yopishib qolishi;

3) teshiklarni ko'rinaradigan yamog'i (o'rish ipining uzilishi, yomon ishlatalgan);

4) ikki va undan ortiq to'qima iplari oxirigacha to'qilmagan;

5) chetlarini buzilishi (chandilgan, tirishgan);

6) asos iplarini bitta diametr dan ko'p o'lchamlarga ajratib bo'lish;

7) GOST 332-91 standartida nazarda tutilmagan boshqa tolalardan to'qilgan aralash matolarning mavjudligi.

Matolar ip va momiqning uchidan tozalangan bo'lishi lozim. Standartning 1, 3, 7 p.p. da sanab o'tilgan dag'al, tashqi ko'rinishning biror joyining nuqsoni qirqib olinmaydi, balki nuqsonning uchi va oxiridagi chetiga "B" tamg'asi (shartli kesim) qayd etiladi. Matoning "B" tamg'asi qayd qilingan qismidagi uzunligi uning umumiyligi uzungiga kirmaydi, balki og'irlik boyicha laxtak sifatida hisoblanadi. Ushbu uzunlikda joylashgan nuqson nuqsonlarning umumiyligi miqdorining hisobiga kirmaydi.

O'ram kesigidan shartli qirqimgacha bo'lган masofa va shartli qirqimlar orasidagi masofa 6 m dan kam bo'lmasligi lozim. Shartli qirqimning uzunligi 0,5 m dan ko'p bo'lmasligi lozim. 40 m shartli uzunlik va 100 cm shartli kenglikdagi matoda shartli qirqimlarning soni uchtadan ko'p bo'lmasligi lozim.

100 m shartli uzunlik va 100 cm shartli kenglikdagi tashqi ko'rinishning umumiyligi nuqsonlari miqdori 20 tadan ko'p bo'lmasligi lozim.

3.3-jadvalda ko'rsatilgan o'lchamga ega xar bir nuqson nomi bitta nuqsonga tenglashtiriladi. Matoning haqiqiy uzunligi va kengligi shartliligidan farq qilsa ruxsat etiladigan nuqsonlar soni mos ravishda qayta sanaladi.

Mato qiyshaytirmsandan, osiltirib qoymasdan va chetlari bukilmasdan butun kengligi boyicha teng o'ramda o'raladi yoki to'plarda taxlanadi. O'ramda matoning bir nechta bo'laklarini o'rashga ruxsat etiladi.

### **Tamg'alash, qadoqlash, qabul qilish, transportda tashish va saqlash**

O'ramdagagi matoning har ikkala uchi, ishlab chiqargan korxona nomi va texnik nazoratchining raqami ko'rsatilgan holda, tamg'alanishi lozim. Tamg'ani matoning boylama kesimining uzun tomoniga, matoning qirrasi va kesilgan joydan 50 mm dan uzoq bo'limgan joyda joylashtirilishi kerak.

O'ram (bo'lak) oxirining tashqi tomoniga, tamg'adan tashqari, maxsus shtamp yordamida quyidagi qo'shimchalar ko'rsatiladi: matoning nomi va artikul raqami; matoning kengligi, cm; matoning uzunligi, m; o'ram raqami; o'ramdagagi bo'laklar miqdori; shartli kesmalar soni; ishlab chiqarilgan sanasi; GOST raqami.

Mato o'rami, ishlab chiqarish chiqindalaridan tayyorlangan bog'lash materiali bilan ikki joyidan o'rabi bog'langan yoki butun kengligi boyicha tikilgan va GOST 5530 boyicha o'rovchi mato yoki GOST 10354 boyicha polietilen plyonkadan tayyorlangan g'ilofda o'rabi qadoqlan bo'lishi lozim. Mahalliy tashuvlarda istemolchi bilan kelishilgan holda qadoqlamasdan tashishga ruxsat etiladi. Tashish vaqtida o'ramlar (bog'lamlar) gorizontallik holatda joylashishi lozim. Omchorxonalarda saqlanayotganda o'ramlar, suv va quyosh nurlari to'g'ridan to'g'ri tushishidan himoyalangan holatda, isitish asboblaridan kamida 1 m masofada, so'rilarda yoki tagliklarda gorizontallik holatda yotqizib qoyilgan bo'lishi lozim. Kafolatli saqlash muddati ishlab chiqarilgan kundan boshlab 12 oy.

Istemolchi tomonidan matoning tashqi ko'rinishi boyicha sifati tekshirilganda, "BF" matosi uchun, to'pdagi o'ramlardan 5%, kamida uchta o'ram, tanlab olinishiga ruxsat etiladi.

O’ramlarning xattoki bittasini tashqi ko’rinishi boyicha standart talablariga mos kelmasligi aniqlansa, to’pdagi xar bir rulonning tashqi ko’rinishi ko’zdan kechirib chiqiladi.

Nazorat usullari: namuna olish GOST 20566 boyicha;

- tashqi ko’rinishi boyicha tekshirish – ko’z bilan ko’rib;

- chiziqli o’lchamlari va sirt zichligini aniqlash - GOST 3811 boyicha;

- negiz va arqoq boyicha 10 cm dagi iplar sonini aniqlash - GOST 3812 boyicha;

- uzadigan va eziladigan yuklamani, hamda uzilishdagi cho’zilishni aniqlash - GOST 3813 boyicha;

- mato qalinligini aniqlash - GOST 12023 boyicha;

- havo o’tkazuvchanligini aniqlash - GOST 12088 boyicha;

- issiq havoda matoning kirishib ketishini aniqlash - GOST 20713 boyicha.

### **Oziqaviy limon kislotasiGOST 908-2004**

Oziqaviy limon kislotasi yog’-moy sanoatida moydagi sovun qoldiqlarini parchalash va yog’larni dezodoratsiyalashda metallsizlantrish uchun ishlataladi.

Limon kislotasi organoleptik ko’rsatkichlari boyicha quyidagi talablarga javob berishi kerak:

tuzilishi – sochiluvchan va quruq, ushlab ko’rganda yopishmaydigan;

ta’mi – nordon, begona ta’msiz;

tashqi ko’rinishi va rangi - rangsiz kristall yoki komoklarsiz oq kukun, 1-nav kislotalar uchun sariq tusga ruhsat etiladi;

hidi – kislotaning distillangan suvdagi  $20 \text{ g/dm}^3$  konsentratsiyali eritmasining hidi bo’lmasisligi kerak.

Limon kislotasining fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

### **Qabul qilish, qadoqlash, tamg’alash, transportda tashish va saqlash**

Limon kislotasi. sifat to’g’risidagi bir hujjat bilan rasmiylashtirilgan va bir sutkada tayyorlangan, bir navining istalgan miqdoridan iborat to’pi holida qabul qilinadi.

Limon kislota faqat qadoqlangan ko’rinishlarda ishlab chiqarilishi kerak. Agar limon kislota oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun ishlab chiqariladigan bo’lsa, sof og’irligi 10-40kg li qilib qadoqlanadi.

Limon kislotasini yirik idishlarga qadoqlash quyidagicha olib boriladi:

- GOST 8516-78 boyicha II toifadan past bo’lmagan vizkoza ip bilan tikilgan zig’ir-jut-kanopli matodan yoki GOST 19317-73 boyicha yarim zig’ir tolali mahsulotdan tayyorlangan sof og’irligi 40 kg dan ko’p bo’lmagan qoplarda;

- gofrilangan kartondan tayyorlangan qutilarda.

Qoplar yoki qutilar ichiga GOST 19360-74 boyicha 0,08 mm dan kam bo’lmagan polietilen to’shamal qoyilishi lozim. Polietilen to’shamal unga kislota quyilgandan keyin germetik yopib payvandlangan bo’lishi lozim. to’shamal qoplarni GOST 17308-88 boyichachiziqli zichligi 1,67 kteks yoki 2,5 kteks bo’lgan qo’sh ipli silliqlangan xar qanday toladan tayyorlangan bog’ich yoki boshqa qadoq sifatini yomonlashtirmaydigan bog’ich bilan bog’lashga ruxsat etiladi. Matoli tashqi qoplarining tepe choklari GOST 14961-85 boyicha zig’ir tolasi yoki qadoq sifatini yomonlashtirmaydigan boshqa iplar bilan mashina usulida tikilgan bo’lishi lozim. Choklarni GOST 17308-88 boyicha xar qanday toladan tayyorlangan bog’ich bilan yoki boshqa bog’ichlar bilan tikishga ruxsat etiladi.

Limon kislotasi tashish qoidalariga rioya qilgan holda barch transport turlari bilan tashiladi. Transport tarasi GOST 14192-96 boyicha “Namlidkan buziladi” manipulyatsion belgisi va quyidagi ilovalarni qoyib tamg’alanadi: ishlab chiqaruvchi korxona nomi va tovar belgisi, mahsulot nomi va uning navi, to’p raqami, ishlab chiqarilgan sanasi va standart belgisi.

Limon kislotani havosining nisbiy namligi 70% dan yuqoru bo’lmagan yopiq turdagilardan taxtadan yasalgan stellaj yoki paddonlarda saqlash kerak. Limon kislotani kafolatlangan saqlash muddati ishlab chiqarilgan sanasidan boshlab - 6 oy, gofrilangan karton qog’ozlarda pergament tagliklar qoyib qadoqlaganda esa - 3oy.

2-jadval

**Xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar tavsifi**

Xom-ashyo asosiy va yordamchi materiallar nomi va standart belgisi	Navi, markasi	Qo'llashdan oldin tekshirilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlar		Izoh yoki maxsus talablar
		Ko'rsatkichlar nomi, o'lchov birligi	Qiymati	
1	2	3	4	5
1. Oqlovchi tuproq (Amerika, Pokiston, Rossiya, Xitoy va boshqalar)		Sifat sertifikatiga muvofiq qabul qilinadi		
2. Oqartiruvchi, kukunsimon aktivlangan yog'och ko'miri, OU-A markali, (GOST 4453-74)		Tashqi ko'rinishi - Begona aralashmalarsiz qora rangli mayda dispers kukun Adsorbsion aktivligi, Moviy metilen yoki ko'k metilen boyicha, mg/g, kam To'q sariq metilen boyicha Melassa boyicha adsorbsion aktivligi, %, kam emas Kul miqdori, %, ko'p emas Namlik miqdori, %, ko'p emas Suvda eruvchan kul miqdori, %, ko'p emas pH suvli so'rish Maydalanish darajasi, 0,1 mm elakdag'i qoldiq miqdori %, ko'p emas Fe hisobidagi temir birikmalarining miqdori, %, ko'p emas Suvda eruvchan temir birikmalarining miqdori Quruq cho'kma, mg/l Qattiqlik, mg/ekv/l, ko'p emas Oksidlanishi Ishqoriyligi, mg/ekv/l Kalsiy oksid, mg/l Magniy oksid, mg/l Xloridlar, mg/l Temir va alyuminiy oksidlari Sulfatlar, mg/l Nitratlar	PDK - 4 mg/m <sup>3</sup>  225 meyorlanmaydi 100 10 10 2 meyorlanmaydi  5 0,2 mavjud emas 50 0,5-1 yo'q 0,4 10 1 2 yo'q 4 izlari	
3. Yumshatilgan suv yoki kondensat				

<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
4. Paxta tolali va dag'al aralashmali filtr matolar GOST 332-91	BF	<p>Cho'kkan zarrachalar miqdori,%, ko'p emas  Sirt yuzasi zichligi, g/m<sup>2</sup>  10 cm dagi iplar soni:  negiz boyicha  arqoq boyicha</p>	mavjud emas 930 ± 30  98 ± 2 58 ± 2	
	Oliy Birinchi	<p>50 x 200 mm daH(kgk) o'lchamdagি mato yo'llari yorilish yuklamasi, kam emas  negiz boyicha  arqoq boyicha  50 x 200 mm o'lchamli mato tasmasi uzulganda cho'zilishi,%  negiz boyicha  arqoq boyicha  BF matosining nuqsonlarini nomi  Umumiy murakkablikdagi bitta toladagi uzulish, cm  Bitta ipdagи sitilish, dona  Matobirorjoyiningqalinliginiuningqalinligiganisbatanikkibar avardanko'pbo'l maganmiqdordayo'g'onlashishi (yigirilmaganip,to'pbo'libiyig'ilibqolish, buralibqolish,tugunchahosilbo'lishi), dona  15 mm dan ko'p bo'l magan chuqurlikdagi mato chetlarining bog'lami, dona  Matoning butun kengligi boyicha bitta ipdagи oraliqlar, dona   Arqoq va negiz boyicha tugunlar, dona  Shartli kengligi, cm  Tashqi ko'rinish nuqsonlarining umumiy soni  <b>Organoleptik ko'rsatkichlari:</b>  1. Tashqi ko'rinishi va rangi – Rangsiz kristallar yoki qumoqsiz oq kukun  2. Ta'mi – Nordon, begona ta'mlarsiz </p>	280 (285) 167 (170)  45 dan ko'p emas 12 dan ko'p emas  15 1  3  10  1 10 100 20	
5. Oziqaviy limon kislotosi GOST 908-2004				

<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
		<p>3. Hidi - Hidsiz</p> <p>4. Strukturasi – Quruq va sochiluvchan, qo’lda ushlaganda yopishqoq emas</p> <p>5. Mexanik aralashmalar - Ruxsat etilmaydi</p> <p><b>Fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari:</b></p> <p>Limon kislotani identifikatsiyalash</p> <p>Monogidratga hisoblanganda limon kislotaning miqdori (<math>S_6N_8O_7 \cdot N_2O</math>), %, kam emas ko‘p emas</p> <p>Suvning massa ulushi, %, kam emas ko‘p emas</p> <p>Sulfatli kulning massa ulushi, % ko‘p emas</p> <p>Sulfatlarning massa ulushi, %, ko‘p emas</p> <p>Oksalatlarning massa ulushi, %, ko‘p emas</p> <p>Temir sianitga sinov</p> <p>Oson kuyuvchi moddalarga sinov</p> <p>Temirga sinov</p> <p>Toksik elementlar miqdori, mg/kg, ko‘p emas - qo‘rg‘oshin - margimush</p>	<p>Sinov o’tkazish</p> <p>99,5</p> <p>100,5</p> <p>7,5</p> <p>8,8</p> <p>0,05</p> <p>0,015</p> <p>0,01</p> <p>sinovga chidamli</p> <p>sinovga chidamli</p> <p>sinovga chidamli</p> <p>0,5</p> <p>0,7</p>	

## **Texnik sulfat kislota (GOST 2184-2013)**

Texnik sulfat kislota quyidagi turlarda bo'ladi: kontaktli (yaxshilangan va texnik), oleum (yaxshilangan va texnik) va qayta tiklangan.

Texnik sulfat kislota yog'-moy sanoatida yog' kislotalarini ishlab chiqishda yog'larni parchalash uchun xizmat qiladi. U o'g'it, sun'iy tola, kaprolaktam, titan IV oksidi, etil spiriti, anilinli boyoq va boshqa ko'plab mahsulotlarni ishlab chiqarishga ham mo'ljallangan.

Sulfat kislota fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari boyicha 3-jadvalda keltirilgan meyorlarga mos kelishi kerak.

### **Qabul qilish qoidalari**

Sulfat kislota to'p-to'p qabul qilinadi. Sifati boyicha bir hil ko'rsatkichga ega va sifat boyicha bitta hujjatga ega bo'lgan mahsulot miqdori to'p deb hisoblanadi. Mahsulotni sisterna yoki konteynerda jo'natishda 10 tadan ko'p bo'lmanan sisterna va konteyner to'p deb olinadi, yaxshilangan kontaktli va yaxshilangan oleum kislotalari uchun bitta sisterna yoki konteynerdan ko'p emas. Mahsulotni bochkalarida yetkazib berishda to'pning hajmi - 20 tonnadan ko'p emas. Sulfat kislotani o'tkazish quvuri orqali tashilganda, smenada ishlab chiqilgan mahsulot to'p sanaladi.

Sifat to'g'risidagi hujjat o'z ichida:

- ishlab chiqaruvchi korxona nomi, yuridik manzili va (yoki) tovar belgisi;
- mahsulotning nomi, uning ko'rinishi, markasi va navi;
- amaldagi standart belgisi;
- to'p raqami;
- sisterna, konteyner raqami;
- jo'natish sanasi;
- netto massasi;
- standart talablariga mahsulot sifatini mosligining tasdig'i yoki taxlil natijalari;
- saqlashning kafolatlangan muddati;
- texnik nazoratning shtampi yoki imzosi.

Davlat qabuli va ishlab chiqaruvchining texnik nazorati tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingan va ombordagi sig'imga quylgan sulfat kislota tayyor mahsulot sifatida qabul qilishga ruxsat beriladi.

Ishlab chiqaruvchining omboridagi sig'imida mavjud bo'lgan sulfat kislotaning sifat taxlili natijalari undan tashkil topgan barcha to'plar uchun tadbiq etishga ruxsat beriladi.

Sulfat kislotaning sifatini nazorat qilish uchun har bir sisterna, konteyner, rezervuardan yoki bochkalarining 5% dan biroq, 60 tadan kam bo'lgan to'pda uchtadan kam bo'lmanan bochkadan namuna olinadi.

Ko'rsatkichlarning biri boyicha qoniqarsiz sinov natijalari olinganda shu to'pdan ikki marta ko'p olingan (sisterna, konteyner va sig'imlar uchun) yoki ikki marta ko'proq tanlangan (bochkalar uchun) namuna boyicha qayta sinov o'tkaziladi. Qayta o'tkazilgan sinov natijalari butun to'p uchun tegishli hisoblanadi.

Qo'rg'oshin va nitrobirkalmalarni iste'molchi talabiga binoan ishlab chiqaruvchi aniqlaydi. Xlor, azot oksidlari va nitrobirkalmalarni har chorakda bir martadan kam bo'lmanan miqdorda aniqlash o'tkaziladi.

### **Joylash, tamg'alash, transortda tashish va saqlash**

Yaxshilangan sulfat kislotani kislotaga chidamli po'latdan tayyorlangan "Yaxshilangan sulfat kislota", "Xavfli", hamda qo'shimcha yozuv trafareti tushirilgan temir yo'l sisternalarida tashiladi. Iste'molchi bilan kelishgan xolda yaxshilangan sulfat kislotani GOST 380-2005 boyicha St 3 markali yoki zanglamaydigan po'latdan yasalgan kislota quvurlarida tashishga ruxsat beriladi.

1- va 2-navli texnik sulfat kislotalar va qayta tiklangan kislotalar GOST 6247-69 boyicha po'latli bochkalarida, po'latli konteyner hamda sulfat kislota sisternalarida tashiladi yoki iste'molchiga GOST 380-2005 boyicha St 3 markali po'latdan

tayyorlangan kislota quvuri orqali yetkaziladi.

Oleum qoplamlari yoki isitish qurilmasiga ega, “Oleum” yoki “Yaxshilangan oleum”, “Xavfli” trafareti hamda qo’shimcha yozuv trafareti tushirilgan jo’natuvchining maxsus oleum sisternalarida tashiladi. Oleum iste’molchiga 10X18N10T po’latdan tayyorlangan o’tkazish quvurlarida uzatishga ruxsat beriladi.

3-jadval

## Sulfat kislotaning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich nomlari	Sulfat kislota uchun meyor						Qayta tiklangan	
	yaxshilangan	Kontaktli		Oleum				
		texnik	1-nav	2-nav	yaxshilangan	texnik		
1	2	3	4	5	6	7		
1 H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> monogidratining massaviy ulushi, %	92,5-94,0	92,5 dan kam emas		Meyorlanmaydi		91 dam emas		
2 SO <sub>3</sub> erkin sulfat angidridning massaviy ulushi, %, kam emas	-	-	-	24	19	-		
3 Fe temirning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,006	0,02	0,1	0,006	Meyorlanmaydi	0,2		
4 Kuydirishdan keyin qolgan qoldiqning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,02	0,05	Meyor- lanmaydi	0,02	Meyorlanmaydi	0,4		
5 N <sub>2</sub> O <sub>3</sub> azot oksidining massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,00005	Meyorlanmaydi		0,0002	To je	0,01		
6 Nitrobirkimalarning massaviy ulushi, %, ko'p emas			Meyorlanmaydi			0,2		
7 As mishyakning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,00008	Meyorlanmaydi		0,00008	Meyorlanmaydi			
8 Cl xlorli birikmalarning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,0001			Meyorlanmaydi				
1	2	3	4	5	6	7		

9 Pb qo'rg'oshinning massaviy ulushi, %, ko'p emas	0,001	Meyorlanmaydi	0,0001	Meyorlanmaydi
10 Tiniqligi	Eritilmaganda tiniq		Meyorlanmaydi	
11 Solishtirma eritmaga qarab, rangi, ko'p emas	1	6		Meyorlanmaydi

**Eslatma:**

- 1 Iste'molchi bilan kelishgan xolda monogidratning massaviy ulushi 98,8% gacha bo'lган yaxshilangan va texnik sulfat kislotalarni yetkazib berishga ruxsat beriladi.
- 2 Iste'molchi talabiga binoan sulfat kislotada mis va selennenning massaviy ulushi meyorlanadi, mis uchun meyor 0,0005% dan ko'p emas, selen uchun – iste'molchi bilan kelishgan holda o'rnatilinadi.
- 3 Iste'molchi bilan kelishilgan xolda azot oksidlarining massaviy ulushi 0,005% dan ko'p bo'lмаган yaxshilangan oleum va yaxshilangan kontaktli sulfat kislotani ishlab chiqarishga ruxsat beriladi.
- 4 Iste'molchi bilan kelishgan xolda 15-apreldan 1-noyabrgacha bo'lган davr mobaynida yaxshilangan kontaktli sulfat kislotadagi temirning massaviy ulushi 0,007% dan ko'p bo'lmasligiga ruxsat beriladi.
- 5 Xo'1 kataliz qurilmalarida va xom ashyo sifatida neftkimyo ishlab chiqrarish soxasning nordon gudronni ishlattiladigan qurilmalarda ishlab chiqilgan 1-navli texnik kontaktli sulfat kislotaning rangi pushtidan binafsha ranggacha bo'lishiga ruxsat beriladi.

## 13-MA'RUZA. YOG'-MOY SANOATIDA QO'LLANILADIGAN YOG'LI HOM ASHYOLAR UCHUN TEXNIKAVIY TALABLAR

**Reja.** Palma moyi fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Turli xil yog'li hom ashyolarga qoyiladigan talablar.

### Palma moyi

**(maslo palmovoye rafinirovannoye dezodorirovannoye dlya pishevoy promishlennostiy GOST 31647-2012)**

Ko'rsatkich nomlari	Palma moyi tavsifi
Hidi va ta'mi	Toza, palma moyiga xos. Begona xid va ta'm bo'lishiga ruxsat etilmadti.
20 °C haroratda konsistensiyasi	Yarim qattiq, bir jinsli bo'limgan;
Qotqan xolatdagi rangi	bir xil, butun massasi boyicha oq rangdan och sariq ranggacha
Tiniqligi	Eriq xolatda tiniq;

Palma moyi uchun fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari 20-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

1-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Ko'rsatkichlari
Lavibondda 5 1/4 rang ko'rsatkichi, ko'p emas	3,0 qizil
Yog'ning massaviy ulushi, %, kam emas	99,9
Namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushi, % ko'p emas	0,1
Palmitinyog' kislotalerining trans izomerlarining massaviy ulushi, %, ko'p emas	39,0-46,8
Yog' kislotalaerining trans izomerlarining massaviy ulushi, %, ko'p emas	1,0
Erish harorati, °C	33-39
Yod soni, g I <sub>2</sub> /100g	50-55
Xisoblangan stearooleolesitindagi fosfor saqlovchi moddalarning massaviy ulushi	Ruxsat etilmaydi
Yog' bo'limgan aralashmalarning massaviy ulushi, %, ko'p emas	Ruxsat etilmaydi.
Sovun miqdori (sifat tekshiruvi)	Mavjud emas
Periks soni, mmol O <sub>2</sub> /kg, ko'p emas	0,9
Kislota soni, mg KOH/g, ko'p emas	0,2

### Turli xil yog'li hom ashyolarga qoyiladigan talablar

Texnik hayvon yog'lari GOST 1045-73	Rangi, 20 °C da	Turli tusdag'i yaltiramaydigan oq rangdan sariq ranggacha	
	Hidi	O'ziga xos	
	Namlik va uchuvchan moddalarning miqdori, % ko'p emas	0,5	
	Kislota soni, mg KOH/g ko'p emas	10	
	Sovunlanmaydigan moddalarning massa ulushi, % ko'p emas	0,75	
	Qotish harorati, °C kam emas	38	
	Efirda erimaydigan moddalarning miqdori, % ko'p emas	0,5	
Palma moyi GOST 31647-2012	Hidi va mazasi	Toza, o'ziga xos bo'limgan	
	20 °C haroratdagi konsistensiyasi	Yarim qattiq, bir jinsli bo'limgan	
	Tiniqligi	Eriq holatda tiniq	
	Lovibond boyicha rangi, ko'p emas	3,0 qizil birlik	
	Yog'ning massa ulushi %, kam emas	99,9	
	Namlik va uchuvchan moddalarning miqdori, %, ko'p emas	0,1	

		Palmitin kislotasi miqdori, %	39,0 – 46,8	
		Erish harorati, °C	33 – 39	
		Yod soni, g I2/100 g	50 – 55	
		Kislota soni, mg KOH/g, ko'p emas	0,2	
		Perekis soni, mmol aktiv kislorod/kg, ko'p emas	0,9	
Kokos moyi GOST 10766-64		Rangi, 15 °C da	Sariq tusli oq	
		40 °C da	Kuchsiz sariq-malla tusga ruxsat etiladi	
		Tiniqligi, 40 °C da	Tiniq	
		Konsistensiyasi 15-20 °C da	Yumshoq	
		Hidi va ta'mi: rafinasiyalanmagani uchun rafinasiyalangan-dezodorasiyalangani uchun	Mazkur moy turiga xos Mazkur moy turiga xos, taxir maza va begona xid va ta'msiz	
		To'liq erish harorati, °C rafinasiyalanmagani uchun rafinasiyalangan-dezodorasiyalangani uchun	20-29 22-29	
		Zichligi, 40 °C, g/sm <sup>3</sup> da	0,901-,905	
		Nur sindirish ko'rsatkichi 40 °C da	1,448-1,450	
		Kislota soni, mg KOH, ko'p emas rafinasiyalanmagani uchun rafinasiyalangan-dezodorasiyalangani uchun	1.5 0.5	
		Namlik va uchuvchan moddalarning massa ulushi, %,ko'p emas rafinasiyalanmagani uchun rafinasiyalangan-dezodorasiyalangani uchun	0,2 0,15	
		Yog' bo'limgan aralashmalarning massa ulushi, %, ko'p emas rafinasiyalanmagani uchun rafinasiyalangan-dezodorasiyalangani uchun	0,1 Mavjud emas	
		Yod soni, g J <sub>2</sub> /100g, ko'p emas	12	
		Sovunlanish soni, mg KOH/g	254-267	
		Reyxert-Meysel soni	6,0-9,0	
		Polensk soni	16,8-18,2	
		Sovunlanmaydigan moddalarning massa ulushi, %, ko'p emas	0,6	
Paxta palmitini TSh 86-39-2012	Marka 1	Hid va ta'mi	Moyni o'ziga xos bo'limgan ta'mi, hidi mavjud emas	
		Konsistensiyasi, 15°C da	malxamsimon	
		Eriqan holatdagi rangi	Och sariq	
		Eriqan holatdagi tiniqligi	Tiniq, cho'kma va loyqalanishdan holi	
		Kislota soni, mg KOH/g, ko'p emas	0,3	
		Namlik va uchuvchan moddalarning massa ulushi, %, ko'p emas	0,3	
		Erish harorati, °C	25-35	
		Tashqi ko'rinishi, (20±5) °C	Malxamsimon mahsulot	
		Yod shkalasi boyicha rangi, mg I/100 sm, ko'p emas	6,0	

C <sub>10</sub> -C <sub>16</sub> fraksiyadagi sintetik yog' kislotlini GOST 23239-89	oliy va birinsi		8,0	
	oliy	Erish harorati, °C	25-32	
	birinchi		25-35	
	oliy	Kislota soni, mg KOH/g	245-265	
	birinchi		240-265	
	oliy	Efir soni, mg KOH/g, ko'p emas	4,0	
	birinchi		4,5	
	oliy	Karbonil soni, mg KOH/g, ko'p emas	10,0	
	birinchi		12,0	
	oliy	Sovunlanmaydigan moddalarning massa ulushi, %, ko'p emas	1,3	
	birinchi		1,9	
	oliy va birinchi	Suvning massa ulushi, %, ko'p emas	1,0	

#### 14-MA'RUZA YOG'-MOY KORXONALARINING CHIQINDILARI UCHUN TEXNIKAVIY TALABLAR

**Reja.** Soapstok turlari va organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Texnikaviy talablar. Transportda tashish va saqlash. Gossipol smolasi va qabul qilib olish qoidalari

##### Soapstok (O'zDSt 2797:2013)

Soapstok – o'simlik moyini ishqoriy neytralizatsiyalashdan hosil bo'lgan, yog' kislolarining natriyli tuzlari, neytrallangan yog', fosfatidlar yoki ularni sovunlanishidan hosil bo'lgan mahsulotlar, sovunlanmaydigan moddalar, pigmentlar va namlikdan tarkib topgan cho'kma.

Neytrallananadigan yog' va moylarning turiga qarab, soapstoklar 1-jadvalda ko'rsatilgan turlarga bo'linadi.

1-jadval

Soapstok turlari	Kod MUK*
Och rangli moylardan olingan soapstok	9146711100
Paxta moyidan olingan soapstok	9146721100
Salomas va xayvon yog'laridan olingan soapstok	9146731100
Missella soapstogi	9146721299

\*) MUK - mahsulotning umum davlat klassifikatori 9 ta razryadni o'z ichiga oladi. (O'zDSt 816:2015, 4 bet)

Organoleptik ko'rsatkichlari boyicha soapstok 2-jadval talablariga mos bo'lishi kerak.

2-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Tavsifi			
	Och rangli o'simlik moylari soapstogi	Paxta moyi soapstogi	Salomas va xayvon yog'laridi soapstoklari	Missella soapstogi
Rangi	Jigarrang tusli, sariqdan och jigarranggacha	Jigarrangdan to'q jigarranggacha	Kul rang tusli, sariqdan to'q sariq ranggacha	To'q sariqdan to'q jigarranggacha
20°S haroratdagi konsistentsiyasi	Suyuk yoki mazsimon			
Hidi	Har xil yog' va moylardan olingan soapstokka xos hid; organic moddalarning parchalanishidan xosil bo'lgan kuchsiz hid bo'lishi mumkin; neft mahsulotlari va benzinning hidi bo'lishi mumkin emas.			
Chet qattiq chiqindilar	Bo'lishi mumkin emas			

Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga ko'ra soapstok 3-jadval talablariga mos kelishi kerak.

3-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Tavsifi			
	Och rangli o'simlik moylari soapstogi	Paxta moyi soapstogi	Salomas va xayvon yog'lari soapstoklari	Missella soapstogi
Umumiy yog'ning massaviy ulushi, %, kam emas Yog' kislotalarning massaviy ulushi, %, kam emas Yog' kislotalari va yog' bo'lмаган moddalar massaviy ulushi, %, kam emas Uchqunlanish harorati, °C Soapstokdag'i benzinning massaviy ulushi, %, ko'p emas Soapstokning pH kam emas	25,0 15,0 aniqlanmaydi - - - 8,5	35,0 aniqlanmaydi - - - 8,5	25,0 15,0 aniqlanmaydi - - 8,5	25,0 aniqlanmaydi 22,0 uchqunlanmaydi 0,2 -

**Eslatma:**

1. Och rangli yog'lar, salomas va mol yog'lari soapstoklaridagi yog' kislotalari deyilganda yog' kislotalarining natriy tuzlari bilan birikmalari tushuniladi.
2. Paxta moyi soapstogidagi yog' kislotalari va yog' bo'lмаган aralashmalar deyilganda etil efirida ekstraksiyalanadigan barcha yog' kislotalari, yog' bo'lмаган, sovunlanmaydiagn va boshqa moddalar yig'indisi tushuniladi.
3. "Yog' kislotalari va yog' bo'lмаган moddalar massaviy ulushi" iste'molchining talabiga binoan ishlab chiqaruvchi tomonidan aniqlanadi.

Yog' bo'lмаган moddalar massaviy ulushining yo'l qoyilgan chegarasi va uni aniqlash usuli O'zDSt 2797:2013 ning ma'lumot uchun berilgan ilova "B" 1-bandida keltirilgan.

Quyidagilarga yo'l qoyilmaydi:

- soapstokka katalizatorli yog'larni; oqartiruvchi tuproqli yog'larni; aktiv ko'mirli yog'lar; oqava suvlarni tozalashdan hosil bo'lган yog'larni; sexlarni tozalashdan hosil bo'lган chiqindirlarni;

- och va to'q rangli soapstoklarni aralashtirishga.

Soapstokning taxminiy lipid tarkibi, lipid massasiga nisbatan % da:

- glitseridlar	30-35
- yog' kislotalar (natriyli sovun ko'rinishida)	30-35
- fosfatidlar	8-12
- erkin gossipol	0,01-1,5
- umumiy gossipol	0,05-2,6
- stearinlar va sterollar	1,0-2,0
- tokoferollar	0,02-0,06

Soapstok lipid qismining taxminiy yog' kislota tarkibi, umumiy ajratib olingan yog'

kislotaga nisbatan % da:

- miristin	1,0 gacha
- palmitin	26,0
- stearin	3,0
- olein	24,0
- linol	46,0
- palmitoolein	1,0
- oktadekarbon	1,0

Paxta soapstoki sovun tayyorlashda, xom yog' kislota olishda va "B" markali olein kislotasini olishda foydalaniadi.

Soapstokning fizik ko'rsatkichlari ham tarkibidagi umumiy va neytral yog', saqlash vaqtiga haroratiga bog'liq xolda yuqori ko'rsatkichlar orasida oynaydi.

Ularning orasida eng muhimlari:

- 50 °S haroratdag'i zichligi	- 935-945 kg/m <sup>3</sup>
- 60 °S haroratdag'i dinamik qovushqoqligi	- 50-100 spz

### Nazorat qilish usullari

Uchqunlanish harorati	- GOST 12.1.044 4.4-bandи boyicha
O'z-o'zidan alangananish harorat	- GOST 12.1.044 4.9-bandи boyicha

Namuna olish, rangi, hidи va konsistensiyasinihidini aniqlash; chet chiqindilarni aniqlash; umumiy yog'ning massaviy ulushini aniqlash; och rangli moy, salomas va xayvon yog'laridan olingan soapstoklaridagi yog' kislotalarining massaviy ulushini aniqlash; Paxta moyi soapstokidagi umumiy yog' kislotalari va yog' bo'lмаган moddalarning massaviy ulushini aniqlash; benzin qoldig'ini massaviy ulushini aniqlash O'zDSt 2797:2013 ning (ilova A, B)da keltirilgan usullar bilan amalga oshiriladi.

### Transportda tashish va saqlash

Soapstok GOST 10674 boyicha pastdan to'kiladigan temir yo'l sisternalarida, GOST 8404 boyicha zich yopiladigan lyukli avtosisternalarda ushbu transport vositasi uchun amaldagi tashish qoidalariga rioya qilgan holda tashiladi.

Sisterna va avtosisternalar yaxshilab qarab chiqiladi. Ularda suv, iflosliklar, chet jinslar bo'lishi mumkin emas.

60 t va undan yuqori yuk ko'tarishga mo'ljallangan sisternalarga yuqori segment satxigacha, 60 t dan kam yuk ko'taruvchi sisternalarga esa qopqoq balandligining yarmigacha soapstok quyiladi. Sisternani to'ldirilayotganda uning yuk ko'tarishini to'liq hisobga olib yo'l-yo'lakay havo harorati o'zgarganda mahsulot hajmining kengayishini hisobga olish kerak.

Soapstok iste'molchiga jo'natilishidan oldin qopqoqli va isitish moslamasiga ega, kerakli asboblar komplekti (havo beruvchi klapan, o't o'chirish vositalari) bilan ta'minlangan baklarda saqlanishi kerak.

### GOSSIPOL SMOLASI (GUDRON MTR 2010/001/UZ)

Maxsus texnik reglament MTR 2010/001/UZ talablariga javob beruvchi kub qoldig'i – gudron, ishlab chiqarish chiqindisi hisoblanadi.

Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari boyicha gossipol smolasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

4-jadval

№	Ko'rsatkichlар nomi	Tavsifi va meyori	
		1 tur	2-tur
1	Tashqi ko'rinishi va rangi	To'q jigar rangdan qora rangacha bo'lgan bir jinsli massa	
2	Kislota soni, mg/KOH g oralig'ida	71-100	50-70
3	Atsetondagi eruvchanlik, %, dan kam emas	80	70
4	Kulning massaviy ulushi, % dan kam emas	1.0	1.2
5	Namlik va uchuvchan moddalarning massaviy ulushi, % ko'p emas	4.0	4.0

### Qabul qilib olish qoidalari

a) bir vaqtning o'zida yuklash uchun mo'ljallangan, bitta texnologik sikl jarayonida olingan, bir xil sifat ko'satkichlariga ega bo'lgan gossipol smolasining miqdori to'p hisoblanadi.

b) gossipol smolasining har bir to'pi ishlab chiqaruvchining texnik nazorat bo'limi tomonidan qabul qilinishi va quyidagilar ko'rsatilgan mahsulot sifatini tasdiqlovchi hujjat bilan bo'lishi kerak:

- ishlab chiqaruvchi korxona nomi, boysinuvchi idorasi, manzili va telefon raqami;
- mahsulot nomi; - mahsulot turi; - to'p raqami yoki ishlab chiqarilgan sanasi (oy, yil)
- netto massasi; - sifat ko'rsatkichlari; - jo'natilgan sanasi (oy, yil);
- amaldagi standart belgisi;

- O'zbekiston Respublikasi hududida sotilganda «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» va eksportga sotilganda «Made in Uzbekistan» degan yozuv;

v) gossipol smolasining xar bir to'pi qabul qilish-topshirish sinovlaridan o'tkaziladi. Gossipol smolasi sifatini tekshirish uchun, namuna smola sisternaga ortilayotganda yoki tushirilayotganda kerakli diametrdagi shtutser nasadka buralgan shtutserli namuna olgich bilan oqimni kesib yoki oqimning bir qismini olish yo'li bilan olinadi. Shtutser nasadkasining diametri gossipol smolasining o'rtacha namunadagi vazni 5 kg dan kam bo'lmaslik sharti bilan tanlab olinadi.

Gossipol smolasi bochkalarga ortilganda yoki jo'natilganda 3% qatlamdan namuna olinadi. Bochkalardan namuna olinganda quyushqoq suyuqlikdan namuna olishga moslashgan trubkali, zonal namuna olgichdan foydalaniadi. Olingan o'rtacha namunaning vazni 4 kg dan kam bo'lmasligi kerak.

Avtobitum tashuvchi mashinalardan namuna olish bochkalardan namuna olish singari amalga oshiriladi. Olingan namunalar yaxshilab aralashirilib, 1,5 kg gacha qisqartirib gossipol smolasi sifatini tekshirish uchun toza shisha bankalarga joyланади.

g) ishlab chiqaruvchi korxonada olingan namuna 3 bankaga joylashtiriladi. Ulardan biri 8.1.1.-jadvalda ko'rsatilgan fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun laboratoriya ga beriladi, qolgan ikkitasi esa qopqog'i zich berkitiladi va muhrlanadi. Har bir bankaga quyidagi belgilarga ega yorliq yelimlanadi:

- ishlab chiqaruvchi korxona nomi; - mahsulotning nomi, uning turi;
- to'pning netto massasi; - to'p raqami yoki ishlab chiqarilgan sanasi;
- transport hujjati raqami; - namuna olingan sana va joyi;
- namuna olishda ishtirok etganlarning familiyasi va imzosi.

Muhrlangan idishlarning biri arbitaj tekshiruvi holatlari uchun ishlab chiqaruvchi korxonada saqlanadi, boshqasini talabga binoan iste'molchiga yuboriladi.

d) iste'molchi o'ziga kelib tushayotgan gossipol smolasining sifatini va uning ko'rsatkichlarini maxsus texnik reglament MTR 2010/01/UZ talablariga mosliligini tekshirish huquqiga ega.

e) iste'molchi gossipol smolasining sifatini tekshirishda o'ratcha namunani 1.5 kg gacha qisqartirib oladi va ikkita bankaga joylaydi. Birinchi banka analiz uchun laboratoriya ga beriladi, ikkinchisi arbitaj tekshiruv holatlari uchun muhrlanadi va saqlanadi. Bankaga "g" punktdagi belgilarni ko'rsatilgan yorliq yelimlanadi.

j) namunalar sifat boyicha mahsulotni qabul qilinganlik haqidagi xabar olingungacha, kelishmovchilik yuzaga kelganda – uning yechimi yechilguncha saqlanadi.

z) sifat ko'rsatkichlarning qaysidir ko'rsatkich boyicha qoniqarsiz natijalari olinganda, sisternani bo'shatish bilan bir vaqtda olingan ikkinchi namuna yoki to'pning ikki hissa qismidan yana olingan namuna qayta sinovdan o'tkaziladi. Takroriy tahlil natijalari yakuniy hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.N.I.Nazarov i dr. Obshaya texnologiya pishevix proizvodstv.-M.: Legkaya i pishevaya promishlennost, 1981.-360 s.
- 2.U.X.Xalimova. O‘simglik yog‘lari ishlab chiqarish texnologiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1982. -246 b.
- 3.M.G.Vasiyev, M.A.Vasiyeva. Non, makaron va qandolat maxsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi. –T.: 2002.
- 4.P.M.Malsev. Texnologiya brodilnix proizvodstv. –M.: Pishevaya promishlennost, 1980. -360 s.
- 5.P.Y.Bachurin, V.A.Smirnov Texnologiya likero-vodochnogo proizvodstva. –M: Pishevaya promishlennosit, 1975.-256 s.
- 6.T.X.Ikromov, O‘.R.Qo‘chqorov. Chorva, parranda va baliq mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi. –T.: Sharq, 2001. -285 b.
- 7.Rukovodstvo po metodam issledovaniya, texnoximicheskому kontrolyu i uchyoitu proizvodstva. – L.: VNIIJ, 1987, 1-tom.
- 8.L.I.Puchkova. Laboratorniy praktikum po texnologii xlebopekarnogo proizvodstva. – M.: 1971, «Pish.prom.» -192s.
- 9.L.V.MuravitskaY. Texnoximicheskiy kontrol pivovarenного i bezalkogolnogo proizvodstv i osnovi upravleniya kachestvom produksii. –M.: 1987, «Agroprom», -256 s.
10. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: “O‘zbekiston”, NMIU, 2012. – 440 b.
11. Gavrilenko I.V. Uzluksiz ishlaydigan ekstraktorlarda paxta yog‘i olish (tarjimon Umarov A.). – Toshkent: “O‘zdavnavshr”, 1961. – 124 b.
12. Yormatova D.YO. Moyli ekinlar.–Samarqand:“Zarafshon”,2004. – 240 b.
13. Ilxamjanov P. O‘simglik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi (Ma’ruzalar matni). – Toshkent: TKTI, 2013. – 205 b.
14. Ilxamjanov P., Ergasheva M., Sulaymonov O. Yog‘- moy sanoati korxonalari qurilma va uskunlari. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – 176 b.
15. O‘zR “Yog‘moytamakisanoat” Uyushmasi. Yog‘-moy mahsulotlari i/chiqarishdagi xom ashyo va materiallar sarfi, chiqindilari va yo‘qolishlari, xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotni saqlash va tashishda tabiiy kamayishi MEYOR VA MEYORIY XUJJATLAR TO‘PLAMI. – L.: 1980. – Toshkent: “OFSETPLAST”, 2004. – 100 b.
16. O‘zR “Yog‘moytamakisanoat” Uyushmasi. Yog‘-moy sanoati korxonalarida xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni hisob-kitobini yuritish bo‘yicha YO‘RIQNOMA. – M.: 1980. – Toshkent: “OFSETPLAST”, 2004. – 155 b.
17. Qodirov Y. Yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – 240 b.
18. Pod red. A.G.Sergeyeva. Rukovodstvo po texnologii polucheniya i pererabotki rastitelnix masel i jirov. – L.: VNIIJ;
- 1.9. Tom I. Proizvodstvo rastitelnix masel. 1960. – 720 s.
20. Tom IV. Vipusk 1. Dopolniteln. materiali k tomam I, II, III. 1962. – 174 s.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

MUHANDISLIK TEXNOLOGIYASI FAKULTETI  
“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI”  
KAFEDRASI

**YOG‘-MOY MAHSULOTLARI EKSPERTIZASI**  
**USLUBIY QO'LLANMA**



QARSHI - 2020 y

Tuzuvchi:

"OOMT" kafedrasi professori v.b.  
A.Axmedov

«Yog‘-moy mahsulotlari ekspertizasi» fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari uchun uslubiy qo‘llanma magistraturaning 5A321001 – Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyasi (yog‘-moy mahsulotlari) mutaxassisligi uchun tuzilgan bo‘lib, 30 soat hajmda 7 ta laboratoriya ishini o‘z ichiga oladi.

Uslubiy qo‘llanmada moyli xomashyolarni va ularni qayta ishlashda olingan mahsulotlarni fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun qo‘llaniladigan tahlil bayonlari keltirilgan.

Moyli urug‘larni va ularni qayta ishlashda olingan mahsulotlarni tahlil qilishda asosan paxta chigit, sheluxa, ekstraksiya moyi va rafinatsiyalangan moylar hamdasovun mahsulotlari qo‘llaniladi.

**Taqrizchilar:**

**"OOMT" kafedrasi mudiri**  
**t.f.n., dots. F. U. Suvanova**

**Qarshi yog‘-ekstraksiya AJ sifat va**  
**standartlarga rioya etilishini nazorat qilish**  
**bo‘limi boshlig‘i J.B. Jabborov**

Ushbu uslubiy qo‘llanma QarMII "OOMT" kafedrasi yig‘ilishida (Bayon № \_\_\_\_ «\_\_\_\_»\_\_\_\_\_ 201\_ y), Muhandislik texnologiyasi fakulteti uslubiy komissiyasida (Bayon № \_\_\_\_ «\_\_\_\_»\_\_\_\_\_ 201\_ y), Institut Uslubiy komissiyasida (Bayon № \_\_\_\_ «\_\_\_\_»\_\_\_\_\_ 201\_ y), muhokama etilgan va o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

## *So‘z boshi*

Yog‘-moy sanoati O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat sanoatini yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholi va halq xo‘jaligini tozalangan o‘simlik moylari, shrot va sheluxa, margarin, mayonez xamda xo‘jalik sovunlari bilan ta’minlaydi.

Respublikamiz yog‘-moy sanoatining asosiy vazifasi halq xo‘jaligiga ekologik toza, raqobatbardosh, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishdan iborat. Bu vazifalarni bajarishda bilimdon, ma’naviy jihatdan barkamol, milliy qadriyat va an’analarga sodiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash katta ahamiyatga ega.

O‘simlik moylari ishlab chiqarish bir qator bo‘limlar, moyli urug‘larni saqlash, tozalash, chaqish, chaqilmani fraksiyalarga ajratish, mag‘iz yoki urug‘ni maydalash, yanchilmani namlash va bug‘lash, presslab va ekstraksiyalab moy olish, moyni birlamchi tozalashdan iborat. O‘zbekistonda o‘simlik moylari ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo paxta chigit bo‘lib, noan’anaviy moyli xomashyolardan, kungaboqar pistasi, maxsar, soya urug‘i, kunjut hisoblanadi.

Xomashyoni qabul qilishda fizik-kimyoviy nazoratlarni olib borishni va ularni sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, sifatli xomashyoni qabul qilishga, uning konditsion vaznini (haqiqiy og‘irligi) aniq qilib, xisob-kitob qilishga, moyli urug‘larni navlarini to‘g‘ri aniqlashga yordam beradi.

Ushbu qo‘llanma «Yog‘-moy mahsulotlari ekspertizasi» fanining dasturi asosida yozilgan bo‘lib, bakalavriaturani 5A321001 – Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishslash texnologiyasi (yog‘-moy mahsulotlari) mutaxassisligi uchun tuzilgan. Qo‘llanmadan yog‘-moy korxonalarining laboratoriya xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

Qo‘llanmaning asosiy maqsadi - talaba laboratoriya ishlariga mustaqil tayyorlanishida va taxlillarni bajarishida yordam berishdir. Qullanmada keltirilgan barcha taxlil usullari yog‘-moy korxonalaridagi laboratoriya ishlarida asosiy usul hisoblanadi. Qo‘llanmada moyli urug‘larni va ularni qayta ishslashda olingan mahsulotlarni taxlil qilishda asosan paxta chigit, sheluxa, ekstraksiya moyi, rafinatsiyalangan moylar va sovun qullaniladi. Shuning uchun analizning bayoni bilan bir qatorda, namuna olish, qisqartirish va uni analizga tayyorlash bo‘yicha tegishli ma’lumotlar berilgan.

Barcha keltirilgan xomashyo, oraliq va tayyor mahsulotlarni analiz qilish usullari o‘simlik moylari ishlab chiqarish korxonalarining laboratoriylarida asosiy usullar hisoblanadi. Qo‘llanma oxirida adabiyotlar ro‘yxati berilgan bo‘lib, bu adabiyotlar talabalarga nazorat ishlariga tayyorlanishlari uchun yordam beradi.

## ***Texnika havfsizligi va yong‘inga qarshi texnika bo‘yicha umumiq qoidalar***

Har bir talaba texnologik va fizik-kimyoviy nazorat bo‘yicha olib borilayotgan laboratoriyyada ishlash jarayonida texnika havfsizligining barcha qoidalarini yaxshi bilishi va bajarishi, tartibni, tozalikni saqlashi; turli ishlarni to‘g‘ri va ehtiyyotkorlik bilan bajarishi shart.

Talabalar laboratoriya darslarini olib boruvchi o‘qituvchi yordamida texnika va yong‘inga qarshi havfsizlik qoidalarini o‘rgangach va instruktajdan o‘tgach laboratoriya ishlariga qo‘yiladi.

Talaba har bir ishni boshlashdan oldin ish uslubiyatini yaxshilab o‘qishi, asosiy tomonlarini aniqlashi va laboratoriya ishini bajarish jarayonida o‘qituvchining ruxsatisiz ishni bajarish texnikasidan chetga chiqmasligi kerak.

Turli moddalar bilan ishlaganda ularning teriga tushmasligiga harakat qilish, yuz va ko‘zni qo‘l bilan ushlamaslik, ish paytida ovqat yemaslik, ovqatlanishdan oldin va keyin qo‘lni yaxshilab yuvish kerak.

Kimyoviy moddalarning mazasini aniqlash qat’iyan taqiqlanadi. Hidlash esa idish ustiga engashmasdan, bug‘ yoki gazlarni qo‘l harakati bilan o‘ziga yo‘naltirib to‘liq nafas olmasdan ehtiyyotkorlik bilan amalga oshiriladi. Moddalar saqlanayotgan barcha idishlarda saqlanayotgan moddaning nomi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Tajriba uchun iflos idishlarni ishlatish taqiqlanadi.

Asosan ish tik turgan holda bajariladi, o‘tirib ishslashga faqatgina alanganish, portlash va suyuqliklarning sachrab ketishi havfi bo‘lmagandagina ruxsat beriladi. Laboratoriyyada yakka holda ishslash qat’iyan taqiqlanadi.

Uchuvchan moddalar ajralishi, tarkibida ammiak, sirka kislotasi va hosil bo‘lgan eritmalarining qaynashi va bug‘lanishi, dietil va petroleyni efirlari, muz, sirka kislotasi va boshqa erituvchilar qo‘llanilishi bilan bog‘liq ishlarni faqat havo so‘ruvchi shkaflarida bajarilishi kerak. Sog‘liq uchun zararli gazlar ajraluvchi kislotalar yoki boshqa moddalarni ham faqatgina havo so‘ruvchi shkaflar ichida saqlash kerak.

Havo so‘ruvchi shkaflarida ishslash paytida shamollatish samaradorligini oshirish maqsadida shkaf eshigini  $1/3 - \frac{1}{4}$  qismga ko‘tarib qo‘yish kerak. Ish tugagach eshikni jipslab yopish kerak.

Konsentrangan yoki suyultirilgan kislotasi va ishqorlardan, shuningdek boshqa zaharli suyuqliklardan namuna olishda ularning og‘izga kirib ketishidan saqlanish maqsadida maxsus pipetkalardan yoki rezina grushalardan foydalanish lozim.

Issiqlik ajralish bilan boradigan konsentrangan sulfat kislotani suyultirishda shishadan yoki chinnidan tayyorlangan yupqa devorli kimyoviy idishlardan foydalanish kerak.

Tigellarni issiq kolba va stakanlarni ko‘targanda azbest tagliklarni qo‘yib ko‘tarish va o‘zidan uzoqroq tutish kerak. Tigellarni qisqichlar bilan ushslash kerak. Yengil alangananadigan moddalar bilan ishlaganda (dietil, petroleyni

efiri va hokazo) yaqin atrofda alanga va ishlab turgan elektr qizdirgich qurilmalar bo‘lmasligi kerak. Ularni ochiq alangada va plitkalarda qizdirish

qat’iyan taqiqlanadi; ularni suvli sovutgich bilan ta’minlangan kolbalarda suv yoki qum hammomida qizdirish mumkin.

Suyuqliklarni haydash jarayonida sovutuvchi suv sarfini rostlab, sovutgich holatini va o’rnatalishini uzlusiz nazorat qilib turish lozim.

Moddalarni organik erituvchilar yordamida ekstraksiyalash faqatgina havo so’ruvchi shkafda bajarilishi lozim.

Ishlatilgan o’yuvchi ishqorlar (ishqorlar, kislotalar, kislotali suvlar va hokazo) neytrallangandan keyingina kanalizatsiyaga to’kilishi lozim. Bundan oldin ularni shu maqsadda ishlatiladigan mos etiketkali shisha idishlarga quyish kerak. Shuningdek kanalizatsiyaga turli yonuvchi organik erituvchilarining qoldiqlarini ham quyish qat’iyan taqiqlanadi. Bu qoldiqlarni maxsus idishlarga quyish lozim.

Barcha qurilmalar isituvchi va boshqa uskunalarini talabalar faqatgina o’qituvchi yoki laborant ruxsati bilan o’chirishi yoki yoqishi mumkin. Ishlab turgan uskunalarini nazoratsiz qoldirish qat’iyan taqiqlanadi.

Laboratoriyada ishni tugatgach ish joyini yig‘ishtirish, qo’lni sovunlab yuvish, uskunalariga berilayotgan elektr energiyasini o’chirish, suv yoki gaz berilayotgan kranlarni yopish lozim.

Laboratoriyada har doim qumi bor quti, o’t o’chirgich va yong‘inga qarshi yopqich bo’lishi kerak. Yong‘in chiqqan holda eng avvalo gaz va elektr isitgich uskunalarini o’chirish, yaqin atrofdagi yonuvchi moddalarni havfsiz joyga o’tkazish va shundan keyingina yong‘inni o’chirishga harakat qilish lozim. Yonayotgan suyuqliklarni asbest yopqich bilan yopish, so’ngra zarur bo’lganda qum sepish kerak. Qolgan hollarda o’t o’chirgichdan foydalaniladi. Alangaga suv sepmaslik lozim, chunki bu ko’p hollarda yong‘inning kuchayishiga olib keladi.

Kiyimi yonayotgan odamga yopqich, kostyum, palto va shunga o’xshashlarni yopish kerak, uning yugurib ketishiga yo’l ko’ymaslik lozim, chunki bu alanganing kuchayishiga olib keladi. Bunday holda o’t o’chirgichdan foydalanish yaramaydi.

Agar havo so’ruvchi shkafda yong‘in chiqsa darhol shamollatish kanalining shiberini yopish kerak, aks holda kanal orqali yong‘in tarqalib ketadi. Shundan so’ng yong‘inni o’chirish choralarini ko’rish lozim.

Elektr uzatgichlari yongan hollarda liniyadagi tokni o’chirish va qum, asbest yopqich, o’t o’chirgich bilan yong‘inni o’chirish choralarini ko’rish kerak.

Shisha va kimyoviy idishlar bilan ishlaganda shisha bo’lakchalarini bilan jarohatlanishning oldini olish maqsadida ehtiyojkorlik bilan ishslash kerak. Suyuqlik saqlanayotgan katta kimyoviy idishlarni bir qo’l bilan tagidan ushlab, ikki qo’llab ko’tarish kerak. Shisha naychaga rezina tiqincha o’rnatajotganda naychani imkoniyati boricha o’rnatalayotgan joyga yaqinroq ushslash va suv, vazelin, glitserin bilan ho’llab aylantirib-burab tiqish lozim. Bundan oldin trubkaning uchini qizdirib tekislash kerak.

Texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik baxtsiz hodisalarga olib keladi.

Issiqlik ta'sirida birinchi darajali kuyganda (qizarish, sezilmas pufaklanish) kuygan joyga spirt surish kerak, ikkinchi va uchinchi darajali kuyganda kuygan joyni sterillangan mato bilan yopib bog'lab qo'yish lozim. Kuygan joyning yuzasi katta bo'lsa, jaroxatlangan kishiga tibbiy yordam ko'rsatish lozim.

Kimyoviy kuygan hollarda suv bilan yaxshilab yuvish zarur, so'ngra kislota bilan kuyganda 5 %-li natriy bikarbonat eritmasi bilan, ishqor bilang kuyganda esa 5%-li sirka kislota eritmasi bilan yuvish kerak.

Ishqor ko'zga tushgan hollarda 2%-li bor kislotasi eritmasi bilan 10 daqiqa davomida tinimsiz yuvish, so'ngra albatta vrachga murojaat qilish kerak.

Xlorid, sulfat va nitrat kislotasi bug'lari bilan zaharlanganda toza havo, tinchlik va vrach yordami zarur bo'ladi.

## 1-LABORATORIYA ISHI PAXTA CHIGITIDAGI MOMIQ MIQDORINI ANIQLASH

**Ishning maqsadi:** Korxonaga keltirilgan chigitning qoldiq miqdori boryo‘qligini tekshirish va miqdorini aniqlash.

### **Umumiy tushunchalar**

Paxta chigitining momiqligi deb, chigit qobig‘ida mavjud bo‘lgan tolani ajratishda chigitda qoladigan va chigitning vaznida aks ettiriladigan momiqlikni % miqdoriga aytildi.

Paxta chigit momiqligi chigit qobig‘ida mavjud bo‘lgan tola va momiqni xlorid kislotaning bug‘lari (solishtirma og‘irligi - 1,18–1,19 ga teng) yordamida qo‘ritish shkafida 120-130°S da 30 min davomida g‘ovaksimon sopol idishda quydirish orqali topiladi.

**Kerakli asbob, reaktiv va materiallar:** Xlorid kislotasi, paxta chigiti, 3-chi yoki 4-chi snfga mansub bo‘lgan laboratoriya torozilar, kuydirilgan loydan yasalgan sopol idishlar, tabiiy va sun’iy havo almashtirish bilan quritish shkafi, termometr.

### **Ishning bajarilishi**

Ikkita kuydirilgan g‘ovak loydan yasalgani idishlarga chegarasigacha xlorid kislotasi quyiladi va 15-20 min. Kislota singguncha ushlab turiladi so‘ngra to‘kib tashlanadi.

O‘rtacha namunadan 30,00 gr. Dan ikkita namuna qismi g‘ovak idishga joylashtiriladi, shisha yoki soat oynasi bilan berkitiladi va 120-130°S gacha qizdirilgan quritish shkafiga joylashtiriladi. 30 daqiqa o‘tgandan keyin idishlar quritish shkafidan olinadi va chigitlar xona haroratigacha sovutiladi va oldindan tortilgan shishaga to‘kiladi, keyin shisha bilan birgalikda tortiladi, bunda xatolik 0,02 g dan oshmasligi kerak.

Har bir namuna qism oldindan tortilgan matodan qilingan xaltachalarga solinadi va 2-3 min davomida sekin ishqalash bilan kislota ta’sirida buzilgan tolalar va momig‘ chigitdan ajratiladi, so‘ngra momiqdan tozalangan chigitlar qog‘oz varag‘iga ajratib olinadi va urug‘lar hamda xaltachadagi momiq va tola miqdori alohida torozida tortiladi.

Momiqlikni % miqdori momiq og‘irligicha qarab (momiqdan tozalangan urug‘lar og‘irligiga qarab) quyidagi formuladan topiladi.

$$X = \frac{a \cdot 1,06 \cdot 100}{l};$$

bu yerda: X – momiqlik, % da;

a – tola va momiq og‘irligi, g da;

1 – olingan urug‘ namunasi

1,06 – namlikka tuzatish.

## 2 – LABORATORIYA ISHI SHELUXADAGI MOY MIQDORINI ANIQLASH

**Ishning maqsadi:** Pata chigit va boshqa moyli urug‘larning sheluxasi tarkibidagi moy miqdorni aniqlashni o‘rganish.

### **Umumiy tushunchalar**

Paxta sheluxasidagi xom yog‘ning massa ulushi to‘liq ekstraksiyalash usuli bilan aniqlanadi. Erituvchi sifatida qaynash harorati  $40-55^{\circ}\text{S}$  bo‘lgan petroley efiri ishlataladi.


Ekstraksiya jarayoni Sokslet va Naab apparatlarida bajariladi. Quyida Naab apparati bilan ishning bajarilishi berilgan.

**Kerakli asbob, reaktiv va metariallar:** Naab apparati; quritish shkafi; 2-sinf laboratoriya tarozisi; suv hammomi;  $150-250\text{sm}^3$  li kolbalar; xovoncha petroley efiri; gigroskopik paxta; filtr qog‘izi.

### **Ishning bajarilishi**

Diagonal bo‘lish yo‘li bilan 5-6 g sheluxa ajratiladi va tortib maydalab ekstraksion patronga joylanadi. Sheluxadagi materialning ma’lum qismi (material miqdori analiz namunasi og‘irligiga mos kelishi kerak) sheluxaga qo‘shiladi Shundan so‘ng, patron Naab ekstraksiya apparatiningsovutgichini ilgagiga ilinadi. 1-rasmda Naab apparatlari ko‘rsatilgan.

Apparat ikki xil qurilmadan iborat: 1-qurilma (a) Zaychenko apparati uslubida ishlaydi, 2-qurilma (b) esa Tvisselman apparati uslubida ishlaydi, lekin Naab apparatlari konstruktiv ko‘rinishi jihatidan Zaychenko va Tvisselman apparatlaridan farq qiladi.



1-rasm. Naab

- a) 1. Qabul qiluvchi kolba. 2. Sovutgich.  
b) 1. Qabul qiluvchi kolba. 2. Ekstraktor. 3. Sovutgich.

Apparatning 1-qurilmasi qabul qiluvchi kolba 1 va sovutgich 2 dan iborat. Ekstraksion patron ilgaklarga shunday osiladiki, patronning pastki qismi erituvchiga tegmay turadi.

Apparatning 2-qurilmasi qabul qiluvchi kolba 1, ekstraktor 2 va sovutgich 3 dan iborat. Patron sovutgich ilgagiga ilinadi va apparat rasmida ko‘rsatilganidek qilib yig‘iladi.

Naab apparatlari bilan ishlaganda analiz qilinayoggan materialdan 1-qurilma uchun 5 g, 2-qurilma uchun 10g miqdorda tortma olinadi va Sokslet apparatida ishlagandek, tayyorlangan filtr qog'ozli patronlarga joylanadi.

Kolbaning issiq suvgaga botish chuqurligi va idishdagi suvni temperaturasini o'zgartirish bilan ekstraksiya tezligini o'zgartirish mumkin.

Tezlik shunday mo'ljal bilan o'zgartiriladiki, unda ekstraksion patronning yuqori qismidagi 5 mm chuqurlik har doim butun material hajmi orqali filtrlanayoggan erituvchi bilan to'ldirilgan bo'lishi kerak.

Petroley efiri bilan ishlaganda hammomda suvning temperaturasi 80-85 °S, etil efirida esa undan past bo'lishi kerak.

Ekstraksiya vaqtiga material turiga va undagi moy miqdoriga qarab belgilanadi. Tortilgan kolbagacha 40-55 °S temperatura atrofida haydalagan 60 ml petroleyni efiri solinadi va patronning yuqori qismidagi chuqurlik patronning butun hajmi bo'yicha filtrlanadigan efir qavati bilan doimo to'lib turgan holida 2 soat davomida ekstraksiya olib boriladi. Ikki soatdan keyin yog'ajratish to'liqligiga namuna olinadi.

Buning uchun ekstrakgor sovitgichdan ajratiladi, erituvchini ekstraktordan kolbagacha quyib olinadi: erituvchining so'nggi tomchilari quruq va toza soat oynasiga tomiziladi. Agar erituvchi bug'lanib ketgandan keyin oyna ustida yog' izlari qolmasa, ekstraksiya tugatiladi. Aks holda moslama qayta yig'ilib ekstraksiya davom ettiriladi.

Ekstraksiya jarayoni tugagach efir haydaladi va yog'li kolba 100-105 °S temperaturali quritish shkafiga qo'yiladi va doimiy og'irlikkacha quritiladi. Tarozida birinchi tortish 1,0-1,5 soatdan so'ng, keyingilari esa har 0,5 soatdan so'ng amalga oshiriladi.

Sheluxadagi moy miqdori % da quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$(R_1 - R_2) * 100$$

$$X = \text{-----}$$

$$R$$

Bu yerda.  $R_1$  – moyli kolba og'irligi, g da.  $R_2$  – bo'sh kolba og'irligi, g da.

$R$  – sheluxa analiz namunasining qo'shilgan chigit bilan birqalikdagi og'irligi, g da.

Parallel aniqlashlar orasidagi farq 0,15 % dan oshmasligi kerak.

### **3 – LABORATORIYA ISHI EKSTRAKSION MOYNI CHO'KMA MIQDORINI VA CHAQNASH HARORATINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi:** talabalarga ekstraksion moydagiga aralashmalarning massa ulushi, cho'kmani hajmiy miqdori va chaqnash haroratini aniqlashni o'rgatish.

#### **Ekstraksion moydagiga cho'kma miqdorini aniqlash**

##### **Umumiy tushunchalar**

Ekstraksiya benzinida yoki petroleyni efirida erimaydigan yog'siz aralashmalar va tindirish vaqtida hosil bo'lgan cho'kmani massa ulushi yog'ning muhim sifat ko'rsatkichi hisoblanadi.

Yog'siz aralashmalar (asosan oqsil zarrachalari) ni massa ulushini aniqlash usuli yog'siz aralashmalarni ajratib olish va bu aralashmalarni tarozida tortishga asoslangan.

Cho'kmani hajmiy miqdorini aniqlash, o'simlik moylarini tindirish va hosil bo'lgan fosfatidlar, oqsil moddalar, hamda namlikdan iborat cho'kmanning hajmini o'lchashga asoslangan.

### 3.1. Yog'dagi aralashmalarining massa ulushini aniqlash

**Kerakli asbob, reaktiv va materiallar:** 2-klass laboratoriya tarozisi; 4- klass laboratoriya tarozisi; quritish shkafi; 200-250 sm<sup>3</sup> hajmlı kimyoviy stakanlar; sayqallangan qopqoqli shisha yoki qopqoqli alyumin stakanchalar; 7sm diametrli shisha voronka; 10-10,5 sm diametrli filtr qog'ozlari; vakuum ostida filtrlash uchun kolba; eksikator; ekstraksiya benzini yoki petroleyn efiri.

#### Ishning bajarilishi

Cho'kmani aniqlash uchun texnik tarozida hajmi 200-250 ml bo'lgan konus shaklidagi kolbaga zarrachalari uncha ko'p bo'lmagan 100 ml va zarrachalari ko'p bo'lgan 50 ml moy solib o'lchanadi. Namuna olishdan oldin moy yaxshilab aralashtiriladi.

Moy namunasi uch barobar ko'paytirilgan petroleyn efiri (qaynash xarorati 40-60°S) yoki benzin (qaynash xarorati 85° Sgacha) bilan aralashtiriladi va eritma 100-105° S da quritilgan va analitik tarozida tortilgan filtr qog'oz orqali filtrlanadi. Hamma moy filtrlanib bo'lingach kolba devorlarida qolgan moy erituvchi bilan yuviladi va u ham filtrdan o'tkaziladi. Filtrning moy dog'lari tekkan yuqori chetlari qirqiladi va filtr ichiga solinadi, erituvchi bilan qayta yuviladi. Filtrdan o'tgan moy 100-105°S da doimiy og'irlikkacha quritiladi. Filtr ham byuksda 100-105° S da doimiy og'irlikkacha quritiladi. Filtrli byuks analitik tarozida tortiladi, birinchi tortish 1 soatdan keyin, keyingilari har 30 daqiqada.

Moydagi cho'kma % da (X) quyidagicha hisoblanadi.

$$X = \frac{(P_1 - P_2) \cdot 100}{P}$$

bu yerda: R<sub>1</sub> – quritilgan cho'kmali filtr og'irligi, g;

R<sub>2</sub> – cho'kmasisiz filtr og'irligi, g;

R – moy og'irligi, g.

Ruxsat etilgan nisbiy xatolik ± 10 %.

### 3.2. Yog'dagi cho'kmani hajmiy miqdorini aniqlash

**Kerakli asboblar:** suv hammomi; 100<sup>0</sup> S li termometr; 400 sm<sup>3</sup> hajmlı kimyoviy stakan; 0,5 sm<sup>3</sup> bo'linish bilan 100sm<sup>3</sup> hajmlı shisha o'lchov silindrлari.

#### Ishning bajarilishi

120sm<sup>3</sup> atrofidagi tahlil qilinayotgan yog'ni suvli hammomda 50<sup>0</sup>S haroratgacha isitiladi, keyin ohista 20<sup>0</sup> Sgacha sovitiladi, aralashtiriladi va 100 sm<sup>3</sup>li silindrga quyiladi.

Silindr 15-20<sup>0</sup>S haroratda 24 soatga qoldiriladi.

Cho'kmani sm<sup>3</sup> dagi miqdorini hajmiy ulush deb qabul qilinadi va %da ifodalanadi.

Parallel aniqlashlar orasidagi farq 0,5%dan oshmasligi kerak.

### 3.3. Yog'ning chaqnash xaroratini aniqlash

## Umumiyl tushunchalar.

Bu ko'rsatkich ekstraksiya moyining sifatini ko'rsatadi va missellani distillyatsiya qilgandan keyin yog'da qolgan erituvchini miqdori haqida fikr yuritish mumkin.

Chaqnash haroratini aniqlash usuli, yog'dagi uchuvchan moddalar va ma'lum sharoitda qizdirganda yog' komponentlarini parchalanishidan hosil bo'lgan moddalarni havo bilan, olovni yaqinlashtirganda chaqnovchi aralashma hosil qilish qobiliyatiga asoslangan.

**Kerakli asbob, reaktiv va materiallar:** Neft mahsulotlari va kimyoviy organik mahsulotlarni chaqnash haroratini aniqlash uchun Martens-Penskiy asbobi; sekundomer; erituvchilar; ekstraksiya benzini; dietil efiri yoki petroleyni efiri.

## Ishning bajarilishi


Martens - Penskiy asbobi (2-rasm) quyidagi asosiy detallardan iborat: elektroqizdirgich elementli (1) metall stakan, ichi issiqlik saqlovchi material bilan to'ldirilgan metall qoplama (2), moy uchun idish (4), armaturali qopqoq (9), aralashtirgich (10), ikkita termometr va kuchlanish to'g'rilagichi (latr yoki reostat).

Moy uchun rezervuar (4) yassi tubli silindr shaklidagi idishdir. U mislangan yoki nikellangan bo'lishi mumkin. Idish stakanga joylashtirilgan. Idish ichida asbobni moy bilan to'ldirilish darajasini ko'rsatish uchun belgi qilingan. Apparat qopqog'i rezervuarga yaxshilab kiritilgan, unga ikkita teshikli zaslonda (7), termometr uchun tubus (5), zaslondani ochuvchi richag (3) va aralashtirgich (10) o'rnatilgan.

Martens-Penskiy asbobida har 1°Sda graduirlangan 80°Sdan 100°S gacha va 170°S dan 330°S gacha shkalali termometrlar ishlatiladi.

Tekshirilayoggan moy idishga belgigacha quyiladi, qopqog'i yopiladi, termometr qo'yiladi va ehtiyojkorlik bilan havo hammomiga joylanadi. Qizdirgich yoqiladi va 60 ayl/min tezlikda aralashtirib turiladi. Moyni chaqnash haroratidan 30°S pastroqqacha qizdirilgach, harorat daqqaiga 2°S oshadigan tezlikda qizdiriladi.

Kutilayotgan chaqnash haroratidan 10°S pastda chaqnash sinab ko'riladi. Buning uchun aralashtirish to'xtatilib, qopqonning (1) teshigi ochiladi va tekshirilayotgan moy ustiga yonib turgan olov tutiladi. Agar chaqnash sodir bo'lmasa moy yana aralashtirilib, yoqish har 1 daqiqada takrorlanadi.



2-расм. Мартенс-Пенский асбо-би.

1-электроъиздиргич элементли металл стакан; 2-металл льоплама; 3-ричаг; 4-мой учун идиш; 5-термометр учун тубус; 6-узатма; 7-иккита тешикли заслонка; 8-ёльувчи лампочка; 9-льопльоъ; 10-аралаштиргич.

Chaqnash harorati bo'lib moy ustida alanga paydo bo'lgan harorat hisoblanadi. Birinchi alanga paydo bo'lganidan keyin tekshirish xuddi o'sha sharoitda har 1 daqiqada yoqish

takrorlanib davom ettiriladi. Agar shunda alanga paydo bo‘lmasa, butun tajriba qayta takrorlanadi.

Chaqnash harorati qilib birinchi alanga paydo bo‘lganidagi harorat qabul qilinadi. Moyniig yangi miqdori bilan o‘tkazilgan ikkita parallel aniqlashlar o‘rtasidagi farq chaqnash harorati  $50^{\circ}\text{S}$  dan kam bo‘lganda  $1^{\circ}\text{S}$ ,  $50^{\circ}\text{S}$  dan yuqori bo‘lganda  $2^{\circ}\text{S}$ ,  $200^{\circ}\text{S}$  dan yuqori bo‘lganda  $3^{\circ}\text{S}$  dan oshmasligi kerak.

Yangi tajriba boshlashdan oldin, moy uchun idish benzin va efir bilan yuviladi, quritiladi. Havo harakatidan va yorug‘lik ta’siridan himoya qilish uchun asbob, po‘lat listdan yasalgan to‘sqich bilan o‘raladi va qorong‘iroq joyga qo‘yiladi.

#### **4 – LABORATORIYA ISHI RAFINATSIYALANGAN MOYNI KISLOTA SONINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi:** Moylar tarkibidagi kislotlar sonini aniqlashni o‘rganish.

**Umumiy tushunchalar.**

Sanoat usulida olingen o‘simlik moylari uchglitserid (uchatsilglitserol)lar, yog‘ bo‘lмаган aralashmalar va hamroh moddalar aralashmasidan iborat.

Yog‘ bo‘lмаган aralashmalarga mexanik aralashmalar (qovurilgan mag‘iz, kunjara va shrot bo‘laklari), namlik va zaharli ximikatlardan kiradi.

Zaharli ximikatlarning bo‘lishi shu bilan izohlanadiki, qishloq xo‘jaligidagi o‘simliklarning zararkunandalari va kasalliklari bilan kurashda turli zaharli ximikatlardan (pestitsidlar, gerbitsidlar va h.k.) keng ishlataladi, ular o‘simlikning yog‘li to‘qimalarida yig‘ilib boradi va yog‘ bilan birga ajralib chiqadi.

Hamroh moddalar yog‘ va moylar tarkibida juda kam miqdorda bo‘lsada, ularni sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, fosfolipidlar, sterin va tokoferollar moyning fiziologik qiymatini oshirsa, erkin yog‘ kislotalari va gossipol esa moyning sifatini pasaytiradi.

Hamrox moddalar, ular 2 guruhga bo‘linadi.

1 guruh - urug‘larning yetilish vaqtida yig‘ilib boradi va yog‘ni ajratishda o‘zgarishsiz uning tarkibiga o‘tadi. Bu fosfolipidlar, pigmentlar-karotin, ksantofil, gossipol, xlorofill, mum, tokoferol, turli vitaminlar, sterollar, erkin yog‘ kislotalari, ta’m va xid beruvchi moddalar, sulfolipidlardir).

2 guruhga urug‘lar tarkibida mavjud bo‘lib, moyni ajratib olishda unga o‘zgargan holda o‘tuvchi, texnologik omillar (harorat, namlik, bosim) ta’sirida hosil bo‘luvchi, oksidlanib aynish mahsulotlari, hamda hamroh moddalarni termik va gidrolitik parchalanishi natijasida hosil bo‘ladigan mahsulotlar (yog‘ kislotalari, polimerizatsiya mahsulotlari) kiradi.

Rafinatsiya yog‘larga ma’lum sifat berish uchun ularni hamroh va boshqa moddalardan tozalashdir. Rafinatsiya ketma-ket bajariluvchi bir nechta jarayonlarni birlashtiradi.

Oziq-ovqat sanoati yog‘ va moylarni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’mol qilish uchun, margarin maxsulotlarini tayyorlash uchun, mayonez, gidrogenlangan yog‘lar,sovun, glitserin, yog‘ kislotalari, olif va boshqa maxsulotlar tayyorlash uchun ishlab chiqaradi.

Rafinatsiyaning to‘liq sikli fosfolipidlarni, mumsimon moddalarni, erkin yog‘ kislotalarini, bo‘yovchi va hid beruvchi moddalarni ajratib olishni o‘z ichiga oladi. Bu maqsadda turli xil usullar qo‘llaniladi, bu usullarning asosida ma’lum reagentlarning alohida moddalarga nisbatan tanlash xususiyati yotadi. Bunga asosan fosfolipidlarni suv yoki elektrolitlarning suvli eritmalari orqali gidratatsiya qilib ajratib olish, erkin yog‘ kislotalarini yog‘larni natriy tuzlari ko‘rinishida ajratish, rangli moddalar-pigmentlarni sorbentlar yordamida, hid va ta’m beruvchi moddalarni dezodoratsiya qilib ajratish kiradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan usullar yuqori tanlovchanlik xususiyatiga ega emas. Bunga misol qilib, gidratatsiya paytida ma’lum miqdorda erkin yog‘ kislotalarning, neytralizatsiya vaqtida esa, yog‘lar rangini ma’lum miqdorda kamayishini ko‘rsatish mumkin.

Yog‘larning tarkibi asosida va yog‘larni keyinchalik qaysi maqsadda ishlatalishiga qarab, rafinatsiyaning kerakli usullari tanlanadi. Agar yog‘lar oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, mavjud Davlat standartlariga asosan yog‘lar to‘liq rafinatsiyalanadi va dezodoratsiyalanadi.

Gidrogenlangan yog‘lar ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan moylar esa dezodoratsiya qilinmaydi.

Har bir yog‘ turini rafinatsiya qilish texnologik rejimini tanlashda uning o‘ziga hos xususiyatlari inobatga olinishi zarur. Rafinatsiya jarayoniga quyidagi talablar qo‘yiladi. Yog‘ning glitserid qismini to‘laligicha o‘zgarmagan holda qoldirish, iste’molga yaroqlilagini saqlab qolish, yo‘qotishlarni va chiqindilarni kamaytirish. Bu muammolarni ijobiy hal qilishda moylarni rafinatsiya jarayonini olib borishdagi eng maqbul sharoit katta ahamiyatga ega, ya’ni natriy gidroksidning miqdori, uning konsentratsiyasi, neytrallash jarayonini olib borish harorati, aralashtirish tezligi va boshqalar.

### Kislota sonini aniqlash

1 gramm yog‘dagi erkin yog‘ kislotalarini neytrallash uchun ketgan kaliy ishqorini (KON) milligram miqdoriga kislota soni (k.s.) deyiladi.

Yog‘dagi erkin yog‘ kislotalarning miqdori doimiy birlik bo‘lmasdan, yog‘ xomashyosining sifatiga, yog‘ yoki moyni olish usuliga, saqlash sharoitiga va hokazolarga bog‘liq bo‘ladi. O‘simplik moylarining kislota soni asosiy sifat ko‘rsatkichlaridan hisoblanib GOST bo‘yicha reglamentlanadi.

Hom yog‘ va moylarini analiz qilganda kislota soni, yog‘ va moy tarkibida erkin yog‘ kislotalaridan tashqari, chuchuk xarakterga ega bo‘lgan moddalar, masalan, fosfatidlar, gossipol va x.k. bo‘lganligi sababli kislotalikga nisbatan bir necha yuqori bo‘ladi.

**Usulning moxiyati.** Namunadagi yog‘ni kislota sonini ishqorni spirtli eritmasi bilan fenoftalein qatnashchieligida titrlash orqali aniqlanadi. Yog‘ni erituvchisi sifatida neytrallangan spirt va dietil efirining aralashmasi yoki benzin qo‘llaniladi.

Kislota sonini aniqlashda spirtning o‘rni quyidagicha bo‘ladi:

A) reaksiyon muxitda o‘yuchi ishqorni erish tezligini oshirish, gomogen sharoitda reaksiyani borishini ta’minlash.

B) yog‘ kislotalari neytrallashda jarayonidasovun quyidagicha hosil bo‘ladi:



Hosil bo‘lgansovun efirda ham, benzolda ham erimay cho‘kmaga tushadi va reaksiya oxirini to‘g‘ri aniqlashga halaqt beradi.

Reaksiyon muxitda spirtning mavjudligi sovunni erishiga olib keladi.

G) spirtning yo‘qligi yoki yetishmasligi tufayli eritmada sovun gidrolizga uchraydi:



Bunda, tenglikdan ko‘rganimizdek erkin ishqor xosil bo‘lib, indikatorni rangini vaqtadan oldin o‘zgarishiga olib keladi, ammo muxitda hali ham erkin yog‘lar mavjud bo‘ladi. Shuning uchun topilgan kattalik xaqiqiy kislota sonidan kichikroq bo‘ladi. Agar reaksiyon muxitda 20 % dan kam suv bo‘lsa, sovun gidrolizi mavjud emas deb qayd qilingan.

Yog‘ va moylarni kislota sonini aniqlash uchun indikator va potensiometrik titrlash usuli ishlatiladi.

#### **4.1. Rafinatsiyalangan moyni kislota sonini aniqlash**

**Kerakli reaktiv va asboblar:** **250 ml** li konussimon kolba, analitik tarozi, dietilefiri, **96 %** etil spirti, **1 %** li fenolftaleini, **0,5 n** o‘yuvchi kaliy eritmasi, yog‘.

##### **Ishning bajarilishi**

Kislota sonini aniqlash uchun **250 ml** hajmli kolbaga **3-5 g** rafinatsiyalangan moy sorlinib, anatilik tarozida o‘lchab olinadi. So‘ngra oldindan tayyorlab qo‘yilgan dietilefiri **va 96 %** etil spirtdan (**2:1**) tashkil topgan **50 ml** neytral aralashmani kolbaga quyamiz. Ustiga fenolftaleinni **1 %** li spirtli eritmasi – indikatordan bir qancha tomchi tomiziladi.

Hosil bo‘lgan eritmani doimiy aralashtirib byuretka orqali och pushti rang hosil bo‘lguncha o‘yuchi ishqorni **0,1 N** spirtli eritmasi bilan titrlanadi.

**Kislota soni quyidagi formula orqali topiladi:**

$$\kappa.c. = \frac{5,611 \cdot \alpha \cdot \kappa}{P}; \quad mg \text{ KON/g}$$

Bu yerda: **5,611 – KON ni 0,1 N** eritmasi titri, ml da mg.

**α** -titrlash uchun ketgan **0,1 N** o‘yuvchi ishqor eritmasini soni, ml

**K** - titrlashga to‘g‘rilik kiritish

**R** – Rafinatsiyalangan moy namunasi, g.

#### **4.2. Rafinatsiyalanmagan moyni kislota sonini aniqlash**

**Kerakli materiallar va asboblar:** o‘simlik moylar, 0,1 normal KON eritmasi, suv xammomi, kolbalar, spirt-efir aralashmasi, fenolftalein.

Oqlanmagan paxta moyi texnikada kora moy deb yuritiladi. Ishlab chiqarishda moyni kislota sonini aniqlashda tuzli (solevoy) usuli qo‘llaniladi. Bunda erkin yog‘ kislotasini neytrallash uchun to‘yingan osh tuzi (35%) eritmasidan foydalilaniladi. Erkin moy kislotalari neytrallangandan so‘ng kaliy gidrooksidi tuz eritmasiga o‘tib eritmani qirmizi ranga bo‘yaydi.

**Ishni bajarish maqsadi.** Moyning kislotali soni deganda 1 kg moy tarkibidagi erkin yog‘ kislotalarini neytrallash uchun sarf bo‘lgan 0,1 n kaliy gidrooksidning milligrammlar miqdorini tushunmoq kerak. Moylar tarkibida har doim erkin yog‘ kislotalari bo‘ladi. O‘simlik moylaridagi yog‘ kislotalarining miqdori, hayvon yog‘i tarkibidagi yog‘ kislotalariga nisbatan yuqori bo‘ladi. Pishayotgan urug‘lardagi yog‘ kislotalar miqdori ko‘p bo‘lganligi sababli, kislota soni ham yuqori bo‘ladi. O‘rug‘ning to‘la pishishi bilan urug‘ tarkibidagi erkin yog‘ kislotalar miqdori keskin kamayadi. Urug‘ning o‘nish paytida esa uning tarkibidagi yog‘ kislotalar miqdori yana ortadi.

Moy tarkibidagi erkin yog‘ kislotalarini aniqlash quyidagi reaksiyaga asoslangan.



### Ishning bajarilishi

100 mm hajmli kolbadan ikkita olib, ularning birinchisiga 3-5 moy va 25030 ml neytrallangan spirt-efir aralashmasi, ikkinchi kolbaga esa faqat 25-30 ml spirt efir aralashmasi solinib, kolbalardagi aralashmalar yaxshilab chayqatiladi. Agar birinchi kolbadagi moy yaxshi erimasa aralashma suv hammomida qizdiriladi. So‘ngra u suv hammomidan olinib, vodoprovod tagida sovutilgan va har ikkala kolbaga ham 2-3 tomchidan fenolftalein eritmasi tomizilib, kaliy gidroksidning 0,1 n eritmasi bilan 0,5-1,0 daqiqa davomida o‘zgarmaydigan oq pushti rang hosil bo‘lguncha titrlanadi. Fenolftalein oq pushti rang hosil bo‘lguncha titrlanadi. Fenolftalein o‘rniga tinolftalein ishlatish ham mumkin. Bu indikator bilan titrlanganda ko‘k rang hosil bo‘ladi.

Kislotali son tubandagi formula bilan aniqlanadi:

$$X = \frac{(a - e) + 5,61 + T}{H},$$

bu yerda: X- kislota soni;

a-namunani neyrallash uchun sarf bo‘lgan 0,1 n kaliy gidroksidning ml miqdori;

v- kontrolni titrlash uchun ketgan kaliy gidroksidning ml miqdori. Odatda, spirt-efir aralashmasi neytrallangan holda bo‘lganligi sababli ham kaliy gidroksidi sarflanmaydi;

5,61-0,1 n KON eritmasini tayyorlash uchun zarur bo‘lgan miqdor (g hisobida);

T- tuzatma; H-tajriba uchun olingan moy miqdori.

Moy tarkibidagi erkin yog‘ kislotalarining miqdorini kislotali son bilan ifodalashdan tashqari erkin kislota holida ham ko‘rsatish mumkin. Oddiy usulda titrlash bilan moy tarkibidagi kislutanin molekulyar massasi haqida ma’lumotga ega bo‘lish qiyin. Shuning uchun ham hisoblashni shartli ravishda erkin oleinat kislotaga nisbatan olib boriladi. Bunga sabab, ko‘pchilik o‘simlik moylari tarkibida oleinat kislotaning keng tarqalganligidir. Bunday holda topilgan kislotali soni 0,503 koeffitsiyentga ko‘paytiriladi.

Erkin kislota tubandagi formula orqali topiladi:

$$\text{Erkin kislota \%} = \frac{\kappa.c \cdot 282,3 \cdot 100}{56,11 \cdot 1000},$$

bu yerda 282,3- oleinat kislotaning molekulyar massasi;

56,11- kaliy gidroksidning molekulyar massasi;

100- % (foiz) ga o‘tish uchun

1000- grammdan milligrammga o‘tish soni.

Keltirilgan metodika bo'yicha tozalanmagan (presslangan, ekstraksiyalangan) yog'larning kislotali soni aniqlanadi.

## 5 – LABORATORIYA ISHI

### MOYNING TARKIBIDAGI NAMLIK VA YENGIL UCHUVCHAN MODDALAR MIQDORINI ANIQLASH

**Ishning maqsadi:** Talabalarga moylar tarkibidagi namlik va moyning hidi, ta'mi va rangini aniqlashni o'rgatish.

**Umumiy tushunchalar.** Presslash va ekstraksiyalash usulida olingan moyni rafinatsiyalashdan oldin namligi aniqlanadi. Xozirgi vaktda namlikni aniqlashni bir nechta usullari bulib, biz  $100 - 105^{\circ}$  S xaroratda og'irligi doimiy holatga kelguncha quritish usulida aniqlaymiz.

#### 5.1. Moyning tarkibidagi namlikni aniqlash

**Ishni bajarish uchun kerakli jixozlar:** analitik tarozi; quritish shkafi; eksikator; metal stakancha qopqog'li.

#### **Ishning bajarilishi**

Oldindan quritib qo'yilgan metal stakan ni og'irligini o'lchab ish daftariga yozamiz va unga 5 gr moy solib o'lchab og'irligini ish daftariga yozamiz. Shundan keyin harorati  $100 - 105^{\circ}$  S bo'lgan quritish shkafiga 30 daqiqa vaqt davomida quritamiz. Belgilangan vaqt o'tganidan sung stakan qisqich yordamida olib eksikatorga qo'yamiz va sovigandan so'ng taroziga o'lchaymiz o'lchash natijasini ish daftariga yozamiz. Shundan keyin yana 15 daqiqa quritamiz. Belgilangan vaqt o'tganidan so'ng olib sovitamiz va og'irligini o'lchaymiz. Oldingi va keyingi o'lchashlar orasida o'zgarish bo'lmasa quritishni to'xtatamiz va moyning tarkibidagi namlik miqdorini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$X = \frac{(m_1 - m_2)}{m} \cdot 100,$$

bu yerda:  $m_1$  – metall stakan va moyning quritmasdan oldingi og'irligi, g;

$m_2$  – metall stakan va moyning quritgandan keyingi og'irligi, g;

$m$  – metall stakan og'irligi, g.

#### 5.2. Moyning hidi va ta'mini aniqlash

Har bir o'simlik moyining hidi o'ziga xos. U xom ashyo turiga, moyning olish usuliga, tozalanish darajasiga, saqlash muddatiga bog'liq. Moy olinayotgan xom ashyonining sifati xam moy hidiga ta'sir etadi. Kamchiligi (o'sgan, mog'orlagan, kuygan va boshqa) bor moyli xom ashylardan olingan moylar yoqimsiz hidliligi bilan ajralib turadi.

Moyning hidini aniqlab, uni qanday moyli xom ashyodan olinganligini va toza olinganligi, to'g'risida xulosa qilish olingan moyda benzin borligini aniqlash mumkin.

Sovuq presslash usulida olingan moy hech qanday hidga yega emas, issiq presslash usulida olingan moy o'tkir hidi bilan xarakterlanadi. Ko'p qovurilgan mezgadan olingan moy yuqori haroratda moddalarning parchalanishi natijasida aromatik moddalarning hidi hosil bo'ladi.

Moyning hidini aniqlash uchun moyning harorati  $20^{\circ}$  S ga keltiriladi va shisha plastinka ustiga yupqa qilib surkaladi va hidlanadi yoki kulning kaftiga surtib xidlanadi va xidning turiga karab xulosa chiqariladi.

Moyning ta'mi ham uning hidini hosil qilinadigan ta'sirlarga bog'liq bo'lib, har qaysi turdag'i moy uchun ajralib turadi. Moyning ta'mi kishi organizmidagi ta'mni sezadigan asosiy a'zo til orqali aniqlanadi.

Asosan turt xil oddiy ta'm mavjud, bular: shirin, sho'r, nordon va achchiq ta'mdir. Boshqa ta'm va ta'm sezzilar bu asosiy ta'm sezzilarining qo'shilishidan hosil bo'ladi: achchiq–sho'r, shirin–nordon, nordon–shirin, shirin–achchiq va boshqalar. Moylarning ta'mi moyli xom

ashyoni tabiatiga, kimyoviy tarkibiga, moy ta'tib ko'rيلayotgan paytdagi haroratga bog'liq. Sovuq presslash usulida olingan moyning ta'mi yumshoq.

Noqulay sharoitda saqlangan moyning ta'mi o'zgarib, achchiq, achishtiruvchi va kuygan ta'mli bo'ladi.

Moyni ta'mini aniqlash uchun, ta'mi aniqlanadigan moyning harorati 20° S ga keltiriladi va shisha tayoqcha yordamida kul kaftiga bir tomchi tomizilib til yordamida ta'tib ko'rilib ta'mi to'g'risida xulosa chiqariladi.

## 6 - LABORATORIYA ISHI





### ATIR SOVUNIDAGI YOG‘ KISLOTALARI MIQDORINI ANIQLASH

**Ishning maqsadi:** Sovundagi yog‘ kislotalar miqdorini laboratoriya sharoitida aniqlash va bu ko'rsatkichlarni meyoriy hujjatlardagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash.


#### **Umumiy tushunchalar.**

Sovun bu yuqori molekulali yog‘ va naften kislotalarining tuzlaridir. Yuvinish va kir yuvish uchun ishlatiladigansovun 10 dan 20 gacha uglerod atomidan tashkil topgan yog‘ kislotalarining natriyli va kaliyli tuzlaridan iborat. Tarkibida uglerod atomi 10 dan kam bo‘lgan yog‘ kislotalaridan olingansovunlar yuvish qobiliyatiga ega emas.

Sovun, yog‘ kislotalarini o'yuvchi va karbonatli ishqorlar bilan neytrallash natijasida hosil bo'ladi.



Sovunlanish jarayonini olib borish vaqtida ishqor miqdori nazariy hisoblab olinganiga nisbatan biroz ko'proq bo'lishi kerak. Agar sovunlash jarayonida ishqor yetishmay qolsa, suvda yomon eriydigan nordon sovun hosil bo'lishi mumkin.



Covunlanish jarayonida qatnashayotgan yog‘ kislotalari va ishqorlarning turiga qarab, olingan sovunlar qattiq va yumshoq bo'lishi mumkin. To'yingan yog‘ kislotalaridan qattiq, to'yinmagan yog‘ kislotalaridan yumshoq sovun hosil bo'ladi. Bundan tashqari natriyli sovunga nisbatan kaliyli sovun yumshoq bo'ladi va suvda yaxshi eriydi, ammo yuvinish jarayonida uni sarfi ko'proq bo'ladi.

Yog‘-moy korxonalari ishlab chiqarayotgan sovunlar 3 turga bo'linadi:

1) xo‘jalik sovunlari, turli mato va buyumlarni yuvish uchun; 2) atir sovunlari, asosan, yuvinish uchun; 3) sanoat extiyoji uchun va maxsus sovunlar. Xo‘jalik sovunlari tarkibida 60, 72 %, atir sovunda 73-80 % yog‘ kislotalari bo‘ladi.

Hozirgi vaqtida yog‘-moy korxonalarida asosan xo‘jalik va atir sovun ishlab chiqariladi. Kam hollarda kukunsimon, pastasimon va suyuq sovunlar ishlab chiqariladi.

Qattiq sovun ishlab chiqarish 2 etapdan iborat:

1. Sovunning konsentrangan massasini tayyorlash (sovunli yelim, atir sovun uchun asos).
2. Massaga tovar formasini berish (mexanik ishlov).

Moylarni qayta ishlash sanoati atir, uy-ro‘zg‘or va maxsus sovunlarni bo‘laksimon, poroshoksimon, pastasimon va suyuq ko‘rinishlarda ishlab chiqaradi. Sovun ishlab chiqarish xomashyosi bo‘lib o‘simlik, hayvon yog‘i va moylari, shuningdek soapstok, o‘simlik moylaridan olinadigan texnik salomaslar xizmat qiladi. Sovunni sifat ko‘rsatkichlarini amaldagi davlat meyoriy hujjatlaridagi ko‘rsatkichlarga to‘g‘ri kelishini tekshirish uchun ular analiz qilinadi. Sovunni analiz qilish uchun birinchi navbatda sovun bo‘laklaridan namuna tayyorlanadi. Analiz qilishga olingan sovun namunasi quyidagicha tayyorlanadi:

Analizga mo‘ljallangan sovun bo‘lagi 0,1 g aniqlikda tortiladi va sovun bo‘lagining o‘rtacha og‘irligi aniqlanadi.

Analizga olingan sovun bo‘lagi bo‘yi, eni, kengligi bo‘yicha bir xil bo‘lgan 8 ta teng bo‘laklarga bo‘linadi va 8 ta bo‘lakdan diagonal bo‘yicha 2 ta nusxa olinib, qirg‘ich yoki pichoq yordamida maydalanadi. Maydalangan sovun qirindisi tezda qopqoqli bankaga solinadi. O‘rtacha na’muna olish uchun bankadagi sovun qirindilarini toza bir yuzaga to‘kilib, tezda kurakcha yordamida yaxshilab aralashtiriladi va analizga namuna olinadi.

Olingan namuna sovundagi yog‘ kislotalari miqdorini aniqlash uchun ishlatiladi.

### **Sovundagi yog‘ kislotalarini massa ulushini aniqlash**

Yog‘ kislotalarining sovun tarkibidagi foizdagi massa ulushi bilan ularni sovun, bo‘lagidagi miqdori (sifat soni grammida, S.s.) farqlanadi.

Birinchi ko‘rsatkich – sovun ishlab chiqarishda oraliq va tayyor mahsulotlar tayyorlik darajasini aniqlash uchun ikkinchi ko‘rsatkich esa mahsulotni to‘liq tovar qiymatini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish amaliyotida yog‘ kislotalarni massa ulushini aniqlashda standart tezlashtirilgan va maxsus usullardan foydalaniladi.

## **6.1. Tezlashtirilgan hajmiy usul**

**Usul prinsipi:** Bu usul sovunni suvli eritmasini mineral kislota bilan parchalash, ajralgan yog‘ kislotalar va sovunlanmaydigan moddalarni dietil efiri bilan ekstraksiyalash hamda yog‘ kislotalarni titrashga asoslangan.

**Reaktiv va materiallar:** Sovun namunasi,  $H_2SO_4$  ni 20 %-li eritmasi, dietil efiri, NaCl ni to‘yingan eritmasi, metiloranj, 96 %-li etil spirti, 0,5 n.li natriy gidroksid eritmasi, fenolftalein, 250 ml. li konussimon kolba, suvli hammom, 500 ml. li ajratgich voronka.

**Ishning bajarilishi:** Kolbaga sovun namunasidan 5 g. atrofida 0,01 g. aniqlikda tortib olinadi va qaynoq suvda eritiladi,  $H_2SO_4$  bilan metiloranj bo‘yicha parchalanadi. Eritish va parchalash qaynayotgan suvli hammomda bajariladi. Aralashma sovutilib, ajratgich voronkaga o‘tkaziladi. Kolbani (30 ml.) dietil efiri bilan chayiladi va voronkaga quyiladi. Aralashma efir bilan yaxshilab aralashtiriladi va 2 min. davomida tindiriladi. Nordon suvli qatlama to‘kiladi, efirli qatlama esa to‘yingan NaCl eritmasi bilan metiloranj bo‘yicha neytral reaksiyagacha

yuviladi. Efirli ekstrakt kolbaga quyiladi va yarim yok 1/3 qism efir 20-30 ml. spirt bilan ajratish voronkasini chayqab, ekstraktli kolbaga quyiladi.

Kislotalarni spirt-efirli eritmasi NaOH ni 0,5 n.li eritmasi bilan fenolftalein ishtirokida, hosil bo'lgan pushti rang bir 1 min. davomida yo'qolmay qolguncha titrlanadi.

Yog' kislotalarnisovundagi massa ulushi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$YO.k. = VK \frac{0,02}{M_{o\cdot r}} \frac{100}{(40 m)} = 0,05 \frac{VKM_{o\cdot r}}{m},$$

bu yerda: V - yog' kislotalarni titrlash uchun sarf bo'lgan 0,5 n.li NaOH eritmasini hajmi, ml; K – 0,5 n.li NaOH eritmasi titriga tuzatma;  $M_{o\cdot r}$  – yog' kislotalarining o'rtacha molekulyar og'irligi; m – sovun namunasining og'irligi, g.

## 6.2. Soddalashtirilgan usul

**Usul prinsipi:** Usul sovunni suvli eritmada mineral kislota bilan parchalashga, ajralgan yog' kislotalarini dietil efiri bilan ekstraksiyalashga, efirni haydab, qoldiqni doimiy og'irlikkacha quritishga asoslangan.

**Reaktiv va materiallar:** Sovun namunasi, 20%-li sulfat kislotasi, dietil efiri, distillangan suv, suvsiz natriy sulfat, 250 ml. hajmdagi konussimon kolba, suv hammomi, elektroplitka, ajratgich voronka, quritish shkafi.

**Ishning bajarilishi:** Tayyorlangan sovun namunasidan kolbaga 3-5 g. tortib olinib, 60 ml. qaynash darajasigacha isitilgan distillangan suvda eritiladi. Keyin kolbadagi eritma 35-40 °Sgacha sovitilib, 20%-li sulfat kislotasi quyib, metiloranj ishtirokida aralashtiriladi. Sulfat kislotasini qo'shish jarayoni to'q qizil rang hosil bo'lguncha davom ettiriladi. Kolba ichidagi ajralib chiqqan yog' kislotalarini suv hammomida isitiladi. Qizdirish jarayoni to yog' kislotalari qatlami tiniqlashguncha davom ettiriladi. Kolbadagi yog' kislotalari tiniq holatga o'tgandan keyin, sovitilib, uni ichiga 25 ml. etil efiri quyiladi va yaxshilab aralashtiriladi. Kolbadagi aralashmani ajratgich voronkaga quyiladi. Ajratgich voronkasiga quyilgandan keyin 2 ta qatlam hosil bo'lishini kutiladi. Suv qatlami pastga cho'kadi, efir va yog' kislotalarining aralashmasi yuqoriga chiqadi. Pastgi suv qatlami, sovunni sulfat kislotasi bilan parchalash jarayoni olib borilgan kolbaga quyiladi, efir qatlami toza, quruq kolbaga quyiladi. Suv qatlamanidan yog' kislotalarini ajratib olish jarayoni yana 2 marta davom ettiriladi, yog' kislotalari va efir aralashmasi alohida kolbaga yig'ilib yuvish uchun ajratgich voronkaga solinadi. Barcha efir va yog' kislotalari aralashmasi distillangan suv bilan neytral reaksiyagacha yuviladi. Har bir yuvishga 15-20 ml. dan distillangan suv olinadi . Efir aralashmasi neytral reaksiyagacha yuvilgandan keyin quruq kolbaga quyilib, uning ustiga 5 g. suvsiz natriy sulfat solinadi va aralashtiriladi. Bundan maqsad efir aralashmasini suv yuqlaridan mustasno qilishdan iborat. Suvdan tozalangan efir aralashmasini quruq, tortilgan sayqallangan kolbaga quyilib, efirni, haydash qurilmasi yordamida uchirib yuboriladi. Keyin kolbadagi qolgan yog' kislotalarini 70 °S da quritish shkafida quritiladi. Quritish jarayonida namuna dastlab 1 soat, keyin har 15 min. qizdirilgandan keyin sovitilib tortiladi. Quritish har bir 15 daqiqadan keyingi og'irliklar farqi 0,005 g. dan kam bo'lguncha davom ettiriladi.

Yog' kislotalarining massa ulushi quyidagi formula yordamida aniqlanadi (%):

$$X = m_1 \cdot 100/m$$

bu yerda:  $m_1$ - quritilagandan keyin kolbada qolgan qoldiq, g.;  $m$ - analizga olingan sovun miqdori, g.

Demak, sifat soni deb, 1 dona sovun bo‘lagi tarkibidagi yog‘ kislotalarining miqdoriga aytildi, u esa 74 yoki 78 ga teng bo‘lishi kerak, agar bir dona sovun bo‘lagining og‘irligi 100 g. va uning tarkibidagi yog‘ kislotalari 80 % bo‘lsa, boshqacha aytganda 80% atir sovunining sifat soni 78 g. ga tengdir.

## 7 - LABORATORIYA ISHI MARGARINNING ANALIZI

**Ishning maqsadi:** Talabalarga margarindan namuna olish, namlikning massaviy ulushni aniqlashni o‘rgatishdir.

### **Umumiy tushunchalar.**

Margarin sariyog‘ga o‘xshash yog‘ sifatida 1869- yilda fransuz kimyogari Mej-Mure tomonidan ishlab chiqarilgan. U eritilgan mol yog‘ining tez eriydigan qismini sigir oshqozonidagi zardob yordamida emulsiyalab, hosil bo‘lgan aralashmani o‘ta sovuq suvda sovitib, yarim qattiq, och sariq rangli, yaltiroq donachalar hosil qiladi. Mej-Mure ularni margarin deb atadi. (Margjaret-fransuzcha -marvardi).

Moylarning oziqa qiymati ularning energetik qiymati va fiziologik ta’siri orqali aniqlanadi. Margarin inson organizmiga singishi jihatidan sariyog‘dan qolishmaydi, energetik qiymati jihatidan esa undan yuqori turadi.

Ma’lumki, mayda zarrachali emulsiya holatidagi yog‘lar kishi organizmiga yaxshi singadi. Bunga yog‘larning suyuqlanish harorati ham ta’sir etadi. Shu sababli, margarin uchun ishlatiladigan yog‘larning suyuqlanish harorati 31-34° dan yuqori bo‘lmasligi kerak. Margarinda mavjud bo‘lgan essensial (to‘yinmagan) yog‘ kislotalari uning fiziologik qiymatini oshiradi.

Hozirgi vaqtida, yog‘-moy sanoatida xilma-xil margarinlar, kulinar, qandolat va nonpazlik yog‘lari ishlab chiqariladi. Margarin mayda zarrachali suv-yog‘ emulsiyasi bo‘lib, uning tarkibiga yog‘lar, o‘simlik moyi, sut, emulgatorlar, rang va hid beruvchi moddalar, tuz, shakar, vitaminlar kiradi.

Sut margaringa tabiiy yoki achitilgan (qatiq) holida sariyog‘ga xos maza va hid berish uchun qo‘shiladi. Shu maqsadda turli hid beruvchi moddalar (aromatizatorlar), turg‘un emulsiya olish uchun MG, MGD, quruq sut kabi emulgatorlar ishlatiladi.

Margarin retsepturasiga, sariyog‘ rangini berish uchun oziqaviy rangli moddalar, tuz va shakar esa maza berish uchun kiritiladi. Bundan tashqari, tuz va shakar margarinning saqlanish muddatini uzaytiradi.

Kulinar, qandolat va nonpazlik yog‘lari margarindan farq qilib, deyarli suvsiz bo‘ladi. Ularni tayyorlash uchun tozalangan va hidsizlantirilgan, gidrogenlangan moylar, hayvon yog‘lari va o‘simlik moylari ishlatiladi.

Margarin tarkibida 82% yog‘ bo‘lishi, namlik miqdori 16,5% dan oshmasligi, tuz 0,2-0,7%, Ketstorfer darajalarida kislotaligi 2,5 mg KON dan oshmasligi kerak. Margarindan ajratilgan yog‘ning erish harorati 27-33° , nikel miqdori juda kam bo‘lishi kerak. Organoleptik ko‘rsatkichlarga ko‘ra margarin mazasi va xushbo‘yligi bilan sariyog‘ga o‘xshashi, toza, mazali, xushbo‘y konsistensiyasi bir jinsli, plastik, rangi butun massa bo‘yicha bir xil, bo‘yalgan margarin uchun och sariq, bo‘yalmagani uchun oq bo‘lishi kerak.

Qovurilganda margarin sachramasligi lozim. Margarinning analiz namlik miqdori, kislotaligi, quruq modda miqdori, yog‘i va organoleptik ko‘rsatkichlari aniqlanishi kerak.

### *Margarindan namuna olish*

Margarin analizi vaqtida uning namligi, kislota soni, quruq qoldiq miqdori, tuz va yog‘ miqdori, shuningdek, organoleptik ko‘rsatkichlari hid, ta’m, 18° dagi konsistensiyasi va rangi aniqlanadi.

Analiz uchun namunalar ishlab chiqarilayotgan har bir partiyadan olinadi. Yashiklardan (monolit) namuna shup bilan yashikning oldi devoridan solinib, yon balandlikka parallel ravishda tiqib olinadi. Bochka yoki fanerli barabanlardan namuna shupning yon chetidan markazigacha tiqib olinadi. Agar margarin bo‘laklarda ishlab chiqarilayotgan bo‘lsa, analizga ajratilgan bo‘laklarning qog‘ozi olinadi va qoq markazidan ikkiga bo‘linadi. Kesimning hamma yuza qismidan 50 g ga yaqin margarin namunasi olinadi. Olingan namuna bonkalarga joylashtiriladi va harorati 40-45° bo‘lgan suv hammomiga solinadi. Margarin erib ketmasdan ma’lum bir harakatchanlikka ega bo‘lishi uchun har 2 daqiqa orasida aralashtirib turiladi. Margarin harakatchan bo‘lishi bilan bonka suv ichidan olinadi va massa qotib qolguncha aralashtiriladi. Analiz uchun namuna shu qotib qolgan massadan olinadi.

### Namlikning massa ulushini aniqlash

Namlikning massa ulushini ikkita usul bilan aniqlash mumkin: margarin namunasini quritish shkafida doimiy og‘irlikkacha quritish (arbitraj usuli); elektrisitkichda quritish (tezlashtirilgan usul). Tezkor nazorat uchun ko‘pincha ikkinchi usuldan foydalaniladi.

*Usul mohiyati.* Usul margarin namunasini 160-180° haroratda quritishga asoslangan.

**Kerakli reaktiv va asboblar:** soat oynasi, qizdirilgan qum, tarozi, elektrisitkich, shisha tayoqcha, diametri 40-50 mm, balandligi 40-60 mm bo‘lgan metall byuks.

### Ishning bajarilishi

Quritilgan, shisha tayoqchali metall byuksga 10-15 g qizdirilgan qum, 5-6 g margarin texnik tarozida tortib olinadi va elektrisitkichda 160-180° haroratda shisha tayoqcha bilan uzlusiz aralashtirib qizdiriladi. Chirsillash tugagach, byuksning yuzi soat oynasi bilan yopiladi. Quritish jarayonining tugagani soat oynasi xiralashmasligi va margarin rangining to‘q-qizil rangga kirishidan bilinadi. Buning uchun soat oynasi har zamonda olinib, yuzasi (sirti) tekshiriladi.

Namlik haydalgach, byuks isitkichdan olinadi, sovitiladi va tortiladi.

Namlikning massa ulushi X quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X=(m_1-m_2)*100/m,$$

bunda:  $m_1$  — margarinli byuksning quritguncha bo‘lgan og‘irligi, g;  $m_2$  — margarinli byuksning quritgandan keyingi og‘irligi, g;  $m$  — namunani og‘irligi, g.

Parallel aniqlashdagi farq 0,2 % dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. V.G. Sherbakov «Osnovi upravleniya kachestvom produksii i texnoximicheskiiy kontrol jirov i jirozameniteley» M. Agropromizdat 1985g.
2. «Rukovodstvo po metodom issledovaniye texnoximicheskому kontrolyu i uchytu proizvodstvo v MJP» L. VNIIJ. 1982g. tom U1, vypusk 3. 417s.
3. V.M. Kopeykovskiy, A.K. Mosyan i dr. «Laboratorniy praktikum po texnologii proizvodstvo rastitelnix masel» M. 1990g.
4. Y. Qodirov «Yog‘larni qayta ishlash texnologiyasi laboratoriya mashg‘ulotlari» T. TKTI 2002y.
5. Y.Qodirov «O‘simglik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi» fanidan laboratoriya ishlari bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. Toshkent TKTI, 1997.

## MUNDARIJA

Kirish.....	
Texnika habsizligi.....	
1. 1 - Laboratoriya ishi	
Paxta chigitidagi momiq miqdorini aniqlash.....	
2. 2 - Laboratoriya ishi	
Sheluxadagi moy miqdorini aniqlash.....	
3. 3 – Laboratoriya ishi	
Ekstraksion moyni chaqnash haroratini va cho‘kma miqdorini aniqlash.....	
4. 4 – Laboratoriya ishi	
Moylarni kislota sonini aniqlash.....	
5. Moyning tarkibidagi namlik va yengil uchuvchan moddalarni aniqlash.....	
6. Atir sovundagi yog‘ kislotalari miqdorini aniqlash.....	
Adabiyotlar ro‘yxati.....	
7. Margarin analizi.....	
8. Ilova.....	

# GLOSSARY

**Surunkali xatolar** – taxlil natijasini faqat ortish yoki faqat kamayish tarafiga aniqligini buzadi.

Bu hatolar namuna ajratish uskunalarining nomukammalligi yoki tadqiqot usulidan cheklanishlar yo'l qo'yilishi natijasida, doimiy ravishda vujudga keladi.

**Xromatografiya** lotincha «xromos» - rang va «grafo» - yozmoq so'zlaridan tashkil topgan.

Birinchi marta 1903yil rus olimi M.S.IQvet tomonidan o'simlik pigmentlarini adsorbstiyalanish qobiliyati ko'ra ajratishda 161na161 tadqiqot usuli qo'llanib, usulning asosiy prinstip va texnikasi tavsiya qilingan va «xromatografiya» deb nomlangan. Xozirgi vaqtida bu usul ham rangli ham rangsiz moddalar taxlilida qo'llanadi.

**Adsorbstiya** – bu qattiq yoki suyuq modda sirtida boshqa modda molekulalari va atomlari yig'ilishi jarayonidir.

**Desorbstiya** – adsorbstiya jarayonining teskarisi, ya'ni modda sirtiga yutilgan gaz yoki suyuqlikning ajralishi.

**Front chizig'i** - qog'ozga shimilib borayotgan xarakatlanuvchi faza chegarasi tushuniladi.

**Identifikasiya** – ayrim-ayrim dog'lar ko'rinishidagi ajralgan moddalarni aynan qaysi modda ekanligini aniqlash.

**Metillash**-organik kislotlarni metil spirti bilan reakstiyaga kirishib, metil efirlarini hosil qilishi.

**Lipidlar** – yogsimon moddalar bulib, bu gurux moddalar turli xil kimyoviy strukturaga ega bulishiga karamay, gidrofobligi va suvda erimasligi xamda fakat organik erituvchilarda erish xususiyatlarga kura bir guruxga umumlashtirilganlar. Lipidlarga yoglar, mumlar, pigmentlar (xlorofillar va karatinoidlar), fosfolipidlar, glikolipidlar va stiroidlar kiradi.

**Detektor** – to'g'rilaqich, ya'ni xromatografda kolonkadan chiqayotgan gaz-par oqimining o'zgarayotgan fizik yoki kimyoviy xossasi detektorda qayd qilingan signalni kuchaytirilib, samopisest – chizuvchi moslama yordamida xromatogramma qurinishida chizib boriladi.

**Glisterid** – glisterinning organik kislotalar va boshqa moddalar bilan hosil qilgan murakkab birikmalari

**Xromatogramma** – xromatograf qurilmasida namunani tahlil qilganda qog'ozda paydo bo'ladigan grafik. Unda xar bir pik(do'nglik) moddaning miqdoriga bog'liq bo'ladi.

**Spektroskopiya** – optik spektrlarni o'rganuvchi bo'lim. Moylar tadqiqotida spektroskopiya yog' kislotalari va efirlari, moylar va ularning oksidlanish, polimerlanish, gidrogenlanish maxsulotlari, tuzilishi va tarkibi murakkab bo'lgan moylarning yo'ldosh moddalari tadqiqot qilinadi

**Kolorimetriya** – kolorimetrik reakstiya maxsulotini yorug'lik nurini ko'rinvchi spektrlarini yutishi orqali o'lchashga asoslangan

**Kolorimetrik reakstiya** – bu re akstiya natijasida rangsiz maxsulotning rang xosil qilishidir. Bu usulga 161na yorug'lik filtrlari yordamida, yorug'lik spektrlarini ayrim qismlarini ajratib, har qanday rangli moddalarning yorug'likni yutish qobiliyatini aniqlovchi uskunalarni qo'llash ham kiritilgan.

**Diafragma** – tanlab o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan parda, to'siq.

**Refraktometriya** – moddalrni nur sindirish ko’rsatkichini o’lchashga asoslangan tadqiqot usullaridan biri.

**Nur sindirish ko’rsatkichi**- har bir muhit absolyut sindirish ko’rsatkichi ( $n$ ) bilan harakterlanib, bu kattalik yorug’likning vakuumda tarqalish tezligining muhitda tarqalish tezligiga nisbati bilan aniqlanadi

**Oqsil** – aminokislotalarni peptid bog’lar orqali hosil qilgan murakkab birikmaları.

**Aminokislota** – tarkibida amino gruppasi saqlovchi organik kislota

## TEST SAVOLLARI

I. Fanning maqsadi - .....	lipidlar kimyosini chuqurroq taxlil qilish imkoniyatini yaratadi.	oziq-ovqat texnologiyasini o'rgatish	texnologik uskunalar bilan tanishtirish	yog'lar strukturasini tushuntirish
2. O'rtacha namunani ahamiyati nimada?	U tahlil namunasidir	O'rtacha namuna tahlil qilinayotgan moddani to'liq xarakterlaydi	O'rtacha namuna miqdori tahlil qilinayotgan modda miqdoriga teng bo'ladi	O'rtacha namunaning miqdori 1g dan oz bo'lmasligi kerak
3. Tasodifiy xatoning natijaga ta'siri qanday?	Tasodifiy xato natijaga ta'sir qilmaydi.	Tasodifiy xato natijani faqat kamayish tarafiga o'zgartiradi.	Faqat ortish tarafiga aniqligini buzadi.	Natijaning ortish yoki kamayish tomoniga aniqligini buzadi
4. Namunani quritishda oksidlanish jarayonini oldi qanday olinadi?	Namunani maydalash kerak.	Namuna xona sharoitida quritiladi.	Quritish shkaflarida quritiladi.	Vakuumda yoki nert gaz muhitida quritish kerak.
5. Surunkali xatolar tahlil natijasiga qanday ta'sir qiladi?	Natija aniqligini ham ortish, ham kamayish tarafiga aniqligini buzadi	Tahlil natijasiga ta'sir qilmaydi.	Tahlil natijasi aniqligini faqat ortish yoki faqat kamayish tarafiga buzadi.	Tahlil natijasiga minimal ta'sir qiladi.
6. Namunani tahlilga tayyorlash jarayonlariga qo'yiladigan eng asosiy talab bu ...	jarayonlarning tezligi.	moddalar o'zgarmasligini saqlab qolish	Jarayonlar-ning murakkabligi.	namuna tarkibidagi moddalarini qisman saqlab qolish.
7. Maxsulot sifati va xossalaring o'zgarishi nimaga bog'liq?	tashqi muhit haroratiga	Maxsulot tarkibining o'zgarishiga	taxlil natijasiga	hamma javoblar to'g'ri
. Xromotografiya nima?	Namuna tayyorlash usuli	O'rtacha namuna tayyorlash jarayonlarining bir bosqichi	Maxsulot-ning ma'lum moddalarini fizik-kimyoviy xossalari asosida bir-biridan ajratib, miqdori va nisbatini	To'yinmagan yog' kislotalarini vodorod bilan to'yintirish jarayoni.

			aniqlash usuli.	
9. Adsorbtion xromotografiya moddalarning qaysi xususiya-tiga asoslangan?	Qaynash temperaturasiga	Erish temperaturasiga	Ervchanligiga	Xar xil adsorbstiyalanishiga
10. 1Moddaning sorbstiyalanish qobiliyati nimaga bog'liq?	Uning qaynash temperatura-siga	Uning kimyoviy tuzilishi va sorbentning fizik-kimyoviy xossalari	Uning aralashma tarkibidagi miqdoriga	Faqat sorbentning xusustiyatlariga
11. Lipldar qaysi erituvchilarda yaxshi eriydi?	Qaynatilgan erituvchilarda	Distillangan suvda	Yuqori molyar erituvchilarda	O'zining dielektrik singdiruvchanligiga yaqin bo'lgan kam polyar organik erituvchilarda
12. Ma'lum polyarlikka ega bo'lgan erituvchi sistema qanday tayyorla-nadi?	Organik erituvchini qayta xaydash yordamida	Turli polyarlikka ega bo'lgan 2ta organik erituvchini ma'lum nisbatda aralashtirish orqali	Bir xil polyarlikka ega bo'lgan 2ta organik erituvchini aralashtirish orqali.	Organik erituvchiga faqat suv qo'shish orqali
13. Adsorbtion molekulyar xromatografiya moddalarning qanday xususiyatiga asoslangan?	Moddalarning turli eruvchanlik xususiyatiga	Moddalarning har xil qaynash temperatu-rasiga	Moddalar-ning har xil adsorbstiyalanish xususiyatiga	Yuqorida keltirilgan barcha xususiyatlariga
14.Quidagi usullardan qaysilari xromotografik usullar deyiladi?	A)Adsorbtion molekulyar xromotografiya,	B)Kolonkali xromotografiya	V)Gazsuyuqlik xromotografiya	A. B. V
15.Qaysi tenglama Lengmyur tenglamasidir.	$n = \frac{Z \cdot W \cdot C}{t - W \cdot C}$	$\Pi = a \cdot c \cdot \delta$	$n = \frac{Z \cdot W}{t - W}$	$\Pi = a \cdot c$
16.Moddani sorbstiyalash qibiliyati nimalarga bog'liq?	A V	B, V	A	A, B, V.

A) Kimyoviy tuzilishiga, B) Tabiatiga V) Adsorbentning fizik va kimyoviy xossalariга bog'liq				
17. Adsorbstiya zotermasini toping.	$n = a \cdot c$	$n = a \cdot c \cdot \delta$	$\frac{c}{c} = const = K$	$n = \frac{a}{c}$
18. Lipedlar qaysi erituvchilarda yaxshi eriydi.	Benzol	Asteton	Qizdirilgan benzin bug'larida	Kam polyar organik erituvchilarda
19. Xromatogra-fik qog'oz ishlashdan oldin qaysi kislota-larda yuviladi.	HCl · H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	HJ. H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	o'g'ri javob yo'q.
20. Qog'ozli xromotografiyada qog'ozning qaysi markalari qo'llaniladi.	«M» (sekin)	«B» (tez)	«B» «B»	«M», «B»
21. Bo'yagan dog' qaysi moda ekanligini aniqlashda R <sub>f</sub> – ko'rsatkichi muhim ahamiyatiga ega va qanday aniqlanadi.	$R_f = \frac{an}{c}$	$R = \frac{an}{c}$	$R_f = \frac{ac}{n}$	$R_f = \frac{a}{c}$
22. Gidrofob aralaşmalarni qog'ozli xromotografiya qilish uchun qaysi erituvar ishlataladi?	benzin, kerosin	Asteton, benzin	kerosin, vazelin, parafin	vazelin, benzol
23. Qog'ozli xromotografiya turlarini ko'rsating.	Adsorbstion molekulyar xromotografiya, kolonkali xromo-tografiya	Kolonkali xromotografiya, yuqoriga ko'tariluvchi xromotografiya, gorizontall xromotografiya	Gorizontal xromoto-grafiya, yuqoriga ko'tariluvchi xromoto-grafiya, pastka	Radial xromotografiya, gorizontal xromotografiya, kolonkali xromotografiya, adsorbstion

			tushuvchi xromoto- grafiya, radial xromoto- grafiya	xromotografiya
24. Xromogramma- da aralashma komponenti miqdori qanday aniqlanadi?	$a = \frac{(VR) \cdot 2}{(VR) \cdot 1}$	$Ag = \frac{2\Delta y}{y_1 + y}$	$Sn = \frac{x \cdot y}{2}$	$N = 16 \left( \frac{x}{y} \right)^2$
25. Xromogramma- da har bir moddaning % miqdori qanday aniqlanadi?	$a = \frac{(VR) \cdot 2}{(VR) \cdot 1}$	$Ag = \frac{2\Delta y}{y_1 + y}$	$Sn = \frac{x \cdot y}{2}$	$Cn = \frac{Sn}{\Sigma Sn} \cdot 100(%)$
26. Moyning yog' kislota tarkibi aniqlanganda, yog' kislotalarning metil efirlari qo'llanilishining sababi nima?	Ular yog' kislotalarga nisbatan yuqori temperaturada qaynaydi.	Ular yog' kislotalarga nisbatan past temperaturada qaynaydi.	Ular juda yuqori temperaturada parchalanadi.	Chunki yog' kislotalarning o'zi qayna-maydi.
27. Xromograf kolonkasi to'ldiriladigan qattiq faza qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?  1) zich; 2) eruvchan; 3) mexanik pishiq; 4) inert; 5)yirik g'ovakli	- 1, 2, 3	- 3, 4, 5	- 1, 2, 4	- 2, 4, 5
28. Paxta moyining yog' kislota tarkibi	(M) = 0,49% (P)= 24,77% (P <sub>0</sub> ) = 0,57% (S) = 1,93% (O)= 15,37% (L)= 53,03%	(M) = 50 (P) = 25,6% (P <sub>0</sub> )= 0,60% (S) = 2% (O) = 0,1% (L) = 55%	(M) = 1% (P) = 25% (P <sub>0</sub> ) = 1% (S) = 16% (O) = 0,1% (L) = 55%	(M) = 2% (P) = 0,25% (P <sub>0</sub> ) = 1,5% (S) = 10% (O) = 20% (L) = 57%
29. Moy tarkibidagi glisteridlar frakstiyasi toza holda qaysi usulda	Kolonkali adsorbsion xromotografiya usulida.	Gaz-suyuqlik xromatografiya usulida.	Qog'ozli xromatografiya usulida.	Kolorimetriya usulida.

ajratib olinadi?				
30. Moy tarkibidagi yog' kislolar soni ma'lum bo'lsa, turli uchglisteridlar soni qanday aniqlanadi?	$D = \frac{n\lambda}{2 \sin \gamma}$	$Sn = \frac{x \cdot y}{2}$	$N = 16 \left( \frac{x}{y} \right) 2$	$W = \frac{n^2(n+1)}{2}$
31. Molekulalar spektorini tahlil qilish orqali qanday axborotlarni olish mumkin?	Molekula tuzilishi va xossalari.	Shakli va o'lchamlari	Kimyoviy bog'lar energiyasi va tabiatи	Hammasi to'g'ri
32. Oddiy lampa qanday to'lqin uzunlikdagi spektr hosil qiladi?	Faqat ko'z ko'ruchchi	Ultra qizil	Infra binafsha	A va V javoblar to'g'ri
33. Hatlovchi moslamalarni ishlash prinstipi bo'yicha, spektr uskunalari qanday turlarda bo'lishi mumkinligini ko'rsating?	Spektro-graflar	Spektrofotometrlar	Spektrometr-lar	hamma javoblar to'g'ri
34. Yog' kislotalarda qo'shbog'-ning uzoqlashishi quyidagi spektrlar ni qaysi birida seziladi?	$15 \cdot 20 \text{ sm}^{-1}$	$1670 \cdot 1650 \text{ sm}^{-1}$	$1340 \text{ sm}^{-1}$	$1780 \text{ sm}^{-1}$
35. Spektroskopiya sifatini baholovchi kattaliklarni sanab o'ting.	Taqsimlash qobiliyati va to'g'ri tebranish	yorug'lik kuchi va chiziqli dispersiyalash	faqat chiziqli dispersiyalash	yorug'lik kuchi, chiziqli dispersiyalash va taqsimlash qobiliyati
36. Kolorimetriyaning maqsadi?	Moddalar sindirish ko'rsatkichini aniqlash	Eritma-larning konstentrastiya-sini aniqlash	Moddalar rangini aniqlash	Yog'larning yog' kislota tarkibini aniqlash
37. Kolorimetriyaning vizuol usullari?	Standart eritmalar va tahlil qilinayotgan moddalarning ranglarini	Maqsadi eritmalarining konstentrastiya-sini aniqlash	Reakstiya natijasida rangsiz mahsulotning	Rentgenostruktur tahlil usulidir

	solishti-rishga asoslangan.		rang hosil qilishidir	
38. Eritmaning konsten-trastiysi quyidagi formula asosida hisoblanadi.	$C_x = Cm \frac{D_x}{D_{cm}}$	$C_x = \frac{C_{cm} \cdot d_{cm}}{d_x}$	$R_f = \frac{an}{c}$	$W = \frac{n^2(n+1)}{2}$
39. Eng ko'p tarqalgan fotokolorimetrlar qaysilar?	FEK-M, FEK-N-54, FEK-56	FM-56, FEK-M, FM-57	KOL-1M, FM-56	FM-56, FM-57, FM-58
40. To'yinma-gan yog' kislotalar qo'shbog'larining bir-biriga nisbatan yaqinla-shishi nimaga olib keladi.	Molekulyar og'irligini oshishiga	Erish haroratini oshishiga	Sindirish ko'rsatkichinin g oshishiga	Sindirish ko'rsatkichining kamayishiga
41. Moddani sindirish ko'rsatkichi qaysi faktorlarga bog'liq.	Moddani tabiatiga	Tashqi muhit sharoitiga	Moddaning agregat holatiga	Hamma javob to'g'ri
42. Ma'lum harorat-dagi ( $t_2$ ) sindirish ko'rsatkichini hisoblash formula-sini toping.	$n^{t_2} = n^{t_1} - f(t_2 - t_1)$	$n^{t_2} = n^{t_1} - (t_2 - t_1)$	$\frac{\sin i_1}{\sin i_2} = n_{i1} = \frac{n_2}{n_1}$	$n = \frac{n_2 - 1}{(n_2 + 2)P} = \frac{4\pi}{3} \cdot \frac{N_A}{M} \cdot \alpha$
43. Hamma moy uchun sindirish ko'rsat-kichini yaqin-lashgan qiymatini qaysi formula bilan aniqlanadi	$nD = n^1_D + 0.00007K + 0.0003H - 0.00025\phi$	$n^{t_2} = n^{t_1} - f(t_2 - t_1)$	$n = \frac{n_2 - 1}{(n_2 + 2)P}$	
44. Tashqi muhit ta'siriga va moda aggregatiga bog'liq bo'limgan kattalik nima?	Sindirish ko'rsatkichidir	Solishtirma refrakstiyalar	Moddaning molyarli-gidir	To'lqin uzunligidir
45. Vulf-Bragg formulasi ko'rsatilgan javob-ni ko'rsa-ting?	$n\lambda = 2d \cdot \sin V$	$Sn = \frac{x \cdot y}{2}$	$N = 16 \left( \frac{x}{y} \right) 2$	$W = \frac{n^2(n+1)}{2}$
46. Rentgen nurlarining difrak-stiyasi	Rentgen nurlarining moda orqali o'tish	Rentgen nurlarining moda	Rentgen nurlarining	Rentgen nurlarining

deb nimaga aytiladi?	vaqtida to'lqin uzunligining o'zgartirmasdan qaytarilishi	orgali o'tish vaqtida to'lqin uzunligining o'zgartirib qaytarilishi	moda orgali o'tish vaqtida ozgina to'lqin uzunligi-ning o'zgarishi	umumiyl o'zgarishi
47. Tahlil qilina-yotgan modda struktu-rasi asosiy qatlamlari orasidagi masofa qanday topiladi?	$C_x = Cm \frac{D_x}{D_{cm}}$	$D = \frac{n\lambda}{2 \sin V}$	$Sn = \frac{x \cdot y}{2}$	$R_f = \frac{an}{c}$
48. Rentgen uskunalar bilan ishlaganda qaysi tildagi o't o'chirish vositasi bo'lishi kerak?	OP-1	«Tayfun»	OUP-2	Qum
49. Rentgenostruktur tahlil laboratoriyasi uchun rentgen uskunalarining rentgen trubkasi joylashtiriladigan devori qanday metaldan bo'lishi kerak?	Mis	Temir	Qo'rg'oshin	Rux
50. Kolorimetriyani ng vizual usullari nimaga asoslangan?	Standart eritmalar va taxlil qilinayotgan moddalar ranglarini solishtirishga asoslangan.	Maqsadi eritmalarining konstentrasiyasini aniqlash	Reakstiya natijasida rangsiz maxsulotning rang xosil qilishidir.	Rentgenostruktur taxlil usulidir.
51. Gaz-suyuqlik xromatografiyasini ng o'ziga xosligi nimada?	Moddalar aralashmasini ajratadi	Xarakatlanuvchi faza sifatida inert gaz ishlatiladi	Murakkab tarkibli moddalarni yaxshi ajrata oladi	Bir-biriga yaqin xususiyatli moddalarni yaxshi ajratadi
52. Xar qanday tadqiqot aniqligi nimaga bog'liq? 1. tempe-raturaga 2. aniq na-muna olishga 3. tadqiqot	3	1,3	1,2	2,3

usulining mukammalligiga				
53. Aniq namuna olish to'liq bosqichlari qaysilar?	Namuna ajratish	Namuna yig'ish, umumiy namuna xosil qilish va tax-lil namunasi-gacha qisqar-tirish	Namunani taxlil qilish	Laboratoriya namunasini taxlil qilish
54. Eng ko'p tarqalgan fotokolorimetrlar qaysilar?	FEK-M, FEK -N-54, FEK-56;	FM – 56, FEK – M, FM – 57;	KOL 1M, FM - 56;	FM – 56, FM -57, FM -58
55. To'yinmagan yog' kislotalar qo'shbog'larining bir-biriga yaqinligisindirish ko'rsatgichiga qanday ta'sir qiladi?	Qonuniyat mavjud emas	Xaroratga bog'liq ravishda turliche	Sindirish qo'rsatgichi oshadi	Sindirish ko'rsatgichi kamayadi
53. Moddaning sindirish ko'rsatkichi qaysi faktor-larga bog'liq?	Tashqi muxit sharoitiga	Moddani agregat xolatiga	Moddaning zichligiga	Xama javob to'g'ri
54. O'rtacha namunani ahamiyati nimada?	U tahlil namunasidir	O'rtacha namuna ahvil qilinayotgan moddani to'liq xarakterlaydi	O'rtacha namuna miqdori tahlil qilinayotgan modda miqdoriga teng bo'ladi	O'rtacha namuna tashlab yuboriladi
55. Tasodifiy xatoning natijaga ta'siri qanday?	Tasodifiy xato natijaga ta'sir qilmaydi.	Natijaga aniqlik kiritadi.	Tasodifiy xato natijani faqat kamayish tarafiga o'zgartiradi.	Natijaning ortish yoki kamayish tomoniga aniqligini buzadi.
56. Namunani quritishda oksidlarni jarayonini oldi qanday olinadi?	Namunani maydalash kerak.	Namuna xona sharoitida quritiladi.	Quritish shkaflarida quritiladi.	Vakuumda yoki nert gaz muhitida quritish kerak.
57. Surun-kali xatolar tahlil natijasiga qanday	Natija aniqligini ham ortish, ham kamayish tarafiga aniqligini	Tahlil natijasiga ta'sir qilmaydi.	Tahlil natijasi aniqligini faqat ortish yoki faqat	Tahlil natijasiga minimal ta'sir qiladi.

ta'sir qiladi?	buzadi		kamayish tarafiga buzadi.	
58. Namunani tahlilga tayyorlash jarayonlariga qo'yila-digan eng asosiy talab bu - ....	- jarayonlarning tezligi.	- moddalar o'zgarmasligini saqlab qolish.	- jarayonlar-ning murakkabligi.	- namuna miqdorini saqlab qolish.
59. Maxsulot sifati va xossalaring o'zgarishi nimaga bog'liq?	Tashqi muhit haroratiga	Maxsulot tarkibining o'zgarishiga	Taxlil natijasiga	Tasodifiy xatoning yo'qligiga
60. Xromotografiya nima?	Namuna tayyorlash usuli	O'rtacha namuna tayyorlash jarayonlarining bir bosqichi	Maxsulot-ning ma'lum moddalarini fizik-kimyoviy xossalari asosida bir-biridan ajratib, miqdori va nisbatini aniqlash usuli.	Yog' kislotalar tarkibidagi trans-izomerlar miqdorini aniqlash usuli.

## XORIJUY MANBALAR

1. А.Н.Ларин. Общая технология отрасли. Иваново. 2006. 76с.
2. Арутюнян Н.С. и др. Технология переработки жиров. М.Пищепромиздат. 1998. 452с.
3. Арутюнян Н.С..Рафиназия масел и жиров, С.Пб. ГИОРД, 2004. 288с.
4. Б.Г.Щербаков. Биохимия и товароведение масличного сырья , М.Пищевая промышленность, 1969, 447с.
5. Б.П.Разговоров, В.К.Горшков. Технологическое оборудование отрасли: расчеты в масложировых производствах. Учебное пособие. Иваново, 2009. 48с.

6. Березин М.А., Истихин С.В., Кузнесов В.В. Практикум по расчетам технологического оборудования пищевых производств. Учебное пособие. Саранск 2009. 64с.
7. Васильева В.Г. Дезодорозия в масложировой промышленности, М. 2003. 176с.
8. Е.Д.Ситников. Практикум по расчетам оборудования предприятий для производства жиров. М. Агропромиздат. 1991.128с.
9. Е.П.Кошевой. Практикум по расчетам технологического оборудования пищевых производств. С.Пб., Гиорд, 2005. 232с.
10. И.В.Молчанов. Технологическое оборудование жироперерабатывающих предприятий. М.Пищевая промышленность. 1965.554с.
11. И.М.Товбин и др. Гидрогенизация жиров. М. Легкая и пищевая промышленность. 1981.296с.
12. И.М.Товбин и др. Технологическое проектирование жироперерабатывающих предприятий.М.Пищевая промышленность. 1965. 515с.
13. И.М.Товбин,Г.Г.Фаниев. Рафинация жиров. М. Пищевая промышленность. 1977, 238 с.
14. Калошин Ю.А. Технология и оборудование масложировых предприятий. М. 2002. 363с.
15. Ричард О'Брайен. Жиры и масла. Производство, состав и свойства, применение. пер. с англ. СПб. Профессия. 2007. 752с.
16. Руководство по технологии получения и переработки растительных масел и жиров. 2 (под ред Сергеева)/Т 1, кн 2. 1974.
17. Руководство по технологии получения и переработки растительных масел и жиров. (под ред Сергеева) т.3 кн.2/ 1977. 351с.
18. С.А. Нагорнов, Д.С. Двореский, С.В. Романсова, В.П. Таров Техника и технологии производства и переработки растительных масел, Тамбов. 2010. 96с.
19. С.И. Двореский, Е.В. Хабарова. Основы проектирования пищевых производств, Тамбов. 2008. 92с.
20. Т.К.Акаева и др. Основы химии и технологии получения и переработки жиров. Часть 1. Технология получения растительных масел. Иваново. 2007. 124с.
21. Экспертиза масел и жиров. Новосибирск 2007. 240с.
22. Jurnal «Масло-жировая промышленность».
23. Jurnal «Пищевая промышленность».
24. 12.Saytlar: <http://www.koloss.ru/pub/CatView.asp?Catid=10722>
25. [http://www.bankreferatov.ru/db/M/BF6A3FEF55072EA6C3256F\\_71003DC544/](http://www.bankreferatov.ru/db/M/BF6A3FEF55072EA6C3256F_71003DC544/)  
<http://mshp.minsk.by/education/ychebno-metodicheskiycenter/umd/prog/1>  
<http://tashkent.marketcenter.ru/contant/dok-0-203/html/>

## FOYDALI MASLAHATLAR

**Oziq- ovqat mahsulotlarining sifati** - bu insonning ozuqaviy va ta'm beruvchi moddalarga bo'lgan fiziologik talabini ta'minlovchi xossalari majmui, ya'ni mahsulotlarning ozuqaviy qimmati va iste'molboplik xususiyatlarining majmuidir.

**Mahsulotlarning ozuqaviy (to'yimlilik) qiymati** - bu mahsulotlarning biologik va energetik qimmatini belgilovchi moddalar komplektidir. Mahsulotlarning ozuqaviy qimmati ularning sifatliligi (zararsizligi), hazm bo'lishi bilan to'yimli va biologik faol moddalar massasiining ulushi, organoleptik va fiziologik qimmatlari bilan tavsiflanadi.

**Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatliligi** - organoleptik va kimyoviy ko'rsatkichlar bilan (rang, ta'm, hid, konsistensiya, tashqi ko'rinish, kimyoviy tarkib), toksinlarning (zaharlarning), kasallik tug'diruvchi mikroblarning (salmonenllalar, proteya, botilinus va boshqalar), gijja tuxumlarining, zararli birikmalarning (simob, qo'rg'oshin, 3,4- benzpiren, pestitsidlar va boshqalar) zaharli o'simliklar urug'larining va begona aralashmalarning (metall, shisha va hokazolar) bo'imasligi bilan tavsiflanadi.

**Energetik qiymat** - mahsulotlardagi yog'lar, uglevodlar va oqsillarni biologik oksidlanishi paytida hosil bo'lgan energiya miqdori bo'lib, u organizmning fiziologik funksiyalari uchun qo'llaniladi. Organizmda 1 gr yog'ning oksidlanishidan 9 kkalloriya, 1 gramm oqsil oksidlanganda 4 kkal (16,6 KJ), 1 gr hazm bo'ladigan uglevodlar oksidlanganda - 3,75 kkal (15,7 KJ), 1 gr etil spirti oksidlanganda - 7 kkal (29,3 KJ) energiya ajraladi.

### **O'simlik, sut, gusht va tuxum fosfolipidlari**

Mahsulot	Fosfolipidlar miqdori	Mahsulot	Fosfolipidlar miqdori
Soya	1,8	Zig'ir	0,6
Paxta	1,7	Bug'doy	0,54
Kungaboqar	0,7	Javdar	0,6
Kanakunjit	0,3	Makkajuxori	0,9
Sut	0,03	Qoramol gushti	0,9
Tvorog	0,05	CHuchqa gushti	1,23
Tovuq tuxumi	2,39	Jigar	2,5

### **Oziq-ovqat mahsulotlaridagi xolesterin**

Obyekt	Xolesterin miqdori, %
Sariyog'	0,17-0,21
Tuxum	0,57
Pishloq	0,28-1,61
Gusht	0,06-0,1
Baliq	0,03-0,06

Lipaza fermenti, kislotalar yoki ishqorlar ta'sirida triatsilglitserinlar gidrolizlanadi va di-, keyin mono glitsеридлар ва nihoyat yog' kislotalar va gletsirin hosil qiladilar. Saqlanayotgan mahsulotlar namligi, harorati va lipazalar faolligining ortishi bilan bu jarayon tezlashadi. Lipidlarning va lipid saqlovchi mahsulotlarning gidrolitik parchalanishi oziq-ovqat texnologiyasidagi ko'plab jarayonlarning borishi paytida va oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash

paytida sodir bo'ladi. Yog' mahsulotlaridagi (shu jumladan lipidlarning gidrolizlanishidan hosil bo'lganlari ham) erkin yog' kislotalar miqdorini kislota soni bilan xarakterlash mumkin.

O'simlik moylari va hayvon yog'lari, yog' saqlovchi mahsulotlar (moyli urug'lar un, yorma, qandolat mahsulotlari, baliq, go'sht mahsulotlari) havo kislorodi yorug'lik, fermentlar va hokazolar ta'sirida o'zlariga xos, birinchi navbatda organoleptik, xossalariini saqlash paytida o'zgartiradi.

Yog'lar va yog' saqlovchi mahsulotlarning taxirlanishi – lipidlar kompleksida boradigan murakkab kimyoviy va biokimyoviy jarayonlar natijasidir. Buda sodir bo'ladigan asosiy jarayonlarning tavsifiga qarab gidrolitik va oksidlanish natijasidagi taxirlanish yuzaga keladi.

Qayta ishslash korxonalaridagi qurilmalar mavjud standart talablariga javob berishi kerak:

- qurilmalarni sexda joylashtirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak: avariya hollarining oldini olish;
- texnologik jarayonlarning uzlusiz ishlashi;
- montaj, ekspluatatsiya va remont qilganda ishning xavfsizligi;
- yong'inga qarshi vositalarning bo'lishi kerak.
- yuqori bosimda ishlaydigan qurilmalarning germetikligini tekshirish kerak;
- vakuum uskunalarini tekshirish, 0,2 Mpa bosim ta'sir qilib gidrovlik sinash;
- kimyoviy va boshqa turdag'i eritmalarini saqlaydigan, tashiydigan qurilmalar ish vaqtida eritmalarini sachratmasligi kerak.
- texnologik qurilmalar — qizdirgichlar, qozon va avtoklavlar yaxshi germetik bo'lishi kerak.
- transportyorlar, maydalagichlar va presslarni maxsus maydonlarga o'rnatish kerak.
- nasos ishlatiladigan jarayonlarda, nasoslar blokirovka qurilmasi bilan ta'minlangan bo'lishi kerak (nasosga katta kuch, nagruzka tushganda u avtomatik uchiradi).
- qurilmalarning harakatlanadigan qismlari yopilgan bo'lishi kerak.
- ish joyidagi qurilmalarning isiydigan qismlarining harorati 45°C dan oshmasligi kerak.

Qurilmalarning ichki harorati 100°C bo'lsa, ularning tashqi korpusining harorati 35°C dan oshmasligi kerak. kalsiyli soda, 63,0% suyuq shisha eritmasidan foydalaniladi (100g suvga 0,5 kg).

## **MUALLIF XAQIDA MA'LUMOT**

**Axmedov Azimjon Normo'minovich** - 2021 yildan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti «OOMT» kafedrasи professori v.b. sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Texnika fanlari doktori, dotsent. 2020 yilda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

U 80 dan ortiq ilmiy maqola, 40 ta o'quv-metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, 2 ta monografiya muallifidir. O'zining kasbiy mahoratini oshirib borishga alohida e'tibor beradi. Uning raxbarligida Y.Azimov doktorlik dissertatsiyani himoya qilgan.

Axmedov A.N. professor sifatida ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish bo'yicha ijobjiy ishlarni amalga oshirmoqda.

